



PREZIDENT TA'LIM
MUASSASALARI
AGENTLIGI

IJOD BOG'IDAN GULDASTA

*Jay bir shoir shirini oqib,
Yana olsam qolina qalam.*



O‘zbekiston Respublikasi
Prezident ta’lim muassasalari agentligi

IJOD BOG‘IDAN GULDASTA

Toshkent - 2022

UDK

KBK

O'zbekiston Respublikasi
Prezident ta'lif muassasalari agentligi direktori
Hilola Umarova tahriri ostida ishlab chiqilgan

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Ijodiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Ijod bog'idan guldasta: to'plam.

T.: “_____” nashriyoti, 2022. -__ b.

Mazkur kitobda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil qilingan ijod maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning adabiyot sohasidagi ijod namunalari jamlandi.

Ushbu to'plam orqali she'riyat, nasr yo'nalishida o'z iqtidorlarini namoyon qilayotgan o'g'il-qizlarni xalqimizga tanishtirish, ularning ijodlarini keng jamoatchilikka taqdim etish maqsadi ko'zlangan.

ISBN



*“...ijod maktabida o‘qiyotgan bu bolalar yangi
O‘zbekistonning kelajagi buniyodkorlaridir.
Barcha umumta’lim maktablari ushbu o‘quv
dargohidan ma’naviyatni, ma’rifatni o‘rganishi
lozim. Chunki bu yerda tahsil olayotgan
bolalar nafaqat ma’naviyatli, balki o‘z vatanini
yurakdan sevuvchi iste’dod egalari.
Biz ijod maktablarida vatanparvar yoshlarni
tarbiyalashni maqsad qilganimiz”.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev





Söz boshi



Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonvichning tashabbuslari bilan jamiyatning ilg'or, yetakchi qatlamini tashkil etuvchi, chuqur bilim, keng dunyoqarashga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalangan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy singari ma'rifatparvar ajdodlarimizga munosib "XXI asr jadidlari" degan ziyolilarning yangi avlodini tarbiyalash maqsadida 9 ta ijod maktabi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Prezident ta'lim muasaassalari agentligida ijod maktablarining bosh maqsadi sifatida belgilab olingen vazifalardan ayrimlariga to'xtalishni joiz deb topdim. Ya'ni ijod maktablarida:

badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalariga qiziqadigan ijodkor o'quvchilarni saralab olish, ularning intellektual, ilmiy va ijodiy (she'riyat, nasr, dramaturgiya, publitsistika va boshqa yo'naliishlardagi) iste'dodini yanada rivojlantirishga imkoniyatlar yaratish;

milliy qadriyatlarga tayangan holda ilg'or xalqaro tajriba va jamiyatning zamонавиј талабларига мувоғиқ она тили ва адабиёт, xorijiy tillar, aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlardan sifatli ta'lim tizimini joriy etish, "Uchinchi Renessans" poydevorining rivojlanishiga, o'zbek tili va o'zbek adabiyotini dunyoga tanitishga xizmat qiladigan ijodkor yoshlarni tarbiyalash;

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, liderlik, tizimli tahlil qilish, kreativ va tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishslash, olingen bilim, malaka va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash, notiqlik san'ati, loyihalarni boshqarish ko'nikmalariga o'rgatish;

dunyo tillari orasida o'zbek tilining o'ziga xos o'rni va nufuzini hamda uni o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish, jahon hamjamiyati o'rtasida o'zbek adabiyotini, uning boy tarixini targ'ib qilish.





Ushbu maqsadlarga erishish bo'yicha ijod maktablarida tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan:

yangi avlod darsliklaridan foydalanish yo'lga qo'yildi;

ijodiy (ijod gulshani, yosh tarjimonlar, jurnalistika, musiqa, drama, dizayn, audio va videovizual asarlarni yaratish va boshqa) to'garaklar faoliyati tashkil etildi;

ijtimoiy va ijodiy faol, keng jamoatchilikning ishonchini qozongan adiblar, jamoat arboblari ishtirokida "Mahorat darslari", "Ijodiy uchrashuvlar" o'tkazilmoqda;

bundan tashqari, ijod maktablarining kutubxona fondi milliy va jahon adabiyotining durdona asarlari bilan boyitish bilan bir qatorda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga hamda xalqaro onlayn kutubxona platformasiga bepul ulandi;

xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari uchun xalqaro maydonda tillarni o'rganish samarali deb topilgan darsliklardan foydalanish tizimli yo'lga qo'yildi.

Pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy mahoratini oshirishlari uchun shart-sharoit yaratilayotganligi bugungi o'quvchilarimizning intellektual, ilmiy va ijodiy iste'dodini, ona tili va adabiyot, xorijiy tillar, aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlardan sifatli ta'lim olayotganligini ta'minlamoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'tgan qisqa vaqt ichida Prezidentimiz tashabbuslari bilan ochilgan ijod maktablari o'quvchilarining ijod namunalari mahalliy va xorijiy gazeta-jurnallarda chop etilmoqda, ularning ijodiy ishlar to'plami kitob holida ham nashrdan chiqarilib kitob ixlosmandlariga taqdim etib borilmoqda.

Kitobxonlarning fikr-mulohazalariga tayanib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi ijod maktablarida yangi zamon ijodkorlari tarbiyalanmoqda desak xato bo'lmaydi.

Umid qilamanki, ushu bo'plamga kiritilgan ijod maktablari o'quvchilarining ijodiy ishlari ham Sizni befarq qoldirmaydi.

Prezident ta'lim muassasalari agentligi direktori

Hilola Umarova





**IBRAYIM YUSUPOV
NOMIDAGI IJOD MAKTABI**



Dilnoza Jumanazarova
11-sinf o'quvchisi



Yuragim yemirib qiynaydi savol,
Bu sho'xlik ko'zlardan nimalar kutgan?
Yolg'izlik hukmiga mahkumdir xayol,
Tunni tongga ulab nurga ko'z tutgan.

Foniy bu dunyoda foniy barchasi,
Mehr-oqibatdir abadiy qolar.
Yolg'izlik hukmidan charchagan xayol...
Yana o'sha qalbni qilar xor-u zor.

Shafaq nuri tekkan yerlar oboddir,
Qafasdagı qushlar sayrar betinim.
Yolg'izlik hukmida qolganda she'rlar
Qalamim yozolmas – siyoh kichrayar...

Sen tongni kuylagin quvonib, jo'shib,
Qora zulmat ichida bir nurdir iymon.
Yolg'izlik hukmidan berkinib qochib,
O'zingning o'rningni toparsan inson...





Sendan ko'ra bugun tuyg'u begona
Bu so'zlarni menga takrorla yana.
Har nigohingdan men o'zimni topdim,
Yana xayol qochdi, bo'lism devona.

Bemor qilma mening tuyg'ularimni,
Ruhim sirqiroqlar soladir tanga.
Qiyin vaziyatda qolganim uchun,
Yuragim betlamas-qilmasman ta'na.

Boshimni egmayman qalbi ko'r larda,
Faqat sof yurak-la sevib qolibman.
Unutsang, unutib borgin dildorga,
O'zimdan o'tganin o'zim bilibman.

Xayrli bo'lsin deb bir kulib qo'yding,
Xayrli bo'lgandi ikkimiz uchun.
Nega endi ayriliq tig'lari bilan
Qalbimni yaralab ketyapsan kechib?
Nega bu tugunni bo'lmaydi yechib?!





Suwlar máwjiresip ağar teńizde,
Ketesiz tolqınlar asa keńlikke,
Kemeniń maqseti – dúnyanı geziw,
Kózlerimnen jiraqlaydı ele de.

Meni ózligimnen ayırıp birden,
Saǵınıw sezimin maǵan júkleydi.
Ózim ózligimnen alıslap kem-kem,
Solay ketip baratırman. Heshkim bilmeydi.

Jaǵada ózińdi kútermen endi,
Esaplı ómirdiń sońına shekem.
Kewlimniń teńizi hawazǵa keldi:
“Muhabbat kemesi” kelmeydi!” – degen.



Ramiza Sársenbaeva
11-sinf o'quvchisi

Watanım



Bul jarıq dúnyada,
Dástanım óziń.
Gúldey suliw dóngen,
Bostanım óziń.
Baxtımsań-baylıǵım,
Jalǵız tilegim.
Sen dep soǵar Watan —
meniń júregim,
Tánimde janımsań,
Tamırda qanım,
Júrekte jańlaydı,
Bir seniń atıń,
Watanım-barımsań,
Júrekte janım,
Keleshek kamalım,
óziń-Watanım!



Umtılıw

Adamniń kelege keliwi qıyın,
Bala waqta túsinbeyseń hesh birin
Jaqsı yaki jaman doslardiń birin,
Saylaw jolı tek ózińe berilgen.

Jaqsı insan bolıw-hárbir adamniń,
Júreginde túygen arzıwı bálkim.
Jaqsılıqqa umtil ómirde bárha,
Óz soqpaǵın ózi tańlaydı hárkim.



Anisa Karimbaeva
10-sinf o'quvchisi

Tún. Dawıllar qağar áynegim,
Terekler de áste ses qosar.
Tısırlaydı, ol ne, bilmedim,
Qorqınıshlı qiyallar basar.

Geyde denem muzlap keter,
Qaltırayıdı biraz dawısım.
Kirpik kózlerime zulimliq eter,
Ses shıǵartpas hasla awızım.

"Uyıqla!" deymen ózime-ózim,
Bir sóz benen jubanaman ba?
Tańǵa shekem jeter me tózim,
Uyıqlap qalsam oyanaman ba?



Qáne endi, tolsa aralím!



Qáne endi, tolsa Aralím,
Qurǵaqshılıq joǵalarmedi.
Qáne endi, tolsa Aralím,
Adamlar da quwanar edi.

Qáne endi, tolsa Aralím,
Tábiyat bir ház eter edi.
Úlkeme taza hawa taralıp,
Kewillerdi jaz eter edi.

Qáne endi, tolsa Aralím,
Balıqlar da shapşıp oynasa!
Teńizdi saǵınıp qalǵan quşlar da,
Aspanlarda sharq urıp ushsa!

Qáne endi, tolsa Aralím,
Kózlerime quwanışh kirse!
Muńlı turǵan teregin, talım,
Háwij alıp, en jayıp ketse!



Negedur seskenemen sóylewden,
Yaki, toqtadım ba kókke órlewdən.
Qoriqtım kewil dáryam-yosh bulaǵınıń
Suwin iship bolıp keyin shóllewdən.

Sóylep jetkere almayman pikirimdi,
Joq ete almayman natıqlıǵımdi.
Sóylesem tegisley almay qalaman
Qıyal jolındıǵı digir-dúgirdı.

Bayan etkende tek qosıq arqalı,
Payda bolar erkinliktiń nart tali.
Men arqayıń bolaman sonda ǵana,
Kókte ushqan aq kepterdey misali.



Gúlziyra Bisenbaeva
10-sinf o'quvchisi

Ana tilim — ardagımsan, arımsan!

Ana tilim – ózge tilden ayırmam,
Sağan arnap qosıp jazsam oyımnan,
Keshir, meni aytqan bazı sózime,
Ózge tildi qosıp qoysam ǵayıptan!

Ana tilim — ardaǵımsań, arımsań,
Tamırımda ağıp turǵan qanımsań.
Berdaq shayır shertken dártli duwtarsań,
Ajiniyazdıń xosh hawazlı sazısań.

Aspanda juldızǵa qarap otırıp,
Úzliksiz oy-qıyallar súremen.
Onnan qúdiretli ilham-yosh alıp,
Jaqsı nárselerdi niyet etemen:

Biyǵárez Watanniń úmitin aqlap,
Qáleymen dúnyaǵa tanıtsam eldi,
Shayırlıqqqa barar joldı jaǵalap,
Aq qaǵazdı qaralayman túnleri.

Tuwılǵan jer topıraqın qásterlep,
Onı jat kózlerden qorǵasam deymen.
El-xalqıma hadal xızmetler etip,
Jurtımdı shadlıqqqa bólesem deymen!

Úmitlerin aqlap ata-anamnıń,
Áziz ustazlardıń izinen barsam.
Niyetim sol-jarıq etip júzlerin.
Zulfiyaday jaqsı shayıra bolsam!





Ana tilim

Babalardıń mártilginen,
Súrginlerde joǵalmadıń.
Qansha tildi kórsemdağı,
Sennen zor til tabalmadım.

Taza saqlap, qorǵap seni,
Qansha ullan janın tikken.
Anasına teńep seni,
Qansha shayır jırlap ótken.

Ananıń aq súti menen,
Qarıstiń sen qanımızǵa.
Sen arqalı túni menen,
“Háyyiw” sińdi sanamızǵa.

Úyrenip biz tariyxıńdı,
Ashpaqtamız ilim sırin.
Ullı mektep dárgayında,
Sen arqalı aldíq bilim.



Biybiraba Mawlenova
10-sinf o'quvchisi

Bayram múbárek



Íárezsizlik berdiń ana xalqıma,
Adamlar júzinde kúlki bárháma.
Endi olar erkin nápesin alar,
Kewilleri bárha shadlıqqa tolar.

Tinishlıq, tatiwlıq degen eki sóz,
Insanlarǵa shadlıq beredi mudam.
Tinishlıq, tatiwlıq degen eki sóz,
Íárezsiz el ushin boladı uran.

Búgin qutlı kúniń, shadlı bayramıń,
Otiz birge tolǵan jasiń múbárek.
Bir-birinen ziyrek, kámil jaslarıń,
Keleshegiń ushin polattay tirek!

Suwıq kúnler



Báhár keldi...
Mart ayı ortaları,
Sulıw gúl átiraptı tolkıradı.
Sonday ıssi, quyashlı kún bolsadaǵı,
Bilmeymen, ne ushin júrek tońadı...

Jaralar kewildi báhár esteligi,
(Sol bir sulıw qızdıń taslap ketkeni).
Kópten kútken kóklem keliwi menen,
Baslanar kewlimniń suwıq kúnleri.





Balalıq

Keshe ǵana multfilm kórip jatqan,
Búgin bolsa mashqala asar bastan,
Bul sózlerdi yadtan shıgarma haslan:
“Ómirińniń altın dáwiri balalıq”.

Jas balalar edik qayǵıdan jiraq,
“Jasırınbaq” edi biz ushin sınaq,
Qızıqlarǵa bay bolsa da ol biraq
Bizdi taslap ketti-altın balalıq.

Awlaq edik bizler ósekten sózden,
Baxıtlı adam joq edi-ǵoy bizden,
Jalınıp sorayman, ótinish sizden,
Qaytip kelmeysiz be, altın balalıq?



Samad Abdreymov
9-sinf o'quvchisi

Sezimler...

Duslastı...
Bir-birin jaqsı tanıtı,
Doslastı. Aspanda quslarday ushti,
Kewilli kúnlerdiń birinde birden,
Muhabbat sezimi júrekke tústi.
Sezimler oyandı...
Mehir oyandı...
Biraq, júrek sonda da
Bul sezimlerge hesh
Kewli tolmadı,
Qız benen jígittiń doslıǵı,
Muhabbattıń sınaǵınan
Sınıp ketti.
Óte almadı...





Beslik



Ómirden nalinip qıynamaǵıl júrekti,
Birew ushin sen bolasań kerekli,
Birewlerge bir tiyিnge qádiriń joq,
Birew ushin senseń mińǵa derekli,
Ózińe ózińnen basqa hesh dos joq!



Eki nárse



Eki nárse seniń dushpanıń bolar,
Maqsetke tosqınlıq qıladı olar.
Biri, keleshekti aytıp kópiriw,
Ekinshisi, ótmishińe ókiniw.

Eki nárse seniń doslariń bolar:
Ómirde jasawǵa kúsh-jiger olar -
Biri, búginińe shúkirlik etiw,
Ekinshisi, jetiskenlikke jetiw.

Eki nárse bar: jaqsı hám jaman,
Ajirata aladı túsimpaz adam,
Jaqsısı-jaqsılardan uzaqlap ketpew,
Jamanı-jaqsılardıń qádirine jetpew.



Muńayip júrgeniń saǵan jaqsı ma?
Bul dúnyada jasaw ushn qayǵırma!
Haqıyqıy qayǵını kóreseń ele,
Ashıw kelip, shaytan joldan azǵırsa.

Bazda qayǵı bolar, bazda quwanısh,
Bir jerlerde urıs, bir jerler tıniș,
Adamzat, ne bolsa da shúkirlik et,
Bir qolǵa gúl berse, bir qolǵa qılısh...



Dilbar Joldasbaeva
8-sinf o'quvchisi

Ana tilim

Ana tilim- júregimniń aynası,
Misli atqan gózzal tańniń shuǵlası,
Bizge jetken babalardıń miyrası,
Ana tilim- saǵan tájim etemiz .

Taza sóylep, qádirińe jetemiz,
Sen arqalı dushpandı da jeńemiz,
Jamanlardı dúzetiwshi quralsań,
Ana tilim-saǵan tájim etemiz.

Sen bar bolsań- millet jasar baxıtlı,
Óz tilimde patshadayman taxtılı,
Eger ana tilime atılsa bir "oq"
Onda meniń júregimdi tırnayıdı,





Zebuzar Kamalova

8-sinf óquvchisi

Ilham pariysi

Onam menga she'r yoz deydi,
Lekin ilhom kelmaydi.
Agar ilhom kelmasa,
Undan shoir bo'lmaydi.
Ilhom kelishin kutib,
O'tirsam alam yutib.
Ammo sho'rlik pariyim
Uxlab qolganmi, qotib?!
Men uyquni sevaman,
U men bilan qoladi.
Buni ko'rgan pariyim,
Mendan o'mak oladi.
Yozgin desam yozmaydi,
Dangasalik qiladi.
Pariyimning óziga,
Oachon ilhom keladi?!

Kuz

Ketib yozning issiq havosi,
Pishdi mazza-o'rik, gilosи.
Yetib kelar, xazon havosi,
Fasllarning "oltin" jilosи!

G'arq pishadi behi-yu qovun,
Keng paxtazor, to'la "oq oltin".
Boshoglardan to'ladi xirmon,
Kuzim sen-la yo'qdir hech armon!



Àdeplilik

Qollarımız partada,
Dıqqatımız taxtada,
Muğallimdi tıńlaymız,
Àdepsizlik qılmaymız.

Jası úlkendi siylaymız,
Kitaptı taza uslaymız,
Àdeplilik jaqsı góy,
Bunu este saqlaymız.



Húrliman Shamshetdinova
8-sinf o'quvchisi




Ustazlarga

Ustaz sózi ullı-dańqı taralǵan,
Tárbiya hám bilim beriwshi insan,
Ilim sırin úyretiwge talpingan,
Tabısqa jetermen sózlerin uqsam.

Jazıp-sızıp úyreter ol jasimnan,
Bilimli bol, àdep saqla,- der mudam,
Tárbiya jolında pidayı bolǵan,
Ómir boyı minnetdarman ustazdan!



**MUHAMMAD YUSUF
NOMIDAGI IJOD MAK TABI**





Buyuk karvon borar yo'lida,
Karvonboshi yo'lni boshlar.
Sadoqatli yelkadoshdir,
Kelajagi buyuk yoshlar.

Oson emas panja urmoq
She'r ilmida asl sherga.
Vatan ulug' mukofotdir
Ajdodlardan har bir erga.

Yurt otasi berar imkon,
Har sohada mayoq qo'lida.
Shahar kabi sharoitlar
Mujassamdir Mirzacho'lida.

Hozir zamon biznikidir,
Keljakka bosdik qadam.
Ilm – chiroq, maqsad – buyuk,
Quchoq ochar yangi olam.

Men ham shu xalq farzandiman,
Vatanim deb ochdim ko'zim.
Yangi O'zbekiston uchun
Bordir yangi aytar so'zim.

Eski armon, eski gaplar,
Barchasiga yog'di qorlar.
Bugun millat tepasida
Prezidentim – faxrim chorlar!



Akmaljon Abduraxmonov
11-sinf o'quvchisi





Har g'unchaki gullay bilsa, bo'ston bo'lar,
Har ezgulik kuylay bilsang, doston bo'lar.
Qayda ko'rsang o'ziga bek sulaymonni,
Ulg'aytirgan yurti O'zbekiston bo'lar!
O'zbekiston, bolangligim – baxtim mening,
Temur Malik shiddatida shaxdim mening!

Ming kuylasam, tugamaydi alyorlarim,
Hurlik bilan bezangan gul diyorlarim.
Keksalarining kafti to'lsa duolarga,
Oq yo'l tilar bahorlarim, nahorlarim!
O'zbekiston, sodiqligim – ahdim mening,
Bobolarim xoki poyi taxtim mening!

Bol bermasa, bolaridan kechish kerak.
Ilm – mayoq, Zuhroga yo'l ochish kerak.
El koriga yaramasang o'g'il bo'lib,
Bu dunyodan ketish kerak!
Ketish kerak!
O'zbekiston, jannatmakon shahrim mening,
Ikki daryo –
Ikki boqiy nahrim mening!

Men o'zimga o'rnak izlab kezmam jahon,
O'zbekiston azal erur mard-u maydon.
Shu azaliy karvon bilan yo'lga chiqdik,
Inshoollo, haq yo'liga boshlar sarbon!
Yangi Vatan ko'ksidagi bahrim mening,
Karvonboshim – Prezidentim faxrim mening!





Adabiyot!

Cheksizlikning ismidir adabiyot!

Adabiyot!

Bahr-u bar tubida yasaydi marjon,
Samo toqiga qadab boradi imkon.

18-1 Ismingdan o'rgilay,

Adabiyot!

Sharifing – ilm-u urfon.

O'rxun-Enasoydan tortib to

Jontemirning go'zal tuyg'ulariga-da
makon.

Bunda hislar rang-barang

Goh qabohat taxtga egalik qiladi.

Goho adolat nafas oladi

arang-arang...

Adabiyot!!!

Odam Atodan qolgan marsiyam.

Ne-ne shohlarning ma'siyatini yashirgan haram.

Ba'zan dargohi iqboliga qo'nadi hilol,

Ba'zan o'tmishingga boqsam, shilinar

yaram...

Ammo

bir buyuklik borki,

uni Rabbim yaratgan

ming yil!

Fasohat-u xazoyiniga tahsinlar aytadi til.

Ikki olam nafsiñi jilovlagan umr bog'ida,

Husayniy birla o'ynab yurgan chog'ida.

Qiziqtira olmagan mulki Sulaymonlarning mayxonalari,
Uyatdan to'kilgan Jamshidning jomalari.





Hali go'dak ersa oshig'i gulning,
Navosig'a shaydo bo'lib bulbulning.
Har so'zida Olloh ismi takror,
Oshiqligidan sachratib sharor.

Nizomiddin Kichkinaning katta sharafi,
Yorishib ketdi Hirotning to'rt tarafi.
Ne tong,
Haqning tortig'i turkiyzabon elimga,
Tug'ilajak yangidan xasta o'zbek tilimga.
Demog'im ko'p ulug'lar bobida,
Vale hozir fikrlarim bir hayrat tobida.
Navoiy desam,tilim to'kiluvchi tahsinlar shitobida.

Endi

Ikki hayrat juftlashdi:
Adabiyot va Navoiy!
Nizomiy panjasini siylagan,
Dehlaviy yo'lini Rahmondan so'rigan,
Jomiyning "Yetti taxt"ini bag'riga bosib,
Asta xamsanavislar tomon yo'llagan,
Xamsanavisim – Mir Alisher!
Bola bo'lib o'ynagani birgina sopol qo'chqor.
Lekin bola nigohida ulug'ligi oshkor,

Ammo

El uchun ilingan yaxshiligi asror bo'lgan zot!
Qalamidan tomgan nuqralari bo'ldi "Bahrul hayot",
Xudodan so'raganlarini yig'ib nomladi
"Nahrul najot".

Keksa va ayyor dunyo ko'ziga Farhod bo'lib tikildi,
Yetib bo'lmas Layli ishqida Majnun bo'lib yiqildi.
Aysh-ishratga berilgan Bahrom qiyofasida
O'rmon botqog'iga tiqildi.
Navoiy – fikrat!





Navoiy – ibrat!
Navoiy sharq fazilatiga makon.
Demak, u – ilm!
Ilm esa najot!
Foniy dunyoning neligini his etmoq uchun
Navoiyni anglash yetadi!
Anglasak, bas!
Umr zangi to'kiladi-ketadi.
U donishmand tilshunos,
Erkaladi forsiyni,
Qur'on tili – arabiyni,
Biroq,
Mung'aygan turkimning qo'lini tutqazib qo'ydi kibor forsiyga.
Ma'nodoshlar,
Shakldoshlar saf tortib jilvalandilar
buyuk mumtozimning kuyiga.
Jomiy tahsinlar dedi:
Xayriyatki, hazrat so'zлari turkiyda bo'ldi,
Forsiy bo'lsami bori...
Bizning asarlarning bo'lmas edi oxori.
"Muhokamat ul-lug'atayn"
Tillar viqori!
Tillar iqrori!
Endi kansitmas turkiy tilim.
Alisherbek sabab ochildi o'zbek tilimning jilva-asrори.
Yayradi iboralarim!
Sinonim-iforalarim !
Yetti asrki yaltiraydi quvonchli jalalarim!
Men – o'zbekman!
O'ziga bekman!
Navoiyning millatdoshiman.
Nohaqlikka xo'rak bo'lgan onlarida
Zimdan ezilgan darddoshiman.
Astrobod surgunida
Xiyonatlar urchigan tunida





Boyqarodan ayro tushgan kunida ham
Sirini sabrga so'ylagan Navoiy millatdoshiman.
Bular – ibrat!
Bular – o'tkinchi!
Bular o'tadi!
Hammasidek yaxshilik undirmoq uchun,
Navoiyni anglash yetadi!
Uyg'onish davrining baxti – Navoiy,
Buyuklikka tashlangan qadamning shaxdi – Navoiy.
Davlat korida,
Shijoat bobida,
Hayot rohida
Men kabi yoshlarning ahdi – Navoiy!
Xulosaki, sadoqatimga,
ibodatimga,
shijoatimga,
fasohatimga

IBRAT-NAVOIY!



Gul Vatan,
Ozod yurt,
Mehribon, zamin!
Asrlar kaftida ungan niholim.
Minorlar qatida gung bo'lib gohi,
Haqiqat ko'ksida yongan hilolim!
Joningni jonimga ulaysan, Vatan!

Har go'shang shoirlar qalamiga ko'rк,
Har lahza qadrida Hazrati Inson.
Otash yuragingni darmon qilgaysan,
Qaysiki bolangda cheklansa imkon,
Jahonga shon bo'lib bo'ylaysan, Vatan!

Men Ibn Sinoman, men To'marisman,
Ma'rifat bog'ida ulg'ayar tanim.
Nechun faxrlanmay baxtiyorman deb,
Shifoxonangda ham berilsa ta'lim,
Madhingni she'r qilib so'ylayman, Vatan!

Qarorim –adolat,
Maqsadim buyuk,
Hali zabit etgulik marralar bisyor.
G'alabam shodasi – medallarimni
Vatan, taqib qo'ygum ko'ksingga ming bor,
Va Seni tog' bo'lib suyayman, VATAN!



Gulchiroy Davronbekova
11-sinf o'quvchisi





Shukronalik so'zim



Vatan!

Sen eng go'zal tuyg'ular makoni,

Sening noming ulug' maqomlarning maqomi.

Sen qo'l cho'zgan har tog' borki, qo'lingdan tutadi mahkam,

Shamoling esgan joy borki, mangulikka qo'yadi qadam.

Men kimman aslida?

Ulug' Temur, hazrat Navoiy, shoh Boburning nasli-da.

Tomirda jo'sh urar bobolar qoni,

Jonimga payvand har o'zbekning joni.

Ajdodlarim seni chindan xo'p sevmish,

Tuprog'ing o'pib so'ng jonini bermish.

Bizlarkim, yurt ishqida misoli Farhod

Bo'lgaymiz ajdodlarga munosib avlod,

Uchinchi Renessans – uyg'onish davri,

Mudroq yuraklarni uyg'otish davri.

Yoshlar siyosati yoyildi elga,

Endi jim turmaymiz, qo'llarni qo'yamaymiz belga.

Ta'lim ham yuksalmish jahonga bo'ylab,

Har bola madh aytmish o'n tilda so'ylab.

Yangi O'zbekiston ostonasida,

Turibmiz shukrona qo'shig'in kuylab.

Yurtboshi yaratmis bizlarga imkon,

Biz turgan kunlar ham bo'lgan-ku armon.

Mustaqillik nomin qilmishlar orzu,

Mana, o'sha kunlar, yuzlarda kulgu.

Shukrona kuyini chalsin butun el,

Kel, do'stim, biz bilan qo'lni qo'lga ber!

Vatanim, har go'shang jannatdan parcha,

Sening xizmatingga shaymiz umr boricha.

Yurtboshim o'zi bosh har buyuk ishga,

Xalqni to'q, turmushni sog'lom qilishga.

Har kuning shodlikka ko'milmish, shukr,

Har saharing sutga cho'milmish, shukr.

Quyoshing ko'z yumib bir kun tugagach,



Erta tong tog' ortidan ko'rinnish, shukr.
Tinchliging o'zingga yarashar, shukr,
Yurtlar havas ila qarashar, shukr.
Mana shu ko'z nuring – jon farzandlaring,
Bag'ringda ulg'ayib, baxtga to'lajak.
Hali buyuk avlod buyuk ajdodga,
Munosib bo'lajak, loyiq bo'lajak!

Navoiyga maktub



Bugun samolarda uchar she'riyat,
Bugun nomi ulug' siz suygan tilni,
Bugun kelajakka bitdik maktublar,
Tutdik siz boshlagan shu buyuk yo'lni.

Mana besh asrkim lovullar hamon
Adabiyot deya atalmish otash.
Mana o'zbek xalqin dovrug'i osmon,
Avlodlar maqsadi tarixga tutash.

Siz bitgan asarlar kezar olamni,
Eltar ona xalqin salomlarini,
"Xamsa" ning qo'ynida barq urar tilim,
Mujassam aylab Haq kalomlarini.

Besh yuz yil qa'rida yonmoqda olov,
Bu siz yoqib ketgan mumtoz alanga.
Joylang har yurakka hikmatlaringiz,
Bo'lzin sadoqatli farzand Vatanga.

Sizning merosingiz chindan xazina,
Etar ega bo'lgan har insonni shod.
Yana million asr etarkan davom,
Navoiyni yodlar el bo'lur obod!





Ijodimga xitob



Bo'l qanot, samoga yetsin kuylarim,
Bo'l umid, hamisha aytar tillarim.
Bo'l omon, iqbolni olayin qarshi,
Bo'l sodiq, dilingga tutash dillarim.

Bo'l jahon, bag'ringda gullasin hayot,
Bo'l osmon, yelkangda ko'tar meni ham.
Bo'l tayanch, yiqlsam chidolmay nogoh,
Bo'l saxiy, noningni ko'ramiz baham.

Bo'l ko'zgu, aksimni ko'rsat ayovsiz,
Bo'l quyosh, muzliklar topmasdan qo'nim.
Bo'l boqiy, ko'ksimga qurayin qasring,
Bo'l ogoh, she'riyat – bu mening yo'lim!



Bolalik




Qayerlarga ketding, qayoqqa ketding,
Bolalik. Sho'xliklar. Erk ashulasi.
Bilmayman qaysi joy, manzilga yetding,
Hayot quyoshimning yorqin shu'lasi.

Ketmayman, bormayman senga, o, yoshlik,
Sig'dirgim kelmas hech yuraklarimga.
Ber barcha shodliging qo'yaman taqib,
Onam chimdib olgan bilaklarimga.



Dada



Kunlarim o'tmoqda kurnarni quvib,
Yillar armon ila bosadi qadam.
Erka qizim deya ardoqlab, suyib,
Tushlarimga kirar mehribon dadam.

Motam libosini kiygan yurakni,
Qayg'u ummoniga g'arq qilar taqdir.
Bilmayman, sabr-la yashash kerakmi,
Axir jon omonat, oxirat haqdir.

Go'zal jannatingning eshiklarini,
Qiblagohim uchun ochgin ilohim.
Erta qiyomatda yuz ko'rishganda,
Qo'limda toj ila boray ilohim.

Faqat o'kinadi, mehr qumsar dil,
Olis makonlarga ketmoq istaydi.
Oh, qani shu ko'ngil vaqtini hech qachon,
Ortga qaytmasligin avval bilsaydi.

Bezar xotiralar endi qalbimni,
Shundan zavqqa cho'mib, baxtga to'laman,
Qo'llarim duoga ochib tun-u kun
Dada, siz aytganday buyuk bo'laman!

Ko'kka o'ralaydi sonsiz o'ylarim,
Pechga o'zin otar dardisar yurak.
Qahvada eriydi oppoq umidlar,
U yondan bu yonga aylanar, halak.

Xonaga cho'kmoqda og'ir sukunat,
Yuragim taftidan isiydi qalblar.
Burchak burchaklarga o'zlarin olib,
Isyon qo'zg'ayapti tinmayin dardlar.

Oynadan tomadi alam ko'z yoshi,
Bu kun sukunatga berar bag'rini.
Tashqarida nurin qizg'onib quyosh,
She'rimga ko'chirib qo'yar barini.



Hayitlik

Bugun bayram, bugun tantana,
Har kim baxtga to'ladi birday.
Bir mengina turaman chetda,
Quyosh nurin ko'rmagan gulday.

Qo'shni hovli kattamas, biroq
Bezab turar shodlikning fayzi.
Sahardanoq maqtanar menga,
Dadasidan pul olgan qizi.

Darvozadan boqsam jimgina,
Quvonch kuyin aytar ko'chalar.
Ana, ketar mehmonga kulib,
Yangi ko'yvak kiygan qizchalar.

Hali hamon o'chmabdi, mana,
Ostonaga tushgan izingiz.
Bugun parvoz qilar qiynalib,
Orzulari osmon qizingiz.

Dada, kimdan kutayin hadya,
Necha yilki qalbda zaiflik.
Har yil takror qo'limda titrar,
Siz o'shanda bergen hayitlik,
Siz yaxshiyam bergen hayitlik...



Xalqim



Vatan desa kundaga ham qo'yar aziz boshini,
O'zi yemay bemor do'stga ilinadi oshini.
G'animlarga berib qo'ymas hatto yurtin toshini,
Ana shunday mehnatkash-u xokisor mening xalqim.

Mehmon bo'lsang, o'z uyining to'ri bo'lar seniki,
Do'st tutinsang, bilib qo'ygin, qalbin qo'ri seniki.
O'z jonidan boshqa topgan-tutgan bori seniki,
Ana shunday mehnatkash-u xokisor mening xalqim.

Osmonida porlab turgan quyoshi ham boshqacha,
Dunyolar ham tan ololgan bardoshi ham boshqacha.
Do'st tutinsa, do'sti iymon – sirdoshi ham boshqacha,
Ana shunday mehnatkash-u xokisor mening xalqim.

Halol rizqin yerdan terib kelgan buyuk xalqdir u,
Men o'zbekman deya ko'krak kerib kelgan xalqdir u.
Sadoqatli, muruvvatli, chin jannati xalqdir u,
Ana shunday mehnatkash-u xokisor mening xalqim.



Ziyodaxon Abdujalilova
10-sinf o'quvchisi

Vatanparvarlik!
Baxtiyorlik,
Mardonavorlik,
Mag'rur nigohlarning tarjimasi – bu!
Saodat,
Qanoat
va buyuk islohot...
kelajak samosining nur-shu'lasi – bu!
O'zbekiston!
Qanday yurtki,
tarixin yupatib,
kelajakka imkonlar tutgan.
Osmonidagi qora bulutlarni
ilm mayog'i bilan tarqatib,
jahon minbarlarida irod etmoq-chun
ziyo mash'alasin tutgan
siyрати – hilм,
maqsadi – bilim,
zaboni shukronalikka to'lган lim-lim,
Imom Buxoriylar yurti – bu!
Men esa
mana shu jannatning bir shirin mevasiman.
Ijod maktabining qizg'aldog'i –
Muhammad Yusufning asl shevasiman.
Ota-bobolarim orzusida qolib ketgan
azaliy istak – Qodiriy bobomning dunyosi,
Hazrati Mashrabning ziyosi,
Abdulhamid Cho'lponning
eng tiniq daryosiman!
Bugun to'lqinlar bilan
ummonim qirg'og'idan
toshsam, arziydi.
Imkoniyatlar qanotidaman,
Demakki, dunyo ko'rib,
Everest cho'qqisidan oshsam,
arziydi!

Har ne topilgusi gul diyorimda:
Barqaror va adolatli
Islohot,
Shijoat.
Biroq bu yo'lida ko'pdir sinoat!
Yurtboshimga esa kerak
Faqat sadoqat, matonat!
Bularning barchasi, ey zamondosh – tengdoshim,
Aslida farog'at!
Sog'lom turmush,
Yetakchi ta'lim,
Zamonaviy dastgoh,
Halol foydali investitsiya –
Biz – yoshlarning ixtiyorimizda.
Yurtboshimning cheksiz ishonchini oqlash
Sen va mening qarorimizda,
Tengdoshim!
Yoshlarning shuhratini yoyadi ijod.
Ilm esa hamisha NAJOT!
Kel endi, qo'lni qo'lga beraylik,
Bobolarga munosib ko'krak keraylik!
Vatanimga, xalqimga,
Prezidentimga fidoyilik tinmasin
jonda,
tanda.
Duo qilgin,
Navqiron Turkistonim!
Ajdodlari mangu barhayot,
Avlodlari tengsiz baxtiyor
yashasin
Uchinchi Renessans –
Yangi O'zbekistonda!



Shahnozabonu Ahmadullayeva
10-sinf o'quvchisi



Yurt otasi,
Ulug' karvon yetaklagan sarbon erur,
Gulzorini yashnatguvchi bog'bon erur,
Kecha-kunduz bedor ona xalqim deya,
Ona xalqi uni ham o'z bolam deyur.
Gul-chechakka makon qir-u dalalari
Otam deydi, sizni o'zbek bolalari.

Minglab bobo buvilarning duosida,
Erta-yu kech mehnatkash xalq orasida,
Ishonchingiz asraymiz ko'z qorasida,
Baxtdan nishon elning to'y-u yallalari,
Otam deydi, sizni o'zbek bolalari.

Xalqi uchun ne darkordir bilar darhol,
Najotga zor bemorlardan so'rар ahvol,
Ezgu amal ila qaytar har bir savol,
Butun yurtning, ishonchi ko'z qoralari,
Otam deydi, sizni o'zbek bolalari!





“Seni kuulayman hayot”

(Zulfiyaxonimning she'riga nazira)



“Yashash aziz hissi tanda kezganda,
Umr ko’pi kechib, armon dilni ezganda,
Hatto o’zni xasta, zaif sezganda,
Og’ir, benaf o’ydan yurak bezganda
Seni kuulayman, hayot!”

Ko’klam ko’zyoshimdan bilsa-da sirim,
Kibor qoyalarda orzular uyum.
Goho dengiz kabi toshib betinim,
Gohi yuragimga ko’milib jim-jim
Seni kuulayman, hayot!

Har fasl kuch berar armonlarimga,
Hulkarim chiroqdir osmonlarimga.
Omondan omonlik ko’rsatib go’yo,
Olov purkasang-da hijronlarimga,
Seni kuulayman, hayot!

Sen asl dugonam, bolamsan, onam,
Shodligim, quvonchlar tug’ilgan xonam.
Mehrdan yaralgan guldasta misol,
Oppoq libosdagi bahoriy olam
Seni kuulayman, hayot!

Har sahifang nelarni tutmog’i gumon,
Balki, bir maktubing baxt, biri armon.
Jisming ne? Ruhingni bag’rimga bosib,
Yana barchasidan topmoq chun darmon
Seni kuulayman, hayot!

Kuulayman, kuulayman, sensizlik og’ir,
Sardaftar, sarlavham Hamid Olimjon!
Har lahza bag’ridan tabassum bilan
Menga tutqazganining bir quchoq imkon
Seni kuulayman, hayot!



Manzara



Gulbadan Aliqulova
10-sinf o'quvchisi

Bo'zto'rg'ayning navosi aro,
Ko'zlarimni asta ochaman.
Ostonadan xatlab birma-bir,
Ilhom qanotida uchaman.

Chilustunning tonglari aro,
Zarrin nurin sochadi oftob.
Maysalarda tovlanar go'yo,
Atirgulning shabnami – sharob.

Osmon esa misoli dengiz,
Oq bulutlar ulkan kemadir.
Hayot – yashash, kurashmoq zavqi,
Vujudimda sarxush kezadir.

Yelkasiga ilib ketmonin,
Dalasiga shoshganda dehqon,
Ko'chalarni to'ldirib qiy-chuv,
O'ynab borar bolalar shodon.

Qanday go'zal ajib manzara,
Kelajakka yoyeroy poyandoz.
Men esa shu gulbog'lar aro,
Qanot yozib etgayman parvoz!

Shahnoza ustoz

Sabog'ingiz sevaman,
Tinglang gapimni biroz.
Vazifalar ustiga
Vazifa bermang, ustoz!
Talabingiz ko'p juda,
Bog'ga qachon boraman?
Kitobni o'qiyversam,
Qachon futbol ko'raman?



Assalomu alaykum

Kalomlarning yaxshisi –
Assalomu alaykum.
Salomlarning yaxshisi –
Assalomu alaykum.

Yarashar har zamonga,
Har bir shirin zabonga.
Taralsin har tomonga
Assalomu alaykum.

Xulq-u odobning boshi,
Mehrning tamal toshi.
Ma'naviyat quyoshi –
Assalomu alaykum.

Bo'lay desang barkamol,
O'say desang bezavol.
Salom ber va alik ol –
Assalomu alaykum.

O, mening ona xalqim,
Fidoying bo'lay o'zim.
Avvalo aytar so'zim –
Assalomu alaykum!

Sirojiddin Hojirasulov
10-sinf o'quvchisi



Muhammadaziz Qodirjonov
10-sinf o'quvchisi



O'gri mushuk

O'g'ri mushuk, o'g'ri mushuk,
Sichqonlarning sho'ri mushuk.
Tomimizda men tanigan
Mushuklarning zo'ri mushuk.

Poylab, tunni tongga ulab,
Ushlab oldim qopga o'rab.
Qorni rosa ochgan ekan,
Sut ichirdim boshin silab.

Oshxonamiz eshigini
Bildirmsandan ochganmiding?
Oyim to'g'rab qo'ygan go'shtni
Sen o'g'irlab qochganmiding?

Ko'zga yaqin tillo mushuk,
Qilaverma yallo, mushuk.
O'g'ri – bitta, gumon – mingta,
Qo'lga tushgan mullo mushuk.

O'g'ri mushuk, o'g'ri mushuk,
Endi bo'lgin to'g'ri mushuk...

Xayolparast shoir

Sotib oldim do'kondan
Bir qop to'la qofiya.
Noyob molni boshqalar
Bermadi-da nasiya!

Pulin to'lab hamyondan,
Shu on ishim bitirdim.
Tinchroq joyga talpinib,
Qog'oz va qalam qidirdim.

Boshida zo'r boshladim,
Ushbu she'rning misrasin.
Qofiya olganimni
Shoir ahli bilmasin!

Shunday qilib she'r bitdi,
Olib bordim do'konga.
Qimmat ekan turoqlar
Shunga ketdi arzonga!



Mohlaroy Zafarjonova
10-sinf o'quvchisi

Shokolad

Shokolad, men sendan xafaman,
Qurtlatib tashlading tishimni.
Doktor amakiga tushirding
Hech ham tushmaydigan ishimni.
Ahvolim bir qara, seni deb
Men to'rtta tishimdan ayrildim.
Endi men shokolad yekishdek
Sevimli ishimdan ayrildim.



Gulasal Davronbekova
8-sinf o‘quvchisi

Qadring baland bo‘lsin, ey ona tilim!

Onasan bizlarga, muqaddas tilim,
Sen ila to‘ladi quvonchga dilim.
Eshiging ochasan – olamiz bilim,
Qadring baland bo‘lsin, ey ona tilim!

Senda jaranglaydi onam allasi,
Bulbullar xonishi, qizlar yallasi.
Ilk so‘zin ona der o‘zbek bolasi,
Qadring baland bo‘lsin, ey ona tilim!

Navoiy bobomning kalomida sen,
Ulug’ millatimning salomida sen.
Davlat tillarining maqomida sen,
Qadring baland bo‘lsin, ey ona tilim!



Jasmina Komilova
8-sinf o‘quvchisi

Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur izdoshiman



El-yurt uchun mard yuraklar bo‘lsin fido,
Vatan uchun cheksang arzir oh-u nido,
Yurtim deya ming zahmatlar qilgan ado,
Manguberdi, Amir Temur izdoshiman!

Ona yurtim deya shirin jonin bergan,
Pahlavon-u mardlarning bir yo‘ldoshiman.
Xalq qalbiga beqiyos iftixor solgan
Manguberdi, Amir Temur izdoshiman!

Olg‘a qadam tashlab shahdam va ilgari,
Ishonch ila intilayin maqsad sari,
Ustoz shoir Muhammad Yusuf singari
Manguberdi, Amir Temur izdoshiman!





Dilbaroy Ne'matjonova
9-sinf o'quvchisi

Atirgul



Turfa gullar to'planib,
Majlisga yo'l burdilar.
Chamanga moh kerak deb,
Uzoq suhbat qurdilar.

Sanobar ko'krak kerib,
Menman o'shal oy dedi.
Safsargul labin burib,
Menda-ku chiroy dedi.

Hamma gullar chamanda,
Maqtay ketdi o'zini.
Karnaygul oppoqman deb,
Nargizgul-chi ko'zini.

Bog'ning ko'rki aslida,
Eng beg'ubor dil ekan.
Bog' qidirgan malika,
Qizil atirgul ekan.





Husniya Abdulhamidova
9-sinf o'quvchisi

Vatan

+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦+♦♦

Bag'ringda bo'ljam ham talpinib senga,
Har otgan tongingni qo'msayman, Vatan.
Har hovuch tuprog'ing ko'zga to'tiyo,
Dunyolarga seni alishmam, Vatan.

Bu yurtning sururli soylari aziz,
Bu yurtning g'ururlari tog'lari aziz.
Momaqaldiroqli chog'lari aziz,
Ajoddlardan meros xazinam, Vatan.

Mehringni yurakdan tuyaman mudom,
Fitrat, Cho'lponlaring kabi sodiqman.
Farzandingman, meni xizmatga buyur,
Tinchliging tilayman subhi sodiqdan.





Nodira Yigitaliyeva 9-sinf o‘quvchisi

Soatim

clockclockclockclockclockclockclockclockclockclockclockclockclockclock

U uchun joy turadi
Uyimizning to'rida.
Ammo bobomlar uni
Ilib qo'ygan so'riga.

Juda mehnatkash, sergak,
Begona unga uyqu.
Oyog'i yo'q, qo'li yo'q,
Tinimsiz yuradi u.

Doirada tizilgan
Raqamlar tartib bilan.
Unga qarab oyimlar
Reja tuzadi biram..

O'ylab-o'ylab topdingiz,
Qilmasdan sabr-toqat.
Qarayverib o'ylang siz,
Ha, bu – topdingiz – soat.



Ro'zimannopova Rohila
7-sinf o'quvchisi

Mitti yurakdag'i ulkan qarz



Bir kun suyib onamni men,
Yelkasiga qo'ydim boshim.
"Sizdan qarzim ko'pdir, onam
Qanday uzay, qalb quyoshim?"

Onam dedi: "Men aslida
O'z burchimni etdim ado.
Bolajonim, shu Vatanga
Bor- u yo'g'ing ayla fido".

Balki, yoshman tinmay yana,
Savol berdim, qildim so'roq.
Onam dedi: "Shu Vataning
Ulg'aytirdi seni ko'proq".

Nigohimdan sezdi darrov
Endi savol kutmay mendan.
"Shu tuprog'ing rozi bo'lsa,
Rozidirman, bolam, sendan".





Dedi: "Jajji jonsaragim,
Sen Vatanning ertasisan.
Shu millatning dardini ol,
Yukini ol yelkasidan.

Hech bo'lmasa, shu tuproqqa
Bir nihol ek, gullar qada,
Otasiga, onasiga
Rahmat desinlar ming karra".

O'ylab qoldim, qanday qilib
O'z qarzimni uzarman deb.
Onajonim takror aytar:
"Vatanni sev, xalqingni sev!".

Sevgan inson hech birovga
Yomonlikni etmas ravo.
O'zbekiston, sening uchun
Kerak bo'lsa, jonim fido!

Onajonim, millat uchun
Xizmat qilib men, albatta.
Xalqdan olib sizga bergum
"Rahmat" degan chin guldasta!



+DC

Zerikdim shu bog'chadan,
Qachon uyga boraman?
Bunday xomush o'tirsam,
Kasal bo'lib qolaman.

Ne qilayin bu yerda,
O'yinchoqlar o'ynaymi?
Yo bo'lmasam bir nechta,
Qo'g'irchoqlar o'ynaymi?

Undan ko'ra maktabga,
O'qigani borsam gar.
Besh bahoga o'qirdim,
Ruxsat bersalar agar.

Maktab yaxshi bog'chadan,
Faqat she'r yodlamayman.
Ustoz dakki bersa ham,
Baqirib dodlamayman.

Yosh bolasan deganlar,
Hayratlarda qolishsin.
Shahnoz, Komi, Bonular
Menga yetib olishsin.

Bu hammasi o'y-xayol,
Birdan o'ylab qoldim xo'p.
Yosh bo'lsam ham, o'rtoqjon,
Qilar ishim juda ko'p.

Kelajakka intilib,
Yashash yaxshi, albatta.
Buning uchun, avvalo,
Bo'lib olay men katta.



G'ofurova Sojida
7-sinf o'quvchisi





Kutubxona



Hakimova Rayhana
8-sinf o'quvchisi

Tuman xayolotning sahrolarida,
Chalg'isam ne qilay, azizim, ona?
Dardingga davolar qidirmoq bo'lsang,
Yagona manziling bu – kutubxona.

Yo'l oldim men o'shal hamdardim tomon,
Ammo yuragimda bir bo'shliq hamon.
Alamlar g'amxona bo'lgan ko'nglimga,
Birdan ajib his-la to'ldi hayajon.

Kirdim-u qo'limdan tutdi "Shum bola",
"Kalas" daryosidan suhbatlar qurdik.
Ikkimiz uyma-uy, dalama-dala,
Beg'ubor qadamda o'ynoqlab yurdik.

"Qoravoy" jim qoldi, men esa yo'lda,
"Oq kema" da sayr davom ayladim.
Sohilda bir bola, durbini qo'lda,
Unga chin ko'ngildan baxtlar tiladim.

Bolaga achinib, parishonxotir,
Sezmay "Sariq dev" ni minib olibman.
Hoshimjonning yaqin oshnasi bo'lib,
Shumlik qilganimni bilmay qolibman.

So'ngra shu bolaning qalpog'in kiyib,
Ketdim "O'tgan kunlar" tarixi tomon.
Otabek visolin ko'rsatmay turib,
Kumushni yig'latib qo'ydi Marg'ilon.

"Hayrat-ul abror" ga qo'limni berdim,
"Xamsa" ning ta'rifin ayladi xitob.
Do'stlarim, ishoning butun olamning,
Orzusin ro'yobga chiqrarar – kitob!



Bir tush ko'rdim, sizga aytsam, do'stlarim,
Shundan beri shu tush haqda o'ylarim.
Uchar gilam meni olib ketibdi,
Bir lahzada Ko'hi Qofga yetibdi.

Noz-u ne'matlarga to'la dasturxon,
Ko'nglimga qararmish amir , beg-u xon.
Qo'lim cho'zsam, yetar emish yulduzga,
Rashk qilishib yoqamdag'i qunduzga.

Yaltirar shohona tojim boshimda,
Xizmatkorlar saf tortishar qoshimda.
Bir imlasam, hofiz qo'shiq aytarmish,
Qovoq uysam, tun uyiga qaytarmish.

Biroq bexos kimdir "Qani, yur", - dedi ,
"Ko'p uxlading, tez o'rningdan tur",-dedi.
Shu bir ovoz huzurimdan ayirdi,
O'sib ketayotgan shoxim qayirdi.

Ko'zlarimni ochsam bari tush edi.
Malika bo'lmoqliq qanday xush edi.
Ammo unga faqat tushda ketarman,
Uxlayversam, baxtga qachon yetarman?

O'ylab qoldim, nima bo'ldi tushimga?
Nazar soldim kunduz qilgan ishimga.
Bu kunlarni o'ngda xohlagan edim,
Hoshimjonne o'qib uxlagan edim.



Norqulova Elnura
7-sinf o'quvchisi





Nizomdjonova Marjona
9-sinf o‘quvchisi

Quyosh sochib olamga nurlar,
Tunda imlab sehrli yo‘llar,
Sokinlikka cho‘mganda dunyo,
Qalamini sudraydi qo‘llar.

Oddiy qo‘lmas, shoir qo‘li bu
Va samoviy ijod yo‘li bu.
Qofiyalar qalashib yotgan,
Majnunsifat sevgi cho‘li bu.

Kulgusidan nidosi bisyor,
Goh bir so‘zdan voz kechib ming bor.
Gohi hayrat yoqasin yirtar,
Kuzagida jilmaysa bahor.

Oddiy yo‘lmas, ijod yo‘li bu,
Ulg‘aytirar ziyolarida.
Senga mushtoq yoqimli qayg‘u,
Navoiyning dunyolarida.



Bu - tarix...

Ummonlarda suzdi xayolim,
Yulduzlarga termuladi ko'z.
Kelajakka qo'yib poydevor,
Men tarixdan ochmoqdaman so'z.

Mahmudova Robiya
9-sinf o'quvchisi

Tarix so'zlar beun tog'larga,
Xatolarni eslatib bot-bot.
Shiroqning qon yuzini silab,
Mum tishlaydi gohi Geradot.

Arximedning urfon yo'li-yu,
"Sirakuza" tuproqlaridan.
Ajdodlarning aksi ko'rinar,
Ikki daryo qirg'oqlaridan.

Xristafor kechgan daryolar,
Beruniyning aqli ummondir.
Taxt talashgan shohlar tilida,
Mulzam bo'lgan so'zlar giryondir.

Asli o'tmish kelajakka nur,
Erta uchun mash'al bu bayot.
Orzu bilan tarix birlashib,
Aytilajak abadiy hayot.



G‘ofurjonova Zilola
7-sinf o‘quvchisi

Ey ona tilim

Lablarimdan taralgan yog‘du,
Xayollarda sakragan ohu,
Va dillarda tug‘yon urgan – u,
Boyligimsan, ey ona tilim!

Navoiydan merosim o‘zing,
Qadrlidir har bitta so‘zing,
Kelajakka tikkansan ko‘zing,
Abadiysan, ey ona tilim!

Sen borsanki, charog‘on yo‘lim,
O‘ylaganim yozadi tilim,
Chiroylisan oy kabi to‘lin,
Iftixorim, ey ona tilim!



HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI IJOD MAK TABI





Ustozimga



Umida Mavlonova
11-sinf o'quvchisi

Yodimdadir hamon o'shal on,
Shiftda chiroq, ko'r pachada biz.
Xontaxtani yuvar ko'zyoshim,
Qulog'imda o'gitlaringiz.
"Chiroyli yoz!
Chiqma chiziqdan...
Yarashmaydi senga xatolar!"
Ona, axir dunyoda yo'q-ku,
Xatolarsiz buyuk daholar.
Xatim xunuk, yozuvim dag'al,
Ko'zlarim nam, boshim ham egik.
Bu qo'llarim og'ridimikin,
Bir ko'nglingiz og'riganchalik?!
Gar e'tiroz kelsa ortimdan,
Der edingiz dard ila epkin:
"Qo'l ko'rsatib desinlarmia,
Shu ustozning bolasimikin?!"
Ona, bugun mana ulg'aydim,
Yutuqlarim etar sizni shod.
"Ne qilsa ham ustoz bolasi!"
Derlar endi yana umrbod.
Taqdirimga bitig'liq shu so'z,
Qismatingiz menday erka qiz.
Ona sizni "Ustoz" desam gar,
Koyimangiz...
Koyimangiz...

Söz qadrali

Dunyoni yaralgan so'zdan deydilar,
Yaratgan yaratiq qilibdi bizni.
Mehrni qalblarga ekmish bir nihol,
Yashnadi gurkirab bilan o'z amri.

Shirin so'z gadosi asli odamlar,
Darmon ham topadi to'shakdagi jon.
Qizg'onmang Navoiy turkiy so'zini,
Axir, baham ko'rdi butun bir jahon.

Mehr-muhabbatga tashna qalblarmiz,
Shirin so'z insondan so'ramaydi ta'b.
Odam Atoning ham aytgan she'rida,
Mehr ilinadi Hobilga atab.

Deydilar Koshg'ariy: "Odob boshi til",
Tarbiya atalur asli yaxshi so'z,
Onaga atalgan shirin so'z aytning,
Hurmat ehtiromlar eltadi bu ko'z.

Yaxshilar, dillarni, tillarni ko'rdik,
Ammo faqat senga tortadi dilim.
Onam allasiga mehr qo'yadigan,
Bariga sababchi, ey turkiy tilim.



Oynisa Abduvaliyeva
10-sinf o'quvchisi



Izlab...

(Muhammad Rizo Ogahiyga bag'ishlov)



Nasiba Boshmanova
10-sinf o'quvchisi

So'z... so'zga berkingan erk, o'zlik
Sarosar ruhimda qilar jang.
Borliqqa boqaman borimcha
Borliqqa hamohang...
Ovozim titraydi isyondan,
To'zg'iysi mavhumiy hislarim.
O, nazm bag'ringdan izlayman
Ogoh bir shoirning izlarin...
G'oyibdan nelardir mavjlanar,
Avjlanar dil ichra hayqiriq.
Yurakni zabit etar tug'yonlar
"Uyg'on!" deb hayqirib.
(Bu oniy chaqiriq, chaqiriq...)
Ilhomlar yetaklar so'z tomon,
Tamoman unutdim dunyoni.
Jonimda barq urar "she'r" degan
Olamning ilohiy unvoni...
Yuzimga ular tobor
Tuyg'ular shamoli, sezaman.
O, o'zing yo'l ko'rsat, qo'limdan
Tuta qol, ey zamin, ey zamom!
Ovozim titraydi isyondan,
To'zg'iysi mavhumiy hislarim.
O, nazm, izladim bag'ringdan
Ogoh bir shoirning izlarin...
Aylandim telbahol insonga,
Quvondim, yig'ladim sol razm.
Ogahiy o'g'loning so'zidan
O'zligim topdim – ey Xorazm!





Ruhimda g' alayon faromush,
Yig' lasam, ayt, kimga oromish?!

Ko' zimni o'yadi bir qilmish
Tig' qadab
Jon qadar,
Jon qadar.

Og' ochga bog' langan arqonim,
Osmoqqa chorlaydi armonim,
Tomirda sizganni chiltonim
Shon atar,
Shon atar,
Shon atar.

Sarosar zaminim g' alayon,
Kelsang-chi, g' animim, o' zim xon,
Ne qilay dilimni, Xudojon?
Suyganim
Qonatar,
Qonatar.

Kel, dedim, yondi tan, kuydi tan,
Na vujud, na ruhim qildi jang,
Shomgacha kuzatdim kulbadan
Kelmasang
Kul -badan,
Tong otar...

Hislarim qibлага teskari,
O'zini o'nglaydi so'ng bari
Kuzning ham eng so'nggi barglari
To'kilar,
Haq qadar...
Haq qadar...



Sevinch Abdazova
10-sinf o'quvchisi



Aka, ko'pkarini qo'y mading-a hech,
 Men esa kitobni-
 Bir umrga zeb.
 Nega shahar borsam, kulishar ular?
 "U cho'pon qizi", - deb,
 "Dehqon qizi", - deb
 Shamollar esmaydi u tomonlarda,
 Faqat xayollarim yuradi daydi.
 Manov qayrag'ochga suyangan ko'nglim
 Bir yozilib yana yig'lab olsaydi.
 Sen uloq talashding keng adirlarda
 Mening tor ko'ksimga sig'madi olam.
 Bilaman...
 Bilaman,
 mushkul aslida
 Bir umr maydonda kurashmoqlik ham.
 Otamning choponin chang bosdi, netay,
 Tulporlar bostirib keldi daf'atan.
 Viqori ulkan bu qirlar ortidan
 Menga ko'zin tikar ulug' bir Vatan.
 Sen ista bu tog'lar bag'rini yorib
 Ketaman eng go'zal hislardan nari.
 Sen esa uloqmas,
 Erkim talashgin
 Mana, senga ko'nglim,
 Umrim-ko'pkari!

O, bu adir, bu cho'l, bu dala
 Ne taqdirlar ko'rmadi ojiz,
 Osmonlardan uchdi turnalar
 Paranjisim quchganda bir qiz,
 Yalang tog'lar yallosin ayta,
 Yalangboshim silaydi dunyo.
 Erk talashib tug'ilsak qayta,
 Uchgan qushlar qaytarmidi yo?!

Qalov olar, olovlanar o'y,
 To'lg'onadi zarbdan koinot.
 Zanjirband bu qo'llarimni qo'y,
 Bashar uchun bo'yin egmoq yot.
 Ko'hna zamin vujudimdek jim,
 Ko'ksim uzra otmoqda nalar?
 Sen yo'qotgan naydan lablarim
 Qonib mashshoq kuyini chalar.
 Tuproq uzra yonib boraman,
 Va tan yonar, va tanlar kuyar.
 Chorlayverar viqori ulkan
 Tog'lar bag'rin yorgan buloqlar.
 Qayda erkni ko'rayotir tush
 Paranjisim yurganlar osib.
 Haqqa tashna qush yotar behush,
 Yalangoyoq tikonlar bosib,
 Yalang oyoq tikonlar bosib...



Tun hayqirig'i

1.

Bedorlik...

Tun...

Yana bedorlik.

Ko'zlarimda mudragan dunyo.

Mening esa uxlagim kelmas

Uxlaganlar uyg'ongancha to.

O'zligidan kechar zulmat ham

O'zligiga qaytmoqlik qadar.

Hamma narsa qayta uyg'onar,

Faqat uxlar mudroq odamlar!

Itlar g'ajir tunning bag'rini,

Bexos qonab ketadi osmon.

Sening rahming kelmaydi nahot,

Sening qahring kelmaydi inson.

Nimadandir ko'nglim behuzur,

Ular yurak g'ajmoqqa-da shay.

Chaynayverar etsiz umrni

Yo masxara qilganday atay.

2.

O qashqirlar, yurak qonar,

Qon

Ko'zlarimdan sizib ketmoqda.

Yetmish ikki tomirga yetmish

Ishq suratin chizib ketmoqda.

O qashqirlar, qaqqhatdi tanni

Tunning o'tkir sukunatlari.

Kuyundiga to'lmoqda bo'g'zim

Kuygan dilning kuygani sari.

Bular mening yonmoq istagan

Vujudimga olovin qalar.

Mudramadim... Ammo tinishga

Tinch qo'yjadi "qashqirvachchalar"...

3.

Bu tog'larga qaytma, birodar,

Bu tog'larning turishi haybat.

Bu tunlarni yorib chiqmoq-chun

Hayqiraman: "Uyg'on tabiat".

Bu dalalar, nahot, begona,

Endi quchmas kechalarni ham.

Yalangoyoq yurmoqqa mening

Tovonimmas, zirqirar tanam.

Otilaman tunning bag'ridan,

Vujud uzra oqar qaynoq ter.

Hech kim bilmas, hech kim qutqarmas

Faqat ingrab yotar Ona Yer.

Faqat yig'lab yotar Ona Yer.

Sen ingrama, yetar, bas qilgin,

Qara, qancha mudragan tanlar.

Yig'lashni ham o'rgansin endi

Shu vaqtgacha uxlayotganlar...

Shu vaqtgacha uxlayotganlar.



Moziy nidosi



Mening o'zim yolg'on,
So'zlarim yolg'on
Vatan!
Maddohlarcha seni alqasam.
Yig'lasam...
Joningga achindim, axir,
Lek paxtazorингda ichganman qasam:
"Yig'lamayman" deb...

Elim, har qadamga qo'yilgan tuzoq
Uzooq zirqiratdi yara dilimni.
Eng baland tog'lardan hayqirganim rost
Yog'iylargaga berib bir kun
Tilimni –
"Yog'lamayman" deb...

Xohishga iroda berarmikan erk,
Er yigit yovlarga turmasinda jim.
Kim ayting, ko'zlarin ola qilguvchi
Qullikka bosh egmay, pichirlagandim:
"Xohlasmayman" deb...

Qara, yalangboshsan
Yalangoyoqsan
Qora yarang bitmas yalangliklarda.
Nomingga dog' bo'lgan o'sha tuhmatni
Aytgandim, yuzimga tutgancha pardas:
"Yoqlamayman" deb...





Gulduros qarsaklar, guldir qadamlar,
Odamlar ko'ziga qadalganmi qum.
So'zladi "sigaret" tutatgan janob:
"O'ziga bek doim o'limga mahkum
Yo qamayman" deb...

Soqovman, anqovman, til zabonim yo'q
Vatan, suyanchiqdek bo'l madim dalda.
Tilimni, yo Olloh, chayonlar chaqsin
Nega aytolmadim turgancha shartta:
"Oqlamayman" deb...

Xalqim, xunob bo'lma hurlikka yaqin
Chaqnaysan sof osmon quchog'ida sen.
Dardlaring do'l kabi to'kilib butkul
Shu kun va qaytadan ont ichaman men:
"Yig'lamayman" deb...
"Yig'lamayman" deb...
"Yig'lamayman" deb...



Siz faxrimsiz, yurtboshim

Shodligim zo'rdir otasi erkalab,
suygan qizdek,
Va'damiz bor, Navoiyning
qalbida yongan so'zdek,
Porlagaymiz, o'zbegimning
manglayida yulduzdek,
Siz faxrimsiz, bizga baxtlar
hadya etgan, Yurtboshim!
Orzu emas, buyuk maqsad
bilan yashash onida,
Yangi Temur, Xorazmiylar kashf
etish zamonida,
Adabiyot, madaniyat ilm-u fan
karvonida,
Sarbonimsiz, ezgu yo'lga
xalqni eltgan Yurtboshim!
Ilm-u ziyo nurlantirdi, moziy
zulmat kechasin,
Yorug' ijod mакtabida tuzdik
iqbol rejasin,
El-u yurtni rozi qilgan bitta
kalom yashasin,
Inson qadrin ulug'lashni shior
tutgan Yurtboshim!

Ilk bor tinchlik, poklik ramzin
Vatanimda ko'rdim man,
G'ururlansa arzir o'zbek
shunday farzandi bilan,
Yashnagan bog' ichra, ko'ring,
har bir dilbandi bilan,
"Yashil makon" niholini birga
ekkan Yurtboshim!

Siz faxrimsiz, bizga baxtlar hadya etgan, Yurtboshim!



Visola Tursunova
10-sinf o'quvchisi

Qalbmunchoq

Ona, qizing yo'lga chiqqan
Olis safarga,
Ketmoqda markaziy yo'l tomon ildam.
Uning qo'llarida sen yopgan kulcha,
Loldir iforidan atrofi olam.

Ona, qizing yurib borar,
Gavjum shaharda.
Turfa xil ko'rinish, turfa xil odam.
Lek hech uchrata olmas, topa olmas,
Seningdek mo'tabar, azizni bir dam.

Ona, qizing o'ksinmoqda,
Qalbi o'rtaydi.
Qani senda bor bo'lgan davo, malham?
Eh, mana shu ulkan shahardan sening,
Oddiy shifolaring topilmas hech ham.

Ona, bemehr bunday qizing
Beor bo'lsa ham,
Tillo-yu kumushlar kerakmas aslan.
Senga husn bermas hech qanday tillo,
Sen tilloga husn berib turasan.

Ona, poyingga boshimni qo'yish,
Aslida men-chun
Har qanday narsadan qimmatli, aziz.
Ammo yomon qizing senga sanoqsiz,
Azoblarni ravo ko'rmoqda, essiz.

Ona, lek sen jim turasan,
Yana suysan.
Yomonligim yo'yib o'jar yoshlikka.
Cho'ldan gul olishga qodir yuraging,
Hech qahr qilolmas bu beboshlikka.

Ona, qizing yo'lga chiqqan
Olis safarga,
Ketmoqda markaziy yo'l tomon ildam.
Qaytishda qizing bu yoqut ko'nglingga,
Ko'z tegmasin deb eltar ko'zmunchoq.



Karomat Ikromjonova
10-sinf o'quvchisi



O'z qudrati



Biz zarra hamonki, bo'ldi so'z paydo,
Yo'qdan bor etoldi, oddiygina "Kun".
Agar bo'lmasaydi so'zning qudrati,
Dunyoning o'rnida bo'lardi kukun.

So'z, u bir mayoq yorug', lek o'chmas,
Yordami cheksizdir dil sohili-chun.
Bemor-chi, bemorga mehr zarur, lek,
Minnatli shifodan shirin so'z ustun.

So'z – mazmun, kitobdadir uning aksi,
U ila anglaymiz dunyoni teran.
Yangilik olamiz undan biz hamda,
Ajratisib boryapmiz oqni qoradan.

So'z – xanjar,o'tkir va keskir, albatta,
Mustahkam narsani uzadi, biroq.
Ehtiyot bo'laylik, chunki u bilan,
Ming yillik rishtani mumkindir kesmoq.

Birgina so'z sabab dil topar taskin,
Birgina so'z sabab yorug'dir olam,
Birgina so'z sabab bo'lamiz erkin,
Birgina so'z sabab ushlarmiz qalam...



Tilak



Seni shod etmoqlik baxt asli men-chun,
Ko'zlarim kulgingnii ko'rishga muhtoj.
Hattoki, eng go'zal sifatlarining-chun,
Sanolmay ojizlik qiladi sanoq.

Sen-la suhbatlashmoq naqadar yaxshi,
Qalbim sokinlashar, topadi taskin.
Barcha muammo-yu ishlardan qochib,
Huzuringga boraman, boraman sekin.

Dardlarim ko'p deyman, g'amlarim cheksiz,
Aytamar: tor kelmoqda bu yorug' olam.
Sen meni tinglaysan sadosiz, unsiz,
Avval ko'p ranjitib kelgan bo'lsm ham.

Marhamatning oldida koinot-chi tor,
Kechirasan doim gunohlarimni.
Eshitib turasan takror va takror,
Qalbdagi zarradek "oh-voh" larimni.

Sen hadya berishni suyasan chog'i,
Minnat ham qilmayin etasan tortiq.
Meni uyg'otasan nafis tong chog'i
Zo'r tuhfa bo'lurmi bundan-da ortiq?

Seni yod etmoqlik baxt asli men-chun,
Sen ham eslagaysan yod etganlarni.
Men bilmas ekanman nimaga, nechun?!

Sen sabab orzusiga yetganlarni.

Seni zikr etmoqlik ajib saodat,
Qolmaydi qalbimda g'ubor-tashvishim.
Isming takror aytishni qilayin odat,
Toki ulug' noming-la boshlansin ishing.

Ikki olam podshohi, Yaratgan egam,
Bu dunyoda menga mansab kerakmas.
Nasib etgin, toki Mahshar kunida,
Yuzim yorug' bo'lib uyg'onolsam bas.



Nilufar Yo'ldosheva
10-sinf o'quvchisi

Vaqt qadri




Vaqt qadrini har inson
O'lchar o'z misqolida...

Aslida bu dunyoni
Bezab turadi inson.
Uning-chun go'zal yoxud
Bo'ladir lahza-yu on.

Bir umrning ma'nosi
Ba'zan bir sekundda jam.
Ammo shul lahza qadrin
Bitib berolmas qalam.

Etilgan ekan tuhfa
Shundayin buyuk ne'mat.
Isrof etmoqlik gunoh,
Uni bilmay g'animat.

Inchunin, kashf etaylik
Yaxshilik soatlarini.
Umr qisqa, bilmasin
Ezgulik adadlarin.





Vaqt qadri



Umr o'tar, vaqt o'tar,
O'tar hatto qayg'ular.
Kapalak uch kun yashar,
Daraxt bargi to'kilar.

Insonlar ham shu zayil,
Yashayverar omonda.
Kimdir nafsiga qul-u,
Kimdir mehnat tomonda.

Uch kunlik bir kapalak
Ozor bermas hech kimga.
Yillab yashagan odam
Dilozor bo'lar nega?!

Hatto jajji chumoli
Tinim bilmas hech bir yoz.
Odamzod-chi nolib der:
"Issiqdir yoz, qish – ayoz".

Har bir inson dunyoga
Kelmagan-ku nolish-chun!
Tug'ildikmi shu aniq:
Yashaymiz nom qolish-chun!

Demang, ulug' bobolar
Erkin, ozod bo'lishgan.
Ularning bir farqi shu:
Vaqt qadrini bilishgan.

Ey do'stim, shuni bilki,
Har narsa bu omonat.
Isrof qilish dunyo-chun
Bilgin, katta xiyonat!



Ruxshona Sunnatova
10-sinf o'quvchisi



Zarifa Mardiyeva
9-sinf o'quvchisi

Bu zulmatlar tarqalib bir kun
Yorug'likka chiqaman shahdam.
Dilim xira qilgan o'sha tun
Bir yulduz bo'laman,
Porlaydi olam.
Quyosh bo'lib chaqnagan paytim
Yo'llaringni qilay charog'on.
Ko'zlarimdan yosh tomsa tim-tim
Bulutlarni hayda,
Yoki bo'l osmon.
Ne bo'lsa ham, dardkashim bo'lgin,
Har dam seni ko'ray yonimda.
Menga doim mehringni bergin,
Sirdoshimsan o'zing -
Hardam yodimda.

Osmon – yetolmagan makonim o'sha,
Zuhro -ushalmagan armonim o'sha,
Ko'ngil – tushunmagan hayronim o'sha,
Ona – kuyunchagim, sarsonim o'sha.
O'zin o'ylaydigan telba men asli,
Hayot – yecholmagan jumbog'im o'sha.



(Hamid Olimjon tilidan)

“Daryo kabi uyg'oq o'turman”,
Izim o'chmas yorug' jahondan.
Qalamimning davomchilari
Nomim kuylar, madh etib jondan.
Har bahorning o'rik gulida
Rasmim chizar nafis tabiat.
Shunday yoshlar menga davomchi,
Qalbim sira chekmas aziyat.

“Vodiylarni yayov kezganda”,
Hislarimni jo qilur dilga.
Odamlarga so'zlab hikoya
Moziy tomon chiqadi yo'lga.

Yurak topsa o'z bahorini,
She'r zavqiga ko'madi o'zni.
Yuragiga ishq bo'lib mehmon,
Yomonlikka yumadi ko'zni.

Qalbda hijron, qo'lda soz ila,
Bizning kuyni etishar davom.
Kuychi yurak urarkan toki,
Barhayotdir "SHOIR" degan nom!





Men kutgan bahor

Zulfiyaxonimning "Bahor keldi seni so'roqlab"
she'riga nazira



"Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor".
Gullar noz uyqudan uyg'onar asta,
Tinmayin sharqirar ko'chada anhor.

Fasllar kelini sepin yoyganda,
Hamma yoqni bezar rangin bo'yog'i.
Oq libosin kiygan oppoq paridek
O'rik gullaridan yo'q nafisrog'i.

Erta tongdan qilar bulbullar xonish,
Go'yo tabiatga qayta kirar jon.
Qizaloq qo'lida elchi boychechak,
"Omonliq-somonliq" qilar buvijon.

Maysalar yosh qizning kokillaridek,
Tebranar shamolda, ifori nafis.
Iymanib mo'ralar qizg'anchiq quyosh,
Go'yo ko'rsatadi nurlarin ojiz.

Shudringdan ko'z ochar jajji chuchmoma,
Husnin maqtanishga qilib turib or.
Men bilgan "yasharish", "o'zgarish" shu-da,
Mana men sog'ingan, men kutgan bahor!

Nafisa Axrorova
8-sinf o'quvchisi

Zulfiya nolasi

Qancha bo'ldi ko'rmadim seni,
Sog'inch o'rtar yurakni har on.
Menga bergen va'dalar qani?
Sensiz ko'nгlim orzulari qon.

Yursam hamki kulib, jilmayib,
Bu hayotning yo'qdir qizig'i.
Sensizlikda yuragim mayib,
Ko'zlarim zor senga ochig'i.

Yaxshi hamki menga madad deb,
Olloh berdi ikki marvarid.
Endi ular mening g'amim yeb,
Qilishmoqchi shodlikni xarid.

Ammo shodlik sotilmas pulga,
Buni o'zim yaxshi bilaman.
Tushsam qani seni deb yo'lga,
Balki unda xato qilaman.

Hozir sening yurib izingdan,
Oz bo'lsa-da ijod qilayin.
Mehr olib o'g'il-qizingdan,
Ularga ham mehr berayin.

Men hali ham tirik ekanman,
Yodimdasan, ey umri aziz!
O'zing yo'qsan yonimda lekin,
Ruhing bilan hayotim laziz.



Mavjuda Irsaliyeva
8-sinf o'quvchisi

Erkin Vohidovning "Do'st bilan obod uying..." sh'riga nazira

"Do'st bilan obod uying,
Gar bo'lsa u vayrona ham.
Do'st qadam qo'ymas esa,
Vayronadir koshona ham".

Daraxt tomir bilan tirik,
Do'sti bilan odamzod.
Yor tutinsang devonaga,
Boy bo'lur devona ham.

Yaxshi do'stlar sonin orttir,
Do'sting yuz ming bo'lsa oz.
Chin do'stlarni maqtay desang,
Ta'rifga yetmas qog'oz.

Ezgu niyatli do'st ila,
Yetib yasharsan murodga.
Mehr qo'lin tutqazsang gar,
Do'st bo'lur begona ham!



Mendan nima qolar

(Muhammad Yusuf she'riga nazira)



Mohira Diniqulova
8-sinf o'quvchisi

Kalitsiz eshik



Yurakda bir eshik hamon kalitsiz,
Ichida nima bor bilmayman o'zim.
Dunyoning u chetin ko'raman, lekin
Bunday mavhumlikni ko'rmaydi ko'zim.
Ortida sog'inchmi, dardmi, quvonchmi?
Bir shirin tuyg'ular tizilib yashar.
Qachondir yuzaga chiqsa bu tuyg'u,
Yuragim bahordek yasharib yashnar.
Kim ochar eshikni otammi, onam?
Yo onam,yoki-da o'zga bir inson...?
O'layman bu eshik ochilar faqat,
Fursatni mazmunli qilganlar tomon.

"Mendan nima qolar?"

Bir satr siyoq.
Mendan nima qolar:
Taqdirga guvoh.
She'riyat tomonga karvon tortmasam,
Sog'ingan yurakni qiynaydi bir oh,
Bir satr siyoqha qadalgan nigoh.

Mendan nima qolar:

Buklangan qog'oz.
Allanima qoralab
Qo'yganman, xolos.
G'ijimlangan qog'oz ohangrabodek,
Meni shoirlidkan qilmaydi xalos,
Telbaman, telbalik shoirlikkha xos.

Mendan nima qolar:

Injiq bir qalam.
Barmog'im titrar,
Titraydi tanam.
Ilhom kelganda sinib qolmasa,
Bechora qalamga bo'ladi alam,
Lek hali ham u bor, tebranar olam.

Mendan nima qolar:

O'y, fikr, xayol.
Birini yozmasam,
Keladi malol.
Bir o'chirib, buklab, qayta yozmasam,
Shuncha o'ylaganim bo'ladi uvol,
She'rda uvol bo'lmasa bu qanday ahvol?!

Mendan nima qolar:

Go'zal xotima.
Go'zal bir shoirga
Go'zal xotira.
Muhammad Yusufni men kuylamasam,
Mening bo'm-bo'sh ko'nglim, to'lmaydi sira,
Shoirlar bo'lmasa, shoirlilik nima?!



Uni sevib tilga olur



Taqdir yo'llarining o'ttiz to'rt yilin,
Bezadi goh shodlik, gohi xazonlar.
Qalamlar biladi g'ussakash qo'lin,
Umri qarich ekan, ojiz mezonlar.

Lekin baxti edi vodiylar kezish,
Vatan tuprog'iga joni to'tiyo.
Muhabbat niholdek qalbda urar nish,
Barglari umidning parchasi go'yo.

Hayot asli unga mashaqqat emas,
Boshida bir toj-u muayyan sarir.
Hayot sinovini sinov ham demas,
Sinov bardoshlardan to'qilgan harir.

Muhabbat og'ushi erkalab tunlar,
Zulfiya vafosi berib hayajon.
Tarabnok porlagay hatto mardumlar,
Ishq bilan kuylasin Hamid Olimjon.

Baxtlar kuychisiga ilhomlar sherik,
Ahli olam qalbiga oshiqlik solur.
U o'lmagay abad, dillarda tirik,
Uni sevib har dam el tilga olur.



Ogahiy bobom



Shoir odam qolmagay hech ham uzlatda,
Unga doim sherikdur oshufta ijod.
Ishq ila tovlanar ajib holatda,
Ko'ngildan chiqargay anduz bir bayot.

Ha, shunday Ogahiy qalbida ijod,
Gardishdan ruh olib Iksirdek qaynar.
Olamga bag'ishlab fayz-u aysh, nishot,
Ilhomlar nafasi xayolga boqar.

Ogahiy kuyida ishqlar tamanno,
She'riyatning sarfaroz podshohidur u.
Buyuk iste'dodga aytay salanno,
Mardumlar qalbiga solgaydур jodu.

Hatto bosh eggay Besutun tog'i,
Ogahiy poyiga payondoz bo'lib.
Hayron qolar unga Kashmir-u Eram
Yurakka savsanlar ifori to'lib.

Ogahiy kuylar bahor nafasin,
G'azallari o'lmagay dillarda jovid.
Axir meros qildi mangulik sasin,
Qalbni egallagan hukmga sobit.



“Monolog” sheriga nazira



“Sevgi, sening shirin tilingdan,
Kim o’pmagan, kim tishlamagan.
Darding yoydek tilib ko’ksidan,
Kim bag’ridan qonlar to’kmagan.
Seni yaxshi bilaman go’zal”,
Layli, Majnun tuyg’ularidan
Necha naydan taralib g’azal,
Muhabbatning qayg’ularidan
Ko’z qarashing buncha mehrli,
Rom qiladi har dam o’ziga.
So’zlaguvchi so’zing sehrli,
Oshiq yoshlar olar ko’ziga.
Sevgi, qara karomatingni,
Kimsalarning nozlandi tabi.
Necha yigit yig’ladi, kului,
Necha dillar so’ldi gul kabi.
Lek taqdirdan ko’rdilar buni,
Taqdir bo’ldi aybsiz aybdor.
Unga kishan solishgan kuni,
Senmasmiding asl gunohkor.
Asrlarni qaritding, sevgi,
Bu hayotni qilding beshafqat.
Inson aybdor bilganda seni
Nafratlarga loyiqsan faqat –
Eh, asrni yig’latgan, sevgi!



Mening ustozim



Mashhura Umaraliyeva
8-sinf o'quvchisi

Yoshligimda toshni qo'limga olib,
Yerga chizar edim allambalolar.
O'quvchi ham edim, ustoz ham edim,
Qo'yardim o'zimga a'llo baholar.

Ulg'ayib maktabga ilk borgan kunim,
Ko'rdim men maftunkor go'zal olamni.
Toshdan boshqa narsa ko'rmagan qo'lga,
Ustozim ushlatdi ilk bor qalamni.

Ustozim ko'rindi bo'lib farishta,
Yodimda: boqardi menga sho'x kulib.
Men bilan bog'ladi uni bir rishta,
Eshitildi so'zi mayin kuy bo'lib.

Dunyo boyligini beray ularga,
Xizmati oldida bo'lsa ham nina.
Aytadilar:
Menga kerakmas ular,
Meni eslab turgin, faqat shugina.

Yigirma, o'ttiz yil o'tsa ham, ammo
Ulardan to'g'ri yo'l yana so'rарman.
Ustozim yodimdan hech chiqarmayman,
U mening ustozim, - deb g'oz yurarman.



Eng yaxshi xarajat



Bilimni o'xshatsam oltin koniga,
Cheklab qo'yaman-ku uning imkonin.
Shu beba ho bilim bir kuni bizga,
Berar bitta emas, yuz oltin konin.

Pulimizni bir marta ishlatalamiz lek,
Bilimni ishlatsak bo'lar ming marta.
Tog'dek pulimiz ham sarflanar, ammo
Bilim sarflanmaydi ko'payar qayta.

Qilich o'tmaslashar gar charxlanmasa,
Deyarli charxlanar qilich har kuni.
Qilich charxlagandek bilimni ba'zan,
Charxlab turish kerak takrorlab uni.

Bilim olish uchun ketgan xarajat,
Eng yaxshi xarajat bo'lib qoladi.
Chunki shu sababli olingan bilim,
Bundan yuztasini qoplay oladi.



Marjona Eshboyeva
7-sinf o'quvchisi

Dengiz

Quyosh sekingina nurin taratib,
Dengiz sochlarni mayin siypalar.
To'lqinlar quvonchdan tulpordek toshib,
Sohilda jim yotgan qumni uyg'otar.

Rangli chig'anoqlar kulib shamolga,
Dengiz shovqinining aksin oladi.
Orolcha hayrondir bunday ahvolga,
Oppoq bulutlarga dardin soladi.

Bulutlar jim turmas, qilib dag'dag'a,
Jahldan qorayib qovoq uyadi.
Dengiz-u to'lqinlar qilib xarxasha,
Qayga dochishini bilmay qoladi.

Ammo bu jang ham cho'zilmas uzoq,
Axir osmon, dengiz do'stdirayrilmas.
Ularga hasadgo'y qo'yadi tuzoq,
Lek, do'stlik qanoti hech ham qayrilmas!!!

Bolalik



Soflik o'zi undan yaralgan,
Xotirdagi nurmi bolalik?
Sho'xliklarim nurday taralgan,
Qalbbog'dagi durmi bolalik?
Gapga kirmay kosa sindirgan,
Tuproqlarda chopgan ham o'sha,
Tili chiqqach, savol yog'dirgan,
Xom dovchani totgan ham o'sha.
Ertalabki uyqum qochmasdan,
Ichgan issiq sutim bolalik.
Yoshligimda ko'zim ochmasdan,
Vaqt miliday shoshgan bolalik.
O'ksib-o'ksib eslashing tayin,
Umr tongidagi lolalik.
Keksalikning gashtin tuygan dam,
O'sha onda havas bolalik.



Shohsanam Abduaazimova
7-sinf o'quvchisi

Har yurakning bir bahori bor
(Hamid Olimjon she'riga nazira)

"Har yurakning bir bahori bor",
Har yurakka oshno muhabbat.
Ayting, kimning eshigin qoqib
Zimdan qiyo boqmagan qismat.

Muhabbat bu – sehrli guldir
G'uncha bo'lib sirin ochmagan.
Muhabbat bu – otashin o'tdir,
Lovullab hech so'nib bitmagan.

Muhabbat har qalbdan qurib koshona,
Baralla chaladi ko'ngil sozini.
Atrofda har kimni qilib parvona,
Kuylaydi hayotning sho'x ovozini.





Sayfullayeva Madinabonu
7-sinf o'quvchisi

.....

"Yomg'ir yog'ar shitirlab,
Nurmi, ipak tolalar?"
Maysa chiqar pitirlab,
Xo'b o'ynaydi bolalar.

Quvonchdan to'lса osmon,
Bahorini bildirar.
Bayram qilar olomon,
Chunon baxtlarga to'lar.

Jannatmakon o'lkada
Hamma narsa mujassam.
O'simlik, meva-cheva,
Shirinlik olam-olam.

Samarqandning nonlarin
Ta'mi qolar labingda.
Zominning patirlarin
Avaylaysan qalbingda.

Shuncha noz-ne'matlarga
Ishqing ketsa bir marta,
Men seni mehmon qilay,
Kelgin O'zbekistonga!



Gul



Termulsam har kuni yaproqlariga,
Har nedan chiroylı ko'rınaverar.
Qaramay tikonin sanoqlariga,
Fikr-u xayol shu deb olinaverar.

O'ylayman, shundayin gullar dunyoda,
Guldasta bo'ladi, bo'ladi tugun.
Egasidan keyin mayin saboda
Sochilib, sulayib qoladi bir kun.

Men uni har ko'yga solishga qodir,
Lek huquqim yo'kdir uni terishga.
Haqqim yo'q bog'dagi yovvoyi, nodir
Yerning in'omiga ozor berishga.



Gugurt



Olamda hech kim yo'q yolg'iz o'zingsan,
Kattakon o'rmonda, qorong'i tunda.
Qo'lingda shamchiroq, lek yoqolmaysan,
Gugurt yo'q, fikring ham qorong'u bunda.

Gugurtni izlaysan katta o'rmondan,
O'sha o'rmondagi to'rt atrof tomon.
Topa olsang zo'r, foyda-ku bundan,
Topa olmasang-chi, bu aniq yomon.

Olamni yer desak, o'rmon hayoting,
Imkoning shamchiroq, desak bo'ladi.
Gugurt buyuk narsa-u sening ilming,
Ilm-la bu jahon nurga to'ladi.



Zulfiya Farhodova 7-sinf o‘quvchisi

Maktabim

Zavqqa to'lgan jajji yuragim,
Ilk bor senga qo'yganda qadam.
Jonajon aziz mактабим,
Sen-la go'zal bu nurli olam.

Bugun baytlar bitdim sha'ningga,
Senga jonim,mehrim payvasta.
Mehribonim, ustozimga deb,
Tuzdim bugun alvon guldasta.

Farzandlaring ishonch iqboling,
Sen-la baxtga to'lib yashayman.
Sen borsanki, jonim mактабим,
Doim mag'rur qadam tashlayman.



Madinabonus Nurmamatova
7-sinf o‘quvchisi

Bahor kelganda



Ha, tabiat qiziq-da,
Kim ham o‘ylabdi deysiz?!
Quyosh chiqqan bir paytda
Yomg’ir yog’di tinimsiz.

Ertasi kun dalada,
Maysalarda, lolada
Nafis shabnam tomchisi
Marjon kabi shodada.

Yerlar ham nam havoda...
Ajib bir hid taralar.
Tiniq, moviy samoda
Quyosh sekin mo’ralar.

Qir, adir-u tog’larga
Chiroy bergen bog’larga.
Bahor ajoyib fasl -
Hayot bergen jonlarga.





Shohsanam Abduaazimova
7-sinf o'quvchisi

“O'g'irlayman qalaming bir kun!”

“O'g'irlayman qalaming bir kun!
Hazilingiz ko'chirdi jonim”.
Naq yaroqsiz qolarday butun
Sirqiradi tole, iymonim.

O'g'irlamang qalamim bir kun,
Meni etmang g'amgin-u xasta.
Shoir dardi tutib qolsa gar,
Qalbi og'rir bo'lib shikasta.

Olib qochmang, aslo iltimos,
G'amlaringiz o'zimga olay.
Sizga bo'lsin bu ulkan dunyo,
O'z olamim ichra yo'qolay.

Qalam birla tirikman, hayhot,
O'zga narsa erur menga yot.
Qalbim parchasin uzmang zinhor,
Qalam birla go'zaldir hayot!



Nozima Bahodirova
7-sinf o'quvchisi

Umrim bahori

(Zulfiya she'riga nazira)

"Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor".
Ko'klamning havosi, yellar parvozi,
Yana oqlayapti shildirab anhor.

Mana keldi yana sen kutgan bahor,
Seni izlab yurdi, izladi takror.
Daraxt yaprog'ida shabnam tomchisi
Sening ko'z yoshingdek duv-duv to'kilar.

O'rik gullariga o'xshar hayoting,
Birdan chiroy ochar, birdan to'kilar.
Ammo sening kabi uning mevasi,
Jannat mevasidek, xushta'm yetilar.

Izlab topolmayin, seni, azizim,
Hayratdan hayron bo'ldi shamollar.
Osmon ham ko'zyosh to'kadi: tim-tim,
Marjonlarin doim yerga yog'dirar.

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Ammo bu bahorim tatimas nega?!

Yurak munis ahdni kutadi takror...

Bahor

Uydaman. Bir o'zim yakka-yu yolg'iz
Sarxush xayollarim bir zum band etdi.
Derazamni chertdi bir oytpari qiz,
Qarasam bahordan ko'rindi iz.

Boshiga gullardan taqqan chambarak,
Qo'lida bor edi bir savat oq gul.
Qizil lablarida mayin tabassum
Olkamga shodlikni olib keldi ul.

Kurtakni qitiqlar quyosh nurlari
Maysalar qiqirlab ko'taradi bosh.
Xonanda bulbullar aytadi qo'shiq,
Momolar qozonga solishadi osh.

Ko'zguni sindirib tashlar kiroyi,
Ko'nglimni yoritdi quyosh nuridek.
Bahorning sehrgar, nafis chiroyi,
Yosh-u keksa ko'nglin ovlaydi birdek.

U o'z chiroyini olkamga ochdi,
Zaminimga xushbo'y iforin sochdi.
Bunga guvoh bo'lgan, oppoq, kumush
qish,
Ortiga qaramay yurtimdan qochdi.

Bahor – bu beg'ubor bolalik misol,
Rango-rang gullari kelinga timsol.
Bahor havosidan to'yib bahra ol,
Bahor bizning olkada butun umr qol.



Muxlisa Sindarova
7-sinf o'quvchisi



Bog'ni sayr aylab




Gul libosda bo'lsa gar bog'ing,
Ko'nglingdagi g'amalar ketadi.
Bog'da sayr aylagan chog'ing,
Orzularing ko'kka yetadi.

Seni tinglar eng go'zal gullar,
Sen izlagan chiroy bu yerda.
Ajib ash'or o'qir bulbullar,
Sen bitgan she'r uning tilida.

Duch kelasan har qadamingda,
Oppoq shimlar kiygan daraxtga.
Vataningni sevib chin dildan.
Oshno qalbing surur va baxtga.

Go'zallikdan voz kecholmaysan,
Ketging kelmas bu sirli bog'dan.
Bu yerlardan hech qocholmaysan,
Chorlab turar huv olis tog'dan.



ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI IJOD MAK TABI



*Abdulla Oripov tavalludining 81 yilligiga
bag'ishlov*

(Shoir she'rlariga nazira)

“Qizg’aldoq bargidek uchar dildan g’am”,
Orzular nafasi qurshar dunyoni.
Sen meni chorlading o’zingga shu dam,
Ey, g’oyib kechasi, she’riyat oni.

Shukr! E’tiqodim butundir, zotan...
Beshigim tebratgan ulug’ navosan.
Havaskor dilimga ibtido Vatan -
“Toleyimga bitgan Qashqadaryosan!”


Yoshlik...
Umrlarga zeb berar hanuz.
Bunda kimdir baxtli, baxtsizdir kimdir.
Olisdan munavvar porlagan yulduz,
U, mening birinchi muhabbatimdir...

Ortimdan bir dardlar keldi so’roqlab,
Gohi vujudimga soldilar alam.
Lekin yashamasman o’zimni oqlab,
Ba’zida xatolar o’tdi bizdan ham.

Mudom mangu erur tafakkur, shuur,
Hamisha sobitdir bardosh va sabot.
Ko’zlarim sathidan ketsa hamki nur,
Men seni kuylagum, muzaffar hayot!



Bobomurod Sa’dullayev
11-sinf o‘quvchisi



Firdavs Zavqihev
11-sinf o'quvchisi

Noskash kampir etaklarida,
Garmsel dalaning ermaklarida,
Zavq bor edi
Ketmonchi opaga suv tashir bolaning
ertaklarida.

Oftob yonsa, taft salqinmikan?
Kun bitardi tovondan terib tikan
Dag'al qo'llik g'amxo'r -
Chug'urchuq qator.

Tun siniq.

Tun kesik.

Tun tor.

Orzular egatda,
maqsad egatda.

Orzular eng katta,
Maqsad eng katta.

Avtobus kutaman bugun bekatda,
Bazan tarqaladi tutundek attang.

Bu shaharning ko'chalarida,
Chiroqlar-la yorug' kechalarida,
Men o'zimni
topmay yuribman -
Chopish talab joyga
chopmay yuribman.

Imoratlar baland -
Qadrlari yer.
Ko'rgan "oqibatning
Qabrlari" der.
Silliq qora asfalt,
Mashina qator.

Qalb siniq.

Qalb o'ksik.

Qalb tor.

Ishonchlar cho'ntakda -

Sha'nlar cho'ntakda.

Ishonchlar cho'kmoqda -

Sha'nlar cho'kmoqda.

Samimiyo ko'z yosh yo'q ko'zda to'kmoqqa.

Bekorchi quyosh ham nurin to'kmoqda.

Biz esa beparvo.

Qizil yonadi -

shu on to'xtaymiz.

Ko'ngil tonadi

Zamonga o'qtaymiz.

Orzu vayron,

Go'dak qalb hayron,

Nima bo'ladi?

Biz hamon beparvo

go'yo o'qdaymiz...

Men-chun alla ketmonchi qiz xiringlashlari.

Najot edi sentabr qo'ng'irog'i jiringlashlari.

Hayot go'zal – hayotga qo'shil



Sevinch Omonova
11-sinf o'quvchisi

Olamga tutqazib hurlik maktubin,
Yanog'i qizarib ko'z ochmoqda tong.
Qizg'aldoq tafti-la yastangan labin,
Erkinlik diydoridan taratmoqda bong.

Dimog'im ostida raqs tushar tinmay,
Umr gullarining xushbo'y hidlari.
Qalbning ayvonida shijoat so'nmay,
Olmosdek porlaydi uning ko'zları.

Bo'g'zimiz to'ldirsa g'amning ko'zyoshi,
Sinov ko'chasida madorsiz qolsak.
Hattoki ishonchning egilib boshi,
Orzu mevasini uzishdan tolsak.

Iymonning qalqoni bo'lsin deb metin,
Bizga mashaqqatni yo'lladi hayot.
Borliqning bag'rida hech olmaydi tin,
Misli chavandozdek choptiradi ot.

Onadek bizlarga parvona bo'lsang,
Mehringning sharobin tutibon hayot.
Biz uchun olovda chog' bo'lib yonsang,
Qandoq seni sevmay bo'ladi, hayot.

Niyatdan yaralgan orzu shahrida,
Quvonch nihollari urayotir nish.
Sen sabab shu go'zal yurtning bag'rida,
Tinmay baxt qushlari etmoqda xonish.

Shukrona qilaylik ming bora, do'stlar,
Yurtboshim yaratgan shu imkon uchun.
Bo'rondek shiddatli bo'laylik, yoshlar,
Biz o'zbek farzandi bo'lganlik uchun.

Olam maydonida noshukur bo'lmay,
Qanoat taftini aylaylik bayot.
Ollohg'a shukrona qilsak, gar tinmay,
Yanada go'zalroq ko'rinar hayot.

Shukrona

Tongda uyg'ondingiz, baxt aslida bu,
Nonushtangiz tayyor, issiqliqina choy.
Ba'zilar bilmaydi neligin uyqu,
Ko'nglini yoritmas garchand yorug' oy.

Qarang, maktabingiz ozoda, shinam,
Quchoq ochib kutar sizni muallim.
Qaydadir bir bola yig'laydi har dam,
Sizdek olmoq istar mакtabda ta'lif.

Shirin tush ko'rgin deb boshda onangiz,
To'shagingiz yopar boshingiz o'pib.
Bir bola ko'chada yakka-yu yolg'iz
Yerlarda uxlaydi onasin kutib.

To'rt muchangiz sog', ko'zlar nurafshon,
Baxtlisiz ko'ngilni bir dam qiling to'q.
Qayda xavotirdan yuraklar vayron,
Tashqariga chiqsa, ko'ksin yorar o'q.

Bobo-yu bivingiz qilishar duo,
Ozod vatanda siz o'zingiz ega
Qaydadir nuroniy zotlar yo'q hatto,
O'ylab ko'rdingizmi sababin, nega?

Tantana kunlarda barchamiz shodon,
Dillarni yayratar do'mbira sozi.
Janggohlar ichida odamlar sarson,
Yurakni yaralar o'qlar ovozi.

Shunday shukronalar aytaylik, yurtdosh,
Yashayapmiz xavfdan omon-omonda.
Kulgidan quvonsin birdek keksa-yosh,
Baxtiyorlar yurti – O'zbekistonda.



Sevinch Hamrayeva
11-sinf o'quvchisi



Sevara Daminova
11-sinf o‘quvchisi

Zamin uzra to’kilib kuzgi yaproqlar,
Ona yer bag’riga o’zin otmoqda.
Bahorga intilib xasta xazonlar
Yomg’ir ostida nola qilmoqda.

Har yonda haydaydi daydi shamollar,
Uning hislarini ermaklar faqat.
Ko’kka bulutlardan alamin olar,
Xazonning qismatin ko’rgan tabiat.

Sarg’aygan jussasi yerlarda sarson,
Quyosh nurlaridan so’raydi najot.
Bandidan uzilgan sho’rlik bu xazon,
Umidlar shu onda bo’lmoqda barbod.

Har nening oxiri bo’lgani kabi
Xazonning qismati ibratdir bizga.
Har jonzotga nasib taqdirning zarbi,
Hayotdan zavq olib yashaylik birga.



Ona

Olam borlig'ida baxsh etgan so'zlar,
Yuragim qa'rida sening isming bor.
Nafosat bag'rida uyg'ongan ko'zlar,
Go'zallik taftida sening vasling bor.

Qalbimni bog'lasam tog'ning uchiga
Ko'zlarining ko'zimga boqadi mahzun.
Tan berdim Yaratganning kuchiga
Sening mehring yurakni yoqadi har zum.

Sabrim yetarmikan qalbim nidosi,
Olam nigohida yagona yohu.
Tuyg'ular tinimsiz, timmas sadosi
Xayolim bag'rida xayolkash ohu.



Sog'inch

Nigohlar taftida hijron tunlari,
Sog'inch hislарida izlayman bahor.
Shafaqdan nur olgan oyning yuzlari
Yozgi saratonda izlayman bahor.

Xayolimdan ketmas bahor havosi,
Yozgi saharlarda oqadi anhor.
Tushlarimga kirar mayin navosi,
Kuzning xazonida o'ylayman bahor.

Sening go'zalliging sokin ohangda
Insonlar yulduzdek porlagani bor.
Oppoq taftlar ila bulut boqqanda
Sening iforlarining sog'indim, bahor.



E'zoza Yo'ldosheva
11-sinf o'quvchisi

Baxt



Xalqim bugun mammun istiqbolidan,
Noz-ne'mat arimas dasturxonidan.
Yegan ushoq-noni shirin bolidan,
Mannundir giyohsiz biyobonidan.

Bog'larida sayrar tinmay qushlari,
Xosiyatli tongda ko'rgan tushlari.
Hatto ziynatlidir zumrad qishlari,
Farzand kelajagi o'y-tashvishlari.

Bag'ringni to'ldirib tonglaring otsin,
Ufqda qizarib quyosh tinch botsin.
Shunday duolardan ko'ngil bugun to'q,
Bobolar duosi hech qayerda yo'q.

Vatanni e'zozlash – yoshlarning ahdi,
Yurakdan gullaydi mehr daraxti.
Shunday jannatmakon yurtimda yashash –
Bizdek insonlarning oliy bir baxti.



Shodiya Yusupova
11-sinf o‘quvchisi

O‘zbekiston



Xoh yerdan, xoh cheksiz samodan boqing,
Olloh ishqil tushgan bu gul, bo’stonga.
Sevgimni yashirmam, mayli, yetkazing
Hech bir yurt teng kelmas O’zbekistonga.

Halollik boshlanar dala-dashtidan,
Iymoni ko’ksida, aziz nonidek.
Kamtarlik o’rganing qo’ni-qo’shnidan,
Tuyg’ulari toza, keng osmonidek.

Quzg’unlar in qurdi qaysi bir zamон,
Ko’lanka ketolmay qoldi qoshidan.
Qadrni yanchdilar, bo’g’ildi imkon.
Tuzni ham oldilar yog’siz oshidan.

Ammo taqdir so’zi yagona, bitta,
Hech bir kuch to’siqmas ko’hna karvonga.
Yoshlar bir tan bo’lib hur kelajakni
Boshlab kelar yangi O’zbekistonga.





Abdiyeva Sevinch
11-sinf o'quvchisi

Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiysiga nazira

*Bu olam aro ajab alamlar ko'rdim,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdim.
Har kim bu "Vaqoye"ni o'qir,
Ne ranj-u, ne mashaqqat-u, ne q'amlar ko'rdim.*



Yutdim ba'zan zahri hijron ul ishq oqibatidin,
Ba'zan chekdim bahri dard ul do'stlar nisbatidin.

Yoshligim to'kildi xuddi erta bodom gulidek,
Qo'msadim mehri bisyor holidan himmatidin.

Yo xatolig' erurmikin har qilg'on ishim,
Ne uchun bu dunyo manga munchalik torlik qilur.

Yo Tangri taolo manga hadya aylar bul sinov,
Bul sinovki, chora aylash harki vaqt dushvor erur.

Ey, Sevinch, "Vaqoye"ni bir o'qib ko'rmaq yaxshi,
Ne ajab, topsang javob bo'lur undan-da yaxshi.

To Bobur chekti g'am-g'ussa "Vaqoye" bita turib,
Shul sababdin, sening so'zing afsussiz bo'lg'on yaxshi.



Davo istab yoxud she'riyatga qaytish

Qay bir shoir she'rini o'qib,
Yana olsam qo'limga qalam.
Tuyg'ularim she'r qilib to'qib,
Yo'q bo'lsaydi – dard degan yaram.
Qay mavzuda misralar bitib
She'riyatdan topsaydim darmon.
San'at sabab g'amlarim yutib,
Davo olsam qolmasdi armon.
Yoki yetti osmonda uchib,
Ko'rib qolsam, ne buyuklarni.
Yulduz-u bulutlarni quchib,
His qila olmasam bu yuklarni...
Uchib yurib osmonda mag'rur,
Olib o'tsam Temur qilichin.
Undagi bor – iymon va g'urur
Zora, yengar ofat ich-ichin.
Yo Ulug'bek qoshiga borib
Dardin olay bo'lib bir farzand.
O'g'il misol ko'nglini olib,
Quvonch bersam tog'lardan baland.
So'ng bosh qo'yib Bobur poyida,
Undan olsam barcha ilmni.
Navoiyning ulkan soyidan,
Bahra qilsam ona tilimni.
Hatto ko'rsam urush yillarin,
O'z xalqimga qillardim yordam.
Nazar solsam jahon ellarin
Jon olardi jon berib har dam.
Hayotning ko'p she'rini o'qib,
Yana qaytdi she'riy paytalarim.
Tuyg'ularim so'zlarin uqib,
Jonga kirdi ushbu baytalarim...



Shermuhammad Tojiddinov
10-sinf o'quvchisi





Jaholatga qarshi - ma'rifat



Dunyoda kimlar ko'p, yaxshi-yu yomon,
Jaholatga qarshi - ma'rifat har on.
Seni o'z qa'riga tortsa jaholat
Undan och, aqlingni ishlat, ey inson!

"Jaholat bu nedur?" der, g'arib birov,
Dedim men: "Bu illat, berar ko'p sinov,
Aslo ishonma sen, yo'qsa na holat
Qonunbuzar, beilm, bo'larsan yalqov.

Lek senda bor qurol: olim ma'rifat,
Uni ko'rib qochgay zolim jaholat,
Chunki unda yo'qdur, chora-malomat,
Yo'qdur to'g'ri yo'llik, bilim-u omad.

Ma'rifatli inson, bo'lmaydi hech kam,
Safimizga qo'shil, birodar, sen ham,
Jaholatga qarshi kurash, qon yig'lat,
Shunda kelajaging, porloqdir har dam!"

Buyuk zot

Ijodning qo'ynida tug'ildi bir zot,
Yetti-sakkiz yoshda qilardi ijod.
Uning ismi erur kichik Alisher,
G'azalida ko'rinar misli kelbat sher.

Buyuk Alisherdan so'ng o'tdi besh asr,
Adabiyot sahnida qurildi qasr.
She'rlarin tinglabon kitobxon qarzdir,
Garchi ulug'dirlar bosh egsak arzir.

Qadring baland bo'lsin, ona tilim!

Hech ko'chaga chiqmagan
Nuroniy chol bor edi.
Rosa ko'p she'r o'qigan
O'zi ham yozar edi.
Bir kun aylanib yurib
Bolalarmi ko'rди u
Biroz so'zin eshitib
Rosa o'yga toldi-ku:
So'zga qo'shar ruschani,
Ingliz va koreyschani.
Buzib aytar gaplarni
Qisqartirar so'zlarni.
Chol bundan ko'p ranjidi
Quyi soldi boshini
Uyi tomon yo'l oldi
Chimirib ko'z, qoshini.
Yaqinlashib joyiga
Oldi qo'liga qalam
Uning yuragin ezar
O'sha bugungi alam.
Ona tilim, qadringga
Yetgan bor, yetmagan bor
Sening ulug' nomingni
Sharaf-la oqlagan bor!



Dilnura Ramazonova
9-sinf o'quvchisi



Hikmatbek Boyqobilov
8-sinf o'quvchisi

Bobur g'azaliga muxammas

Bir yonoqda oy ayon ko'rinur,
Bir yonoqda quyosh hayron ko'rinur,
Oldida ming sha'ni komron ko'rinur,
Yuzida ul kabi xandon ko'rinur,
Sutga ko'p boqlsa, bale, qon ko'rinur.

Mohi tobobon kular oning ko'ziga,
Tomadir bol harki aytgan so'ziga,
G'uncha shoddir qavs kabi og'uzida,
Hatti mushkinmu durur gul yuzida,
Yo suman ustida rayhon ko'rinur.

Bizda ne dard-u, sanam g'ami o'zga,
Lola yanglig' go'zal olami o'zga,
Oldimizdan o'tar xiromi o'zga,
Ko'rmagay xotirini jami o'zga,
Kimda ul zulfi parishon ko'rinur.

Shul sanam qaddimnikim "dol" aylabdur,
Barcha junun ahlini lol aylabdur,
Bizga bir boqishni malol aylabdur,
Ishqin el ne xayol aylabdur,
Asru mushkul g'urur oson ko'rinur.

Ko'zdan oqar olti naming, ey Bobur,
Kim tushunardi alaming, ey Bobur,
Hikmat qo'lida qalaming, ey Bobur,
Sarv bo'yluq sanaming, ey Bobur,
Rost aytay, so'zi yolg'on ko'rinur.



Tuyg'ular tug'yoni



Telba tuyg'ularim
Tutganida tug',
To'xtatolmas Temur
To'plagan tig'lar.
Tarixni titratgan
Taxtlar tugaydi
Tangri tomonidan
Tushsa to'siqlar.
Titroqda turibman
Tanda talvasa,
Tilimda tuyg'ular
Taftidan tug'yon.
Tasalli topmoqni
Tilayman tinmay:
Tuyg'ular toshqindir,
Tuyg'ular – to'fon!

Yomg'irdagi sayohat



Daryoga tushgan oyning
yuzini tomchi chertar,
Uyalgandan oymomo
yuziga parda tortar.
Oy – chimildiq ortiga
o'tdi go'yo kelinchak,
Maysa boshin ko'tarib,
yomg'irga chaldi chapak.
Chumoli galasini
kuzatdik yer ostiga,
Chaqmoqqa qulqoq tutdik
tinglamoq-chun, rosti gap.
Jahldor momoguldirak
bizni rosa urishdi,
Maslahat bermadi, so'ng
qamchisida turishni...
Daryoga tushgan oyning
yuzini tomchi chertar...



Javohir Abdurasulov 8-sinf o'quvchisi

Bobur g'azaliga muxammas

Baxtli davr kelmog'in kutmoq kerak,
Dard-anduhning ildizin so'tmoq kerak,
G'am-u ranjni ichga yutmoq kerak,
O'zni ko'ngil, aysh bila tutmoq kerak,
Bizni unutqonni unutmoq kerak.

Bunda asl ochun gashtini tuyib,
Kechalari hajrda yonib, kuyib,
Madhush bu olamda Allohni suyib,
Aysh-u tarab gulbiniga suv quyib,
G'ussa niholini quritmoq kerak.

Ishq har on kuylagay misoli bulbul,
Yorim chehrasi oy, sochlari sunbul,
Ko'ngil yor ishqida yonib bo'ldi kul,
Tiyra tutur zuhd g'amidin ko'ngil,
Ishq o'ti birla yorutmoq kerak.

Kayf-u safo insonga bermas surur,
Bunda inson zoti jannati qurur,
Ranj anduhlar asl yo'lingdan burur,
Har nimaga g'am yema, g'am ko'p turur,
Aysh bila o'zni ovutmoq kerak.

Asli o'tmish eshigin yopur ko'ngil,
Asli ishqda gavharin topur ko'ngil,
Hayotni suygan qalb – javohir ko'ngil,
Qo'yma mashaqqat aro Bobur, ko'ngil,
O'zni farog'at bila tutmoq kerak.



Yaproqlar



Kuzgi shamol yelar...
Daraxtlar nogoh,
Go'yoki go'daklar kabi yig'lashar.
Ko'z yoshga aylangan yaproqdan atrof,
Daraxtlar borliqqa vido so'zlashar.

Ko'z yoshiga to'lgan daraxtning yoni,
Dosh berolmay sira kuz shamoliga.
Kirib kelsa hamki, qish qahratoni,
Tan berar bo'ldi u kuz jamoliga.

Yerdagi xazonlar, barglar shitiri,
Kuzning jilosiga aytar olqishlar.
Endi yaproqlarning barchasi -bari
Parli ko'rpa ichra yotishar qishlab.



HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI IJOD MAK TABI





Sitora Naimjonova
11-sinf o'quvchisi



Qarang,
sukutlarga qolmang aldanib,
Boqmoq izingizga gullar to'shasin.
Shu on horg'in yurak o'zligin tanib
Tun bo'yi band etsin xayol go'shasin.

Zulmatda,
kipriklar uyg'oq, nozanin,
Ruhingiz betashvish, ko'zda g'alayon.
Taqdir vidolarga yaratdi zamin
Qaro hijronlarga to'ldirib har yon.

Boqing,
yetim qolgan ishqimiz haqqi,
Sevilish baxtini ko'ngil taniydi.
Nigohingiz qanday aziz ekanin
Xayolchan qalbingiz bilsa qaniydi!

Qarang,
uchratguvchi yo'llar hurmati!

Men bilan

Men bilan yonmadi qaysi cho'g'?
 Ayt, yurak. Jim turma qon yutib
 Dengizga borgim yo'q, qolgin yo'q,
 Shon yutib.

Men bilan bo'ljadi chilparchin,
 Qaysi so'z? Qaysi ko'z? Qay ko'ngil?
 Faqat bir xayol chin, xayol chin,
 Kel,
 ko'rgil.

Men kabi to'ymadi qaysi nafs?
 Adolat, haqlikka, haqiqat!
 Dil jomin to'ldirdi bir havas
 Bu xilqat.

Men bilan qaysi
 qalb yashadi?
 Bardoshdan ko'ngli to'q,
 to'q, qongan.
 Birgina dilqaydim yashardi,
 Ishongan.
 Ishongan.
 Ishongan!

Ko'zlarim nam,
 Sochlarim qurg'oq,
 Dard boshimga tushgan-ku axir.
 Bu teskari dunyoda tarqoq
 O'yli qolgan faqat men – faqir.

Bosh qo'ymoqchi ko'ksimga g'amlar,
 Netay, axir, deyolmayman "yo'q".
 Axir, sensiz yashagan damlar,
 Qadaganman ko'ksimga ming o'q.

Alla, olgin
 orom, g'aribim,
 Shodliklarim qilmas bezovta.
 Qo'rhma, tinch yot oqshom, g'aribim,
 Axir ketgan xayollar ovga.

Zulmat ichra og'ular uyqu,
 Yor, visolni turmading kutib.
 Tun oromi qochgancha
 qayg'u,
 Ho'ng-ho'ng yig'lar o'zni unutib.

Yana behol yurak ovvora,
 G'am-alamlar bag'rimda hamon.
 Boshqa dilni qilmaydi pora
 Endi bag'rim "Hasrati makon!"

“Jangchi so‘z” larga maktub

Bas,
bo’ldi,
berayin
borimni,
Nima
naf sukutni buzmoqdan?
Qadalar nigohi yorimning
Uzoqdan.
Ovozi yuragim eshigin,
Holiga qo’ymasdan tepkilar.
Baxt emas, hasratlar g’amlangan
Sep kelar.

Hijronlar o’ynaydi “kimo’zar”,
Yor bir yon, men bir yon, ishq ezdi.
Alamlar yig’ilib, dil to’zar,
Oh, sezdim...

Bizdagi nuqtalar qora-yu,
Osmonning xollari oq emush,
Shirinso’z yurakka pora-yu
Ham yumush.

Orzular – chakalak o’rmonzor,
Ko’ngilga qadalar xush ohi.
Yetkazgin, xayollar – darmonzor,
Ollohim.

O’ng yelkamni sindirdi bir so’z,
Nigohimda qo’rkoq xavotir.
Ko’rganini anglamasdi ko’z,
So’z qudrati xayolga yotdir.

Aqlim ezg’in, shuurim tolgan,
Shamol misol sarson hislarim.
Qalbim tubi ichra yo’qolgan
Sukunatni topmoq istadim.

Boshim mag’rur, egmasman zinhor
Chap yelkam ham sindirsin mayli.
Bir kun “mard” deb o’sha jafokor
Yuragimni sindirmasaydi!

Tomirimda yugurgancha g'am,
Bo'rtib chiqib berardi og'riq.
O'ksimayman, nima bo'lsa ham,
Qayg'u ham bir emasmi tortiq?!

Yurak – manqurt.
Ketdi-ya singib,
Ko'zlarimga otilgan dardlar,
Bardosh tog'i
tomon intiqib,
Ko'ngil qo'yar arzimas shartlar.

Tilim so'zlar faqat alamni,
Jununlikka aylandi hislar.
Hasrat bosib shaxdam qadamni,
Ko'ksimda ham qoldirdi izlar.

Shukur deyman, yig'lay olaman,
Dardchillikda mening tengim yo'q!
G'am – qora soch, men ham qoraman,
Zulmatni ham ortiq yenggim
yo'q.

Umr qisqa, g'animat ochun,
Hislarga ham to'lib bo'lganman.
Hissiz inson bo'lsam, hayot-chun,
Allaqachon o'lib bo'lganman.

Jonini tutqazdi qo'sh-qo'llab
qish ham,
Hovliqma bahorning qistovi ila.
Kumush
kun o'tirdi, yoqib sovuq sham,
Sevgisin
saqladi o'lmas ko'ngilda.

Mehr shabbodasin yurakka urdi,
Shu lahza shoshgancha iliqxon ko'klam.
O'z yorin kutgancha faqat o'y surdi.
Bo'yoqqa
burkanib xayolchan o'lkam.

Sehrlab
sodda yer dilini biroz,
Nurga talpinardi maysalar yashab.
Oftobli ko'zguga boqqancha tannoz –
Daraxtlar ko'rkiga to'ymasdi yashnab.

Go'zal
gulli ko'ylak
kiyibdi borliq,
Sevinib hayotdan bo'lib minnatdor.
Nozlanib kelardi, qo'lida tortiq –
Suratin
soldirib qalblarga, bahor.



Shahlo Davronbekova

10-sinf o‘quvchisi

Behishtni istab

Jimjitlik sepadi
xonaga og‘u.
Vujudiyat ichra
butun bir titroq.
Derazam ortidan
iymanar yog‘du,
Hislanmagan hislar
qiladi so‘roq.

Qalbimning bog‘ida
yeladi sabo,
O‘ylarim toshadi
Ummondan osha.
Shunchaki yetmaydi,
Shunchaki yetmaydi
bir chimdim havo.
... Shunchaki
Sig‘dirmas hech bitta ma’vo.

Foniylidkan qochib
Boqiylidk tomon
Rangpar hirsrlaringni
Eh, sochib yubor!
Oq qog‘oz ko‘nglingga
tushmasin g‘ubor,
Behishtni izlagan
qabog‘larim qon.

...Shunchaki
Sig‘dirmas hech bitta ma’vo...

Eshiklar yopildi
ko'ngil yuziga,
Yurakka sanchildi
aytgan so'zingiz.
Kiprik emas
paykon qadalar ko'zga,
Endi qidirmasman!
...qarasam yo'qsiz...

Paymonasi yetib
paymonalarning,
Yig'layman... Ingraydi
ko'ngil torlari.
Ne ham derdik, faqat
sinovlar ortar:
“Ertaklari tugab, oymomolarning”.

Endi tonglar otmas
botmaydi tunlar,
Sanayman soatning chiq-chiqlarini.
Ko'zyoshimni terar pushti dastro'mol,
Kim terar yuragim siniqlarini?!
(Kim terar yuragim siniqlarini?!)

Yugurar, o'ylarim
yugurar,
Oyog'im joyidan
siljimas.
Ko'nglimga bosh urib
yig'ladim,
Qalbimga o'tinib
yig'ladim...
Ketarmi bu dardlar,
ketarmi?
Shahloko'z manzilga
yetarmi?
Jismimni sudraydi
ikki ruh,
Ikki xil insonman
ikki xil.
Tashidan yuksalib
borar-u,
Ich-ichdan so'nayotgan
insonman,
Ichidan quriyotgan
insonman...



Dilfuzaxon Valijonova
10-sinf o'quvchisi

Vatandır

Erta tong...
Uyg'onsang tinch, shodon,
Va butun borliqni uyg'otsang.
Seni xalq alqasa bir umr,
Yo'lingga nur sochsa, gul otsa!...
Uyg'onish, uyg'otish Vatandır!

Jannatni eslatsa tonglaring,
Tunlaring duo-la bezansa.
"VATAN NE?" desalar ba'zida,
O'ylanib dilimni ezarsan.
Ibodat aslida Vatandır!

Ichingni yondirgan ishq kabi,
Vataning ko'ksingda saqlar jon.
Sog'inib kelasan uyingni,
Va onang yopadi issiq non!..
Issiq non aslida Vatandır!

Qor tushgan dilingni kurasa,
Behishtga boshlasa tun-u kun.
Ular-la Xudoga yaqinsan,
Ular-la baxtlaring bus-butun!..
Chin do'stlar aslida Vatandır!

Dilimga o't yoqsa ishq kuyi,
Qo'shig'im ko'tarsa shu on qad.
Roziman!
Yashasa men bilan
Ko'ksimga in qursa muhabbat!
Ko'ksimdan in qursa muhabbat!
Muhabbat aslida Vatandır!
"Yaxshisin berayin" der Xudo,
Nenidir aytishni ko'zladim!
Hislarga ko'nglimni tikdim-u
Shu so'zni tun bo'yi izladim!
Xudoning bergani Vatandır!...

Anglam

Kelasan zulmatni yoritib,
Sen tomon bir qadam tashlayman.
Kaftlarim ichida hayotsan,
Men esa she'ringda yashayman.

Sensizlik umriga ko'nmayin,
Sog'inchni o'rtaydi dilginam.
Har shodlik men deya quvonsa,
Men deya qiynalar har bir g'am.

Gohida baxt meni sog'inar,
Og'riqlar, iltimos, ko'zni yum.
Dardlarni yutaman deyman-u
Dard meni yutadi kundan kun.

Xotira eslaydi goh meni,
Charchagan bu dunyo "uh"laydi.
Sen tunning qo'ynida yig'laysan,
Tun mening bag'rimda uxlaydi.

Ishq ichib yashadim bir umr,
Ishq deya yuragim qonadi.
Faqat yurt ichimni yondirar,
Faqat yurt ichimda yonadi!

Kelasan zulmatni yoritib...

...ga

Kuzakka uzating ko'nglimni,
Qaytmasin za'faron bag'ridan.
Do'stginam, o'tarmi Xudoyim,
"Do'stona" she'rlarim bahridan.

Ipdøyin uzilar rishtalar,
Qiynoqni yoqtirmas vijdonim.
Ko'zimni cho'qiymen ba'zida,
Bildirmay ichaman o'z qonim.

Uzoqlab ketaman goh sendan,
Goh senga yaqindir yuragim.
Azizim, xohlasang yoningda,
Sen bilan dil ushlab yurardim.
(Sen bilan qo'l ushlab yurardim!)

Tun tushar dilimga beyulduz,
Qahraton uxlaydi ichimda.
Uyqu yo'q!
Nimadir qo'rqtar,
Sog'indim seni ich-ichimdan!

Bilmayman qaytardim qayerda?
Va qayda sen tomon kelarim?
Manzilni o'lchamay izimga,
Ko'z tikib tolmagan chevarim.

Sen yo'qsan!
Kun tushmas dilimga,
Qolmaydi "do'stona" biror xat.
Ming yillik dardingni ko'rмаган
Ко'зимни о'yib ol, muhabbat!..

Gar seni topmasam dunyoda,
Jannatga yetaklar senli yo'l.
Xudoga yetganim ko'nglingdir,
Xudoga eltganim, omon bo'l!..

Zuhrajon, qayerda aqldan ozdim?
Qo'ynimda qay ilon saqlab keldi jon?
Yo'q, yora olmayman senga dardimni,
Daydigan hislarim, qara, bemakon..

Zuhrajon, bezabon yashash qismatmi?
Sen meni sukutdan anglab olgin,
HA!
Sening ro'molchangga ko'z yoshlar tomgan,
Mening yig'layverib, dilim namiqqan...

Zuhrajon, qayerga ketmoq istayman?
Nega bu odamzod shu qadar yomon.?!

Dunyolarga sig'may ketyapman desam,
"Xudoning yoniga bor" deysan hamon..!
"Xudoning yoniga bor" deysan hamon!

Zuhrajon, qayerda aqldan ozdim..?

Sensiz vujudimni kuydirar sog'inch,
Zanjirday ulayman tun bilan tongni.
Huzur qilaverar ochko'z yostig'im,
Umid uzolmaslik, aytgin, xatomi?

Qora paranjisini yopingan osmon,
Mening ham boshimga o'raydi ro'mol.
Xuddi ko'zlarimning tomchilaridek,
Paranji ortiga berkinar hilol...

Hatto hazar qildi mendan yomg'irlar,
Kimga dardlarimni aytay, bilmadim?
Ko'zimda qalqigan sog'inch yoshtalarim,
Faqt yostig'imga og'ir kelmadi...

Suvdek zarur bo'lding, havoday kerak,
Sensiz g'arib shamday tugab bitganman.
Oppoq kechalarda izlab kelmading,
Qora kunduzlarda qolib ketganman...

O'zimni axtardim,tun bo'yi,
Dilimda hamono dard tuyg'u.
Qayerdan kelardi ko'zimga,
...uyqu.

O'zimni izlagan kitobdan,
O'zimni topolmay tentidim.
Bo'lmasa, qani ayt, Xudojon,
...kim edim?

Bog'imda to'g'onoqgullarning,
Tikoni ko'ksimga sanchildi.
Kesilib ketganday yuragim,
...achidi.

Sukunat shovqini jarangdor,
Yurakda to'polon,jim xona.
Hali topilmagan o'zligim,
...begona.

Kechikib topdimmi?
bilmadim!
Yoki kech qidirdim oy qizin.
Men o'zim bo'laman qismating,
...yulduzi.

Nigohlar tutashgan onidan,
O'zlikning qo'shig'in "eshit jim".
Yarq etib ko'zingda porlagan,
...men edim,
...men edim,
...men edim.

Kechnish

Izg'irin...

Intiho rangidagi tun
Yetib bormaganov eng so'nggi xatim.
Shuncha gunohimga tavbalar qolib,
Men seni yana bir ko'rmoq istadim..!

Osmoňning sochlari qoraygan oqshom,
Ko'ksimga hadikni qadar bemor qiz.
Egizak dardlarim bor edi-ku lek,
Qachon bo'lar ekan baxtlarim egiz...

Derazasi ochiq men bor kulbaning,
Ko'zyosh kiprigimda qilar zardalar.
Meni kuzatyapti oyna ortidan,
va'dalar...

Qiynalib-qiynalib olaman nafas,
Bilmam! To'xtab-to'xtab uradi yurak.
Oynadan mo'ralar orzularimiz,
Oynadan mo'ralar bizning kelajak!

Ko'zimni yumishga botinolmadim,
Qo'rkoq tuyg'ularim qilar tantana.
Tunda
Shu so'z bilan birga qaridim.
Qachon osmon sochi oqararkin-a?!
Qachon osmon sochi oqararkin-a?!

Kulgichli yog' du



Bugun ko'zlaringga yorishar olam,
Jajji farishtasan, kulgichli yog' du!
Dardli kulgularga berilgan malham,
Seni o'pib ketgan qaysi bir ohu?

Nurli kaftlaringni tutgan o'ngimda,
Ko'zlarimda quvonch, sevinch porlaydi.
Go'yo go'zal malak quchar jonimdan,
Behisht saroylari tomon chorlaydi.

Jannat gullaridan kelgan kapalak,
Yasmin yaprog'idan yaralganmisan?
Nim tabassum qilar moviy gul falak,
Bulutlar nuridan taralganmisan?

Oh, kulgichli yog' du, jajji farishta,
Dunyoning qalbiga alishmam seni.
Qo'llarim tutarsan hali Behishtda,
Osylarga mayoq bo'lursan endi.

Oh, kulgichli yog' du, jajji farishta...



Gulbahor Yorqinova
10-sinf o'quvchisi

Tindi yonoqlardan tomgan yomg'irlar,
Uchdi chalkashlikka o'rangan xayol.
Yulduzlar ko'zimni asta o'g'irlar,
Kipriklar qadalar osmonga behol.

So'ng tikilib qolar nigohlar oyga,
Ichimda qayg'ular yengilar, yonar.
Bilmam bu yulduzlar uchadi qayga,
Mangulikdan qochib, yo'llarda so'nar.

Bulutlar yopadi osmon yuzini,
Bezovtalik ruhim oladi qamrab.
So'ng ko'nglim tanimas xiyol o'zini,
Zulmatlar tortadi o'ziga avrab.

Kel...

Bulutjon, endi kel qo'llarimdan tut
Osmoningga olib ketaver meni.
Qo'llaringni uzma, qo'yvormam seni
Azobni unut...

Bulutjon endi kel, qo'llarimdan tut
Qayg'ulardan qolgan jon-joningdan kech
Oh, meni olovda qoldirmagin hech
Qalbimni sovut...

Bulutjon endi kel, qo'llarimdan tut
Tomchiga aylanma quvonch bo'lib qol
Bugun ko'zyoshimni dardlarimni ol
Yuragim tobut...

Rostmidi dunyoga osilgan,
So'zimga qadalgan yakdil so'zingiz
Xayolimda sizga xatlar bosilgan.
O'qigach aldamang takror o'zingiz
Sog'inchimni faqat qog'ozga yozdim
Qalbingiz tubiga ko'chirolmadim
Qushlar ovozidan aqldan ozdim,
Sizni deb kelganni kechirolmadim.
Ko'zlarimga qarab o'qirmikan deb,
Yozdim qayta-qayta qorachig'imga.
Tunlari yomg'irda ko'zyoshimni yeb,
Dardlarim bog'ladim uzun sochimga...

Ruhimga sig'maydi isyonlar,
Tinmayin hayqirar aks-sado.
Bir-birin g'iybatdan axtarar,
So'ngsiz yolg'onlar.
Bizga tuhmat eng og'ir savdo,
Poyiga yiqilar haqiqat.
Siqilar ichimda siqilar,
Zulmatdan bekinganadolat.
Yiqilar,
Gumonlar ustimga yog'ilalar,
Vijdonim olovda yonadi.
Hislarim o'zidan bo'g'ilalar,
Qalbim o't nigohdan qonadi.
O'tindim osmonning dardiga,
So'radim ozgina quyoshin,
Yomg'irni qiynadi oldimda
To'xtamay oqmoqda ko'zyoshi.
Ko'nglimni boqmoqda dard yoshi,
Ruhimga sig'maydi isyonlar...

Dunyo



Dilnoza Jabborova
9-sinf o‘quvchisi

Samolarga boqib ko’zim,
Savollarda oqib ketdim.
Javobsiz xun yuragimga,
Tasalli-la boqib ketdim.

Bor tashvishim—yolg’on dunyo,
Yolg’onlarin niqobi haq.
Goh shodlikka to’lgan dunyo,
Rang olgusi undan shafaq.

Kuldirgan sen. Ko’zyoshlarga
Asir etib cho’ktirgan sen.
Yaxshiga dog’, yomonlarga
Shuhrat nurin yuqtirgan sen.

Kimlargadir dard yuqtirib,
Tag’in kimga kularmushsan.
Oqibatning lolalarin,
Asta-sekin yularmushsan.

Maylar tutib kimlargadir,
Kimga zahar qadah bo’lding.
Ko’nglim g’amga etib qal’a,
O’z ko’nglimga mazax bo’ldim.

Sen bir ochun—sir asrori
Yuraklarga g’ashli mehmon.
Asli senga biz mehmonmiz,
Sen — kuzatib qolar mezbon.

Ko’p ezmagin, inson asli,
Umid bilan ungan yaproq.
Tuproq edi ibtidomiz,
Intihomiz bo’lur tuproq.

Xayollar, tizginsiz xayollar!
O'ynaydi ko'zlarim o'ngida.
Bilmayman. Qochganmi halovat,
Yo kunim manzilin so'ngida.

Kipriklar oshiqar o'zaro,
Diydalar bekingan uyatdan.
O'ziga qilgancha ro'baro',
Uyqular cheklaydi hayotdan.

Qariga oladi sukunat,
Rango rang manzillar kutadi.
Olam ichra yana bir olam,
Meni hayratlarga eltadi.

Go'zalliklar qurshagan meni,
Yuraklardan yuvilar armon.
Yulduzlarda hayot uchquni,
Orzulardan porlaydi osmon.

Tushlarimda bo'lib mahliyo,
Baxt dengizin kemalariga.
Boshim qo'yib olaman orom,
Shodliklarning yelkalariga.

Ishonmaydi ko'zlarim sira,
Tark etgudek bo'lar bizni hush.
Taassurotlar bilan siylaydi,
Mo'jizakor, maftunkor bir tush.

Yomg'irlarga aylanmadim men,
Yomg'ir menga aylanib qoldi.
Quvonchlardan ortda qolmay deb,
Dard men tomon shaylanib oldi.

Bu samoning alamlariga,
Men tasalli bo'lmos'him kerak.
Tomchilardan jismim bo'lgan ho'l,
Ko'zyoshlardan namiqqan yurak.

Loy yo'llarda qolib ketgan dil,
Armonlarning tinmas gurungi.
O'z tanamdan qochmoq istaydi,
Ko'nikmoqqa ko'nmaydi ko'ngil.

Zaharxanda hayot ishlari,
Naysonlarda yuvilib ketsin.
Qolib ketgan sag'ir hislarim,
Yuragimdan quvilib ketsin.

Ko'zimga singadi samolar,
Yulduzlar nigohim qarida.
Men dalli, dallidir xayollar,
Ko'nglimiz tashvishlar bag'rida.

Yomg'irga bergenman yuragim,
Artsin azobbaxsh izlarni.
Yomg'ir ham sezarmi dilimda,
Namiqqan zoriqsan hislarni.

Bulutga o'xshaydi qarog'im,
Tomchidan gullaydi yanoqlar.
Qalamim, she'r degan yarog'im,
To'kilgan durlarim sanoqlar.

Subutsiz ruhimda g'alayon,
Taslimman, taslimdir sukunat.
Ishqsizlik muborak aylagan,
Bevafo ishqlardan kutib baxt.

Yurakka shivirlab aytilgan,
Dardlarning kuyida yashayman.
Ko'ngilga zirapcha qadagan,
Sirlarning uyida yashayman.

Sovuqqon ranglarga mengzalgan,
Sovuqqon hislardan sadoman.
Ertamni unutib, baxt to'la
O'tmishni so'rayman Xudodan.

Yashashga intilib yashayapman men,
Avzoyi buzilgan olam ichida.
Qorga qo'yilgandek qaqshayapman men,
Taqdirdan ne kelsa bariga chidab.

Ichimda bo'ronlar, sirtimda sukut,
Ko'nglimda g'ashliklar, yuzda tabassum.
Tug'yonlar tutqunga tushgan qush yoxud
Nurlari adadsiz quyosh men uchun.

Yongan yuragimda yoniq hislarim
Otash she'rlarimga qo'ymoqda tamal
Ong-u tafakkurim, qalbim, o'ylarim
Ijod tomonidan etilgan qamal

Butun hissiyotim etilgan qamal!



Men kichik daraxtman,
mustahkam daraxt,
Qishlarning zulmiga bera olgan dosh.
Ba'zan qahratonlar etgusi karaxt,
Ammo erta ko'klam ko'taraman bosh.

Men cheksiz osmonman,
tubi yo'q osmon,
Yulduzlar quvonchim – hamisha porloq
Horg'in bulutlari – mendagi armon,
G'azabim, nafratim – momoqaldiroq.

Men kuchli shamolman,
dovrug'li shamol,
Anglay olmasman hech tabiat sirin.
Borligim – bilmadim kimlarga malol,
Goho mayin yelman, gohi izg'irin.

Men asli insonman,
oddiy bir inson,
Goh quvonch tanimas,
goh bilmas qayg'u.
Aslida men emas maqsadlar osmon,
Shamollardek kuchli qalbdagi orzu.





Gulsanam Eshqulova
10-sinf o'quvchisi

Gunoh

Bahor quyoshi yuzimdan qattiq bo'sa olar, bu ajib holat bir insonni yodimga solardi...

Qora ko'ylak kiygan kunning pinjiga suqilib o'tiribman. Hayot o'zi bilan ovvora. Men o'ylarim bilan... Nahotki, anavi yorqin yulduz onam... Nahotki, meni ko'rib turibdi... Meni biladiganlarning bari menga onalik qilaveradilar, tavba, meni onam bitta! Onajonim... Kechagina gaplashdim, tunda, qorong'u kunda...

Qizim, tur! Namoz vaqtি bo'ldi, - dedi dadajonim.

Sakrab turdim-da, namoz o'qishga tayyorlandim. Maktab – hayotimning mazmuni. Inson kimdilsiz yoki nimadirsiz qolsa, ikki yo'lidan birini tanlaydi, faqat ikki yo'l... Yoki hammaga yaxshi yo'l bilan o'zining kim ekanligini ko'rsatish yoki salbiy yo'l bilan o'zining kimligini bildirish! Men musulmon ekanman, ijobiysini tanladim. Lekin hech kimni hech qachon unutmadi, hatto bir soniya... Shunchaki ko'nikdim...

Ko'nikdim...

Oy.

Quyosh.

Qoralik qo'ynida bir nur kabi o'tiribman. Ko'zim yoshga to'lib, to'g'onnei buzib o'tmoqchidek talpinadi. Tilim kalimaga keldi-yu, birdan mening ovozimdagи "ooonaaa" degan sas xonamni bo'rondek qopladi. To'g'on buzildi,

endi sharshara kabi qayerdandir qonli va achchiq suv quyilib kela boshladi. Bu jarayon bo'ronni rag'batlar edi. Yuragim ham menga bo'yсинmas, bir asov ot kabi kishnardi. YO'Q!!! Shu payt bu duk-dukdan o'yilib ketay degan eshikni kimdir ochdi. Dadam... Bo'ron birdan tindi... Ularning jilmayishi xonamda shabbodaning xonamga suzib kelishiga sababchi bo'lди:

Onam, nima bo'lди?

Dada, nega, Olloh mening onamni olib ketadi, nega?!?! Axir... Axir...

Onajonim, shaytonning qalbingda mehmon bo'lishiga yo'l qo'yma! Zinhor!!! Bilasanmi, Ollohim koinotdagi eng rahmdil va mehribon zot. Xudoyim, berib yoki olib sinaydi. Suygan bandasidan oladi... Chalkash sinovlarni beradi...

Dada...

Onaginam!..

Yillar ulg'ayib, yoshim ham ancha qaridi, ammo o'zim tetikman. Dadam ham onam kabi qalbini menga omonat topshirdi... Ammo o'sha g'alabaga erishgan kunimdan boshlab, hattoki, bir marotaba ham ko'zim namlanmadи! Chunki omonatini topshirganlar uchun yig'lashim gunohligini tushundim.

Omon Matjon bolaligidan

Har ko'chada "jujuqlar" chumchuqday chirillab o'ynashadi. Osmanni ba'zan quyosh, ba'zan ukamning yostig'iday qoraygan bulutlar egallaydi, go'yoki quvplashmachоq o'ynashadi... Qoq tush vaqt! Quyosh zaminga bo'lган sevgisini ochiqchasiga izhor qiladi, butun koinotga jar soladi. Tushlik vaqtı bo'lishiga qaramay uyimizda hech kim yo'q. Men ham qo'shnimiznikidaman. Non yo'q, ammo dasta-dasta gazetlar bor. Otam pochtachi bo'lганligidan uyimiz gazetga to'lган. Maktabga borish jon-u dilim. Maktabimiz o'zi to'rtbesh yil avval ko'chib ketgan Ma'ruf amakining uyi edi.

Tong... O'rik gullari yerga yiqilgan. Bu nozaninlar o'rnidan turolmay shabbodadan yordam so'radi. Maqsadlari shoxga ilinib olsa-yu, tirik qolsa. Shabboda ularni siljita olmay nafis tannozlarni har tomonidan tortadi. Maktabimiz tomon dadil qadam tashlab boryapman. Borsam, Toshboyev domla nutq so'zlamоqchi bo'layotgan ekan, ko'ziga nimadir kirganmi ko'zlari qizargan.

Mana bugun, 1953-yil 5-martda, Otamiz Stalin bu foni yunyonи tark etdi.

Joyi jannatdan bo'lsin, ilohim! Xo'п jannati inson edi-da...,-dedi kissasidan dastro'molini olib, ko'zlarini artarkan.

Butun hovlini bo'rining uvillashidan-da g'alati va achinarli ovozlar qopladi. Ustozlar o'quvchilarga qo'shilib yig'lardi. Yerga yiqilganlar, hushini yo'qotganlar bo'ldi. Shu qatori men ham yig'layverardim, axir otamiz Stalin vafot etdi... Uyga qaytar ekanman, yo'ljadi daraxtlar ham yashnash o'rniga barglarini zaminga berib qo'yayotgandek tuyilardi, ammo ko'k charag'on! Uyga kelsam otam sigirlarga xashak berayotgan ekan. Ahvolimni ko'rib:

Nima bo'ldi, Omon? – dedilar.

– Ota, Stalin otamiz o'libdi...

– Nishatiyin, mening ham otam o'lgan..., – dedilar beparvo.

Ko'zyoshlarimni artib, papkamni tashlash uchun kirib ketdim.

Hozirgi kungacha har xil yillar bilan kim o'zarga chopib kelmoqdamiz...

Ungacha ham bu nechta yomonlar, qancha yaxshilar ko'z yumdilar.

Chizdirar sog'inchning rasmini,
Yurakning amri-la ruhiyat.
G'ururni o'ldirib, qo'li qon
Va xursand xayolot.

Osmonning yuzini o'pajak
Sen anglab yetmagan hislarim.
Oh hayot, izlama, topmaysan
Ruhimning izlarin.

Oxirgi nuqtani qo'yimoqni
so'radim, yolvordim, bu – tabiiy.
Sen bo'lsa jilmayib, qo'yding-ku
nuqtani davomiy...

Xonish

Ko'zlarimda aksin topadi borliq,
Chaqiriqlar yorar charxning yuzini.
Hayallar baxtlarning siyrati nolib,
Qushchalar unutar aytar so'zini.

Sovuqqon dillarga berib tasalli,
Sukunat o'zligin unutmoqqa shay.
Eng buyuk shodlikni berib ketar-u,
O'zi nimaligin yashaydi bilmay!

Ko'ksimga qadalar, sanchilar, tirnar,
Bahorning kechikib kelgan mezoni.
Bog'lardan yuz burgan, tog'ga ko'z burgan,
Dilni vafolantir, ko'klam azoni.

Dilni vafolantir, ko'klam azoni...



Zulhayo Mingboyeva
8-sinf o'quvchisi

O'zin osib qo'yib ingraydi soat,
Armonning qadamin tezlatib "chiq-chiq".
Kiprik qovushmoqqa topmaydi imkon,
Qochoq tuyg'ularim tongga qorishiq.

Xayol sarhadlarin bosib izma-iz
Topsam ham ko'klamning ilk kuni, ishon.
Yetolmasam agar, yurakjon, kechir!
Ertaga bahorning kelishi yolg'on!

Tonglarga dodlaydi namiqqan diydor
Chak-chak... chakki otib ketdi sukunat!
Gullamoqchi bo'lar, unmoqchi bo'lar
Gullarning yaprog'i ostidagi baxt!

Borliqning jariga solmasdan qulqoq,
Ishqnomha yo'llayman yomg'ir tilida.
Endi sendan javob kutmayman, yo'q-yo'q,
Endi urar yurak Olloh yo'lida!

Chak-chak...
Chakki otib ketdi sukunat...

Sentabr kaftida sarg'ayar borliq,
To'kilib borajak samo hamda so'z.
Sillamni quritar isyon, she'rsizlik
Yer bag'rin yo'rgaklab, yonboshlaydi kuz.

Oymomo tilidan ertak eshitib,
Ertaklar so'yangan qaro kechalar.
Teskari tebranib ochun beshigi -
Kunduzsiz oqshomlar aro kechalar.
Yurakni qiymalab tashlar sukunat,
Dillardan mahrumdir shabboda hislar.
Rangsiz tushlar ichra tentiramas qalb,
Ufursa ko'ngildan gar nazmiy islar.

A decorative horizontal border consisting of a repeating pattern of stylized floral or leaf-like motifs in a light beige color, set against a dark background.

Men ancha charchadim. Dunyoning
Bag'riga sig'mayin ketdim-o.
O'zimni hadya et, Xudoyim!
Haddimning so'ngiga yetdim-o.

She'r, dedim. Tillarim kishanband.
Sen, dedim. Ilohiy tandaman.
Umrga kimo'zar o'ynabon,
Soyamga yutqazgan bandaman.

Yuzimga tarsaki tortdi shamollar,
Yurakka o'tkazdi muzliklar hukmin.
Yo'llarim bemanzil qildi xayollar.
Izlarim o'chirdi izsiz izg'irin.

Ko'zlarimga suqdi nayzasin sevgi,
Qadamim mixlaydi kibr yerlanib.
Xudoyimga boqdim, yuzlandi menga,
Orada ishqlanib qoldi she'rlarim.

Sarob



Ishqqa parda tortgan dunyo edimi?
 Bormi uni yorib, uchratgan ishqin?
 Xudoyim, menga bir ilohiy kuch ber,
 Sevgim Dargohingga bexato yetsin.

Cheki yo'q yo'llarning yo'lovchisidek,
 Shirin xotimalar kutganim bekor.
 Ismingsiz so'zboshi olgan har kunim,
 Baxtsiz baxtlar bilan ko'rishar diydon.

Yechimsiz tugunlar aro qolgan sir,
 Yolg'onchi rostlarda qoldirma xarob.
 Xudoyim, O'zingsiz yo'llarning barin
 Bandang uchun faqat aylagin sarob.

Da'vat




Sepkilli yorini kuzatgancha jím,
 Bag'ri qonga to'lib yotar Ona Yer.
 Musaffo hislarni sipqorar oqshom,
 Va ko'ngilga tutar jomi to'la she'r.

Tasalli izlaydi bu ko'zlar, bu qalb,
 Tasalli bermoqqa dillar yo'q, tillar.
 Men hamon yashayman oyga tikilib,
 Men hamon yashayman, ortimda yillar...

Sadolar, nidolar o'rlar osmonni,
 Sen hamon uyquda, tushdasan, Inson.
 Seni Vatan emas, uyg'otgin uni,
 Ro'yolardan qochgin.
 Abadiy uyg'on!



**ERKIN VOHIDOV
NOMIDAGI IJOD MAKTABI**





Ruhshona Isroiljonova
11-sinf o‘quvchisi

Qishlog‘ga maktub

Shahar shovqinidan bezadi yurak,
Sog‘inch ezaverar mitti jonimni.
Eng qiyin davradan bilaman afzal,
Qishlog‘im bag‘rida o‘tgan onimni.

Bilaman, qishlog‘im, sog‘inding sen ham,
Biroz quv, qalbi pok jajji qizingni.
Ha, rosti bir bora ko‘rgim kelyapti
Chang ko‘chalar aro bosgan izimni.

Arg‘imchoqdan aslo tushmasdim avval,
Men o‘sha qizaloq, ha, sho‘x qizaloq.
Yo‘lim kut, yo‘limga poyandoz to‘sab,
Bir shoirang bo‘lib qaytaman, qishloq.



Yurakka ko'milar asl shairlar

Ruhshona Nishonova
11-sinf o'quvchisi

Yurtimizning ko'plab joylarida bo'lgani kabi bizning tumanda ham kitobxonlik kurnlari, adabiyot kunlari bo'ladi. Bir gal adabiyot kunida tumanimizga shoir Muhammad Yusuf kelgandi. O'shanda mahallamizda yosh-u qari – hamma "shoir bilan uchrasharkanmiz", deb chiqishgandi. O'shanda atrofga qarasam, shoir she'rلаридан та'sirlanib, yig'lamagan odam qolmagandi. Maktab yoshida bo'lmasam ham, ijodkor she'rларини sodda bo'lganligi uchun tushunardim, lekin o'sha soddagina she'rлар zamirida chuqur ma'no borligini bilmasdim. Mana bugun shoir she'rларини o'qib, har bir soha haqida chuqur o'ylab, keyin yozganligi, shuning uchun ham xalq soddadil shoirni boshqacha suyishini angladim. Masalan, ijodkorning quyidagi misralarida xalq uchun, ona tilimiz uchun qanchalar qayg'urishi ifodalangan:

Erkim yo'q deb zirqiradi bir joylarim,
Parovozni hansiratgan bug'doylarim,
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Yuqoridagi misralarda erk inson uchun eng muhim narsa ekanligi, bundan bir necha yillar avval biz kuchli o'qib, davlatni rivojlantirish o'rniiga paxta, bug'doylar yetishtirish bilan band bo'lganimiz, shu sababdan ham parovozimiz hansiragani va aynan shu vaziyatga quyidagi misralarni joni achib yozganligini ko'rishimiz mumkin:

Bo'lar elning bolalari bir-birin der,
Bo'lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo'l endi, qaddi baland, qaddingni ker,
Xalq bo'l elim, xalq bo'l elim, xalq bo'l elim.

Ushbu misralarni o'qigan kishi beixtiyor bundan bir necha yillar oldinga nazar soladi. Chunki "Bo'lar elning bolalari bir-birin der", degan birligina misra bilan ilmsizlik botqog'iga botgan kimsalardan qo'rqb, o'z manfaatlarini o'ylab adabiyotimizning yetuk darg'alarini nohaq ayblab, tuhmat qilishgani ifodalansa, "Bir bo'l endi, qaddi baland, qaddingni ker", degan satrida esa bugungi kunda unday illatlar yo'qolib, endi bemalol qad rostlab, qaddin baland tutishga da'vat seziladi. Xalq uchun kuyinib gapirgan Muhammad Yusuf quyidagi misralarda har bir inson, avvalo, Vatanni anglashi kerakligini aytib o'tgan:

Sen bilan o'tgan har kun – bayram, bazm,
Sensiz bir on qolsam, vahmim keladi,
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Muhammad Yusuf taxallusini Tohir Malik qo'yib bergen ekan. Kunlardan bir kun Tohir Malikka Muhammad Yusufning she'rlarini keltirishadi. Shunda Tohir Malik she'rlarga iliq fikr aytadi va: "Endi imzoni o'zgartiramiz, Muhammad Yusupov emas, Muhammad ham, Yusuf ham Payg'ambarlarimizning ismlari. Ularga "-ov" qoshimchasini qo'shib, o'zimizdan begonalashtirmaylik", – deydi. Shundan buyon shoir Muhammad Yusuf bo'lib ijod qilgan ekan.

Shavkat Rahmon, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi 47 yil umr ko'rgan Muhammad Yusuf biror ish qiladigan bo'lsa, jabr ko'radigan odamlar (narsalar) o'rniga o'zini qo'yib ko'rgan. Ayniqsa, quyidagi she'rida aka-uka o'zlariga uy quramiz deb terak kesib, terakdag'i qush inini buzishgan holatini shoir shunday tasvirlaydi:

Baland bo'lar uyimiz tog'dek,
Ayvonida ustun ul terak.
Biz yasharmiz ko'nglimiz chog'dek,
Shunda qushlar yig'lasa kerak.

Shunday qilib, shoir ijodi bilan tanishar ekanmiz, ijodkor she'rlarining bir-biridan ma'noli, ta'sirli ekanligini anglaymiz. Hozir yodimga shoirning bir she'ri keldi. Ijodkor buni o'ziga o'xshagan shoirlar uchun yozgan edi:

O'lsa o'zi o'lar, so'zi o'lmaydi,
Hamisha barhayot nasl shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi,
Yurakka ko'milar asl shoirlar.



Meni qiynayverar turfa o'ylarim,
Nahot shuncha kengmi urush maydoni?
Kim ekanin o'ylayman hamon,
"Urushning eng so'nggi qurban" in.

Kimdir aytdi – Umri xola deb,
Kimlar o'ylar, bilib bo'lmaydi.
Shahid ketgan hammasi g'olib,
Fidoyilar sira o'lmaydi.

Yo'q, aldamang, ishonmam aslo,
Birorta ham qolmagan tirik.
Hamma o'lib bo'lgan o'shanda,
O'lgan edi hatto bolalik.

Faqat ko'plar kirib qabriga,
Tuproqlardan topishgan makon.
Qolganlari ko'milib qalbga,
Yolg'iz jismi turibdi omon.



Uka!
To'pponchangni irg'itib yubor,
"Urush-urush" o'ynama endi.
Va miltiqlar chiqmasa takror,
Urush nima bilmasang edi.

Singlim!
"Do'xtir-do'xtir" o'ynama aslo,
Qayta qolgin endi bu shashtdan.
Qo'lingdagi qo'g'irchog'ing ham
Charchadi-ku bemor yashashdan.

"Xola-xola" ukamizga yot,
"Hakkala" ni suymaydi fe'ling.
Butun dunyo sog'ingan o'yin –
"Mehmon-mehmon" o'ynaymiz, kelng.

Alisher Navoiy g'azaliga tazmin

Ko'nglum o'tin zohir etsam, barcha olam o'rtanur,
Shu'lasin gar tortsam, to'qquz falak ham o'rtanur.

O'yakim, nur aks etib ul shu'ladin ming dil aro,
Ishq elining ko'nglida chun beadoq g'am o'rtanur.

Darbadardir olami ishq ichra har yon telbalar,
Oshig'in ko'nglida ishqin o'tidin sham o'rtanur.

Aydilar, ko'ngling o'ti birla jafolar chekma ko'p,
Vah ne tong, bu o'tda hatto ashki purnam o'rtanur.

Shams nuri ishq o'tining nazdida hechdir manga,
Ishq o'tisiz lek Avazbek, o'tsa hardam o'rtanur.

Dilbaro, sen ne uchun oshiqlara ozorsen,
Aylabon o'zdin yiroq ham ul raqibg'a yor sen.

Chun chaman kezdam biror gul-g'uncha senga teng
emas,
Angladim, dunyo chamanzor, anda chun sen borsen.

Kel, menga nazzora aylab, ko'nglum ichra tut vatan,
Darda vasling chora qilg'il, dilbaro, bir bor sen.

Xurram etgil, ko'nglum o'tin ayla boda birla tez,
Chun ko'ngul dardin oluvchi bir guli xummorsen.

Necha dedim uz ko'ngilni, senga andin chora yo'q,
Ey Avaz, ul dilrabodin dil uzolmay zorsen.



Avazbek Adhamjonov

11-sinf o'quvchisi



Gulzoda Turdaliyeva
11-sinf o'quvchisi

G'uncha

G'uncha quyosh chiqmasidan ko'zini ochdi, dunyoni ko'rди. Olam shu qadar maftunkor ediki... Shu payt yaprog'iga bir shabnam kelib tushdi.

– Salom, g'uncha!

– Salom, – dedi g'uncha, – sen qayerdan paydo bo'la qolding?

– Men osmondan, bulutlar orasidan tushdim.

Ular anchagacha suhbatlashishdi. Ammo birdan shabnamning yuzida qo'rquv aks etdi.

– Nima bo'ldi senga, shabnam?

– Quyosh bobom meni olib ketgani kelyapti.

– Nega? Men bilan qola qol, – dedi g'uncha.

– Men qolishni istayman, ammo ilojim yo'q!

– Men seni, albatta, olib qolaman! – dedi-yu, shabnamni yaproqlari qatiga yashirdi.

Quyosh shabnamni talab qila boshladi. Ammo g'uncha rozi bo'limgach, charchab uyiga kirib ketdi. Shundan buyon g'uncha faqat oydin kechalardagina ko'zini ochib, shabnam bilan miriqib suhbat qurar ekan.

Odamlar g'unchaning kechasi ochilishini ko'rib, uni "Namozshomgul" deb atay boshlabdilar...

Bahor yaqin...

(qatra)



Juda sovuq edi. Kimyo fani o'qituvchimiz: "Atseton muzlatadi", – deganini eshitib, xuddi ana shu moddani ustidan quyib yuborishgandek sezdim o'zimni. Issiq paltomga yana ham o'ralib oldim. Miyam yaxlab qolganday hech narsani uqmasdi. Ko'zimni yumdim, hattoki ular ham muz parchasiga aylanganday...

Xayolimdagi quyosh iliq nurlarini sochar, o'rik oppoq bo'lib gullagan, qushlarning turli-tuman nag'masi qulooqqa xush yoqardi. Sumkamni xonamga qo'ydim-da, maktab kiyimlarimni almashtirmayoq nur o'yin o'ynayotgan o'rindiqqa joylashdim. Yumuq ko'zimdan qizil rangga qo'shilib, iliqlik – go'yo mehr sizib kirar, butun tanam bo'ylab yugurib yurardi...

– Turdaliyeva!

To'satdan kelgan dag'dag'ali tovushdan cho'chib tushdim. Qadrdon o'rindig'imda emas, har tarafidan sovuqlik ufurayotgan xonada o'tirganidan qalbimni allaqanday noxush o'ylar chulg'ab oldi. Xayolim kunjaklaridagi nur ham g'oyib bo'ldi. Qiziq, birgina men qunishib o'tirardim, nahotki qolganlar muzlamayapti?! Hammaga diqqat bilan nazar tashladim: nafaqt xonadan, balki odamlardan ham sovuqlik taralayotgan edi...Qalbdagi bahorim taftini hech kim sezmasa-ya?

Ustoz savoliga aloqasi bo'limgan javobni ishonch bilan aytdim:
– Bahor yaqin!..



Yomg'ir

Mana, bugun yana yomg'ir yog'yapti. Onasini yo'qotib qo'ygan boladek ezilib-ezilib yog'yapti. Dalalardagi maysalar, daraxtlar, qisqasi, butun borliq yelkasidagi chang-g'ubor otli chophonini yechib, yengil nafas olmoqda. Asfalt yo'lidan mashinalar qayqqadir shoshib o'tadi. Yo'l chetidagi ariqda oynadek tiniq suv chuldiraydi. Yomg'ir ostida qolgan odamlar o'zlarini duch kelgan do'konga uradilar. Kerak-nokerak narsalarni sotib olish bahonasida yomg'irdan holi joyda biroz orom topadilar. Qish qilichini sug'urib kelayotgan bunday vaqtida faqatgina bir kuchukcha ivib ketgan holda yomg'irdan panoh izlab, har yoqqa alanglab javdiraydi. Qisqa-qisqa vovullaydi, to'g'risi, darmoni yetmaganidan shunchaki ingrab qo'yadi. O'zini goh u do'konga, goh bu eshik ostiga oladi. Yungi to'kilib, xunuklashib, oriqlab ketgan bechora kuchukchadan odamlar irg'anib, burnini jiyirgancha yana ochiq osmon ostiga quvadilar. U bir marta qisqagina ingrab qo'yib, yana yomg'ir hamrohligida o'ziga makon izlashga tushadi...

...Yana yomg'ir yog'yapti. Dalalardagi maysalar, daraxtlar, qisqasi, butun borliq yelkasidagi chang-g'ubor otli chophonini yechib, yengil nafas olmoqda. Yo'l chetidagi ariqda oqayotgan suv sho'rlik kuchukchaga jo'r bo'lgandek chuldiraydi. Yomg'ir go'yoki odamlarning ham ko'ngillaridagi, xayollaridagi, fikrlaridagi chirkinliklarni yuvib ketishga qasd qilgandek tobora avjiga chiqadi. Odamlar esa hamon panada...

...Allohnning inoyati bilan yana yomg'ir yog'yapti...



Mahsuma Ne'matova
11-sinf o'quvchisi

Gunafsha

Osmon yiroq, yer qattiq!
Qotib ketdim gunafsha!
Balchiqlarning domiga,
Botib ketdim, gunafsha!

Botmon-botmon dardimni,
Yelkamga ortib arang.
Alplar yurgan yo'llardan
O'tib ketdim, gunafsha!

Chegara yo'q, cheksiz-u,
Chekkan ohim keksiz-ku...
Bilmam, balki, savobim
Sotib ketdim, gunafsha!

Gunohim ko'p savobdan,
Bahorim kam sarobdan.
Hayot chizgan chiziqdani
Chiqib ketdim, gunafsha!

Osmon yiroq, yer qattiq...

Yoshlikning har lahzasi ga'zal...

Shamol esib uyg'otadi tonglarida,
Doim zavqqa to'ladirsan nafasidan.
Qancha davri bordir bilsang, bu umrning,
Yoshlik davri go'zal, do'stim, hammasidan.

Baxtga sirdosh, tog'lar bilan birodarsan,
Bir darding yo'q yuragingni qiynaguvchi.
Bulutlardan o'zib ketib yugurarsan,
Senga shiddat berar faqat yoshlik kuchi.

Bir qo'l cho'zsang, yetadursan samolarga,
Xayolotda kezadursan dunyolarni.
Orzularing cheki yo'qdir, o'ylab ko'rsang
Maylantirib suzadirsan daryolarni.

Qo'ling siltab ketadursan armonlarga,
Yiroqdirsan dard-u alam qafasidan.
Bu umrning achchiq-chuchuk paytlari ko'p,
Yoshlik davri go'zal, do'stim, hammasidan...



Ozodbek Zamzamov 11-sinf o‘quvchisi



Ollohyor Erkinov
11-sinf o'quvchisi



Yana yomg'ir quyar, yana quyosh yo'q,
Lek qalbda umid bor, borliqqa o'xshab.
Birdan simqoqqichim menga urar do'q,
Ooo, begona raqam, nahot bu o'sha.

Gapira boshlayman unga shu asno,
"Alo, ha, sog'inching o'rtadi jonni.
Lekin boshqa ovoz titranar: -Alo,
bu raqamimasmi Falonchixonni?

Unga adashganin aytaman ma'yus,
Bema'no qarayman nursiz hayotga.
Va asta u mendan kechganligi-yu,
Endi sevmasligi keladi yodga.

Yana yomg'ir quyar, yana quyosh yo'q,
Endi umid ham yo'q, yo'qlikka o'xshab.
Birdan simqoqqichim yana urar do'q,
O, begona raqam, nahot bu o'sha.





Yaqinimga

Dard kuylasa bulbullar,
Ishq ilohiy sas edi.
Qalbim qalbing quchganda
Kapalaklar mast edi.

Tuyg'ularing kamalak,
Bo'yоqchi qiz, bo'yоqchi.
Qarog'i qora bayroq,
Qaroqchi qiz, qaroqchi.

Til qoladi so'zlashdan
Dil o'lsa dilxonada.
Bu hayotda shaxsmiz-u,
Lek ko'nglimiz bola-da.

Quchoqlashsa ko'zimiz,
Uyalarmish chechaklar.
Senda butun xayolim
Oydin-oydin kechalar

Dard kuylasa bulbullar,
Ishq ilohiy sas edi.
Oqqushlarim uchganda
Malaklari mast edi.

Rahmatullayev Shoirbek
10-sinf o'quvchisi



Gulruh Rayimjonova
11-sinf o'quvchisi

Muhammad Yusufga bag'ishlav

Ko'klamga men emas, oshiq yuragim,
Mavjlanar har lahza to'lqinlar bilan.
O'zimdan oldinlab toshar yuragim,
Adirlar yuziga kulgichin qadab.

Bag'rimni ezadi tutqichsiz xayol,
Qalbning tog'larida o'ynoqlar sog'inch.
Ba'zan beparvoday o'tsam yonidan,
Qovog'in uygancha qarab qolar jim...

Ko'ksimda hasratin so'zlar kapalak,
Jayronlar ham unga bo'lar jo'rovoz.
Daryoni daryoday tutib turish ham,
Soddadil, kamtarin Muhammmadga xos.

Kuylayman! Har lahza ishqqa bo'lib mast,
Qizg'aldoq bag'rimni tirnar begumon.
Shoirni shoirday sevib kelgan yurt,
Senga tassannolar bo'lsin, Andijon!



Hamdamova Dilnura,
10-sinf o‘quvchisi

Majnuntol

Soy senga sirdoshdir yoki dugona,
Doimo xomushsan, ey sen mahzun tol.
Zulfinning ko‘rkida hilol parvona,
Shabbodaga sirin aytgan majnuntol.

Go‘zal gulchechaklar sening singilchang,
Ko‘ngling quvonchidan yaratgansan sen.
Maysalar devona ishqingda, bilsang,
G‘oyibona do‘sman yuragingga men.



Amirullo Ismoilov
10-sinf o'quvchisi

Men bahorni sog'inganim rost

Asli yuragimning o'g'risi bahor.
Mayin shamollari orom yurakka.
Muhabbat olovin solgan men kabi,
Uni deb uyg'ongan har bir kurtakka.

Momaqaymoq bo'lib sarg'aydim ba'zan,
Ko'klam shukuhini uyg'otdim tongdek.
Quridim, uzildim sarson sargardon,
Shamollar uchirgan bir to'p xazondek.

Bodom gullariga do'st bo'ldim, ammo
Ko'p o'tmay to'kilish qismatimga xos.
Bahor meni, balkim, sog'inmagandir,
Lekin men bahorni sog'inganim rost.

"Dil" radifli g'azal

Menga arzu hol etar tongdan beri ming pora dil,
Ishq suvidan yutmak istarmen, hanuz bechora dil.

Dilpazir devonalarg'a boqqisi kelmas qiyo,
Qilmag'ay parvo nechun oshiqlara dildora dil.

Azmoyish birlan umr o'tgay, ko'ngilda bor umid,
Anglagay jismim sening ishqiningi, yor, tobora dil.

Kecha-yu kunduz vasl istabki, ashk yog'gay base,
Topgamen bo'lsam-da mast, she'r yozgali bir chora dil.

Ey Amiriyy, ishqida toat ibodat aylagil,
Yetsta bas Yor vasliga, ul dashtida bir bora dil.

Bahor kelgin bag'rimga

Bahor gullaring-la kelgin bag'rimga,
Ko'nglimning eshigi sen uchun ochiq.
Endi yetyapman-a sening qadringga,
Bu qalbim sengadir bir umr oshiq.

Gullar iforini sochardi shamol,
Borliqni bezardi nafis g'unchalar.
Bu kun yuragimga nur sochar hilol,
Bahor, diydorlashish qiyin bunchalar?!



Marhabo Ibrohimova
10-sinf o'quvchisi

Jadid

Chang bosgandi o'sha zamon o'ylaringni,
Oltinlarni yashirmoqqa yetdi kuching.
Qadring uchun seni o'ylab yig'lagan dam,
Shahid bo'lib tuprog'ingni keldi quchgim.

Ammo hayot rahm qilmay, olib ketdi,
Seni deya yashagan mard o'g'lolnaring.
Qumlar to'sdi hatto quyosh nurlarini,
Shu qumlarni olib tashlar tug'yonlaring.

Mana qishdan o'tib, keldi bahorlaring,
Beshik quchib alla aytgan momolarim.
Tinmoqqa hech haqqimiz yo'q, yo'qdir haqqim,
Uyg'otuvchi yalla aytgan bobolarim.



Hilola Odilova
11-sinf o‘quvchisi

Navoiy

Laylining sochlarin o‘radi dunyo,
Shiringa dugona bo‘ladi tonglar.
Mehrga yetkazgan kemalarmi yo
Yurakka urilgan visoliy bonglar.

Majnunning baxtini quchadi mahkam,
Dillardan taralgan sevgi kuylari.
Farhod otga minar mag‘rur va shahdam,
Ko‘ngildan toshadi mardlik o‘ylari.

“Mahbub ul-qulub”ni o‘qiydi zamin,
“Lison ut-tayr”dan aytadi ertak.
“Sab’ayi sayyor”ni o‘qigan sayin
Muhabbat gullari uyg’onsa kerak.

Kemada uchadi Mehr – Suhayli,
Sevgi-la olamni qilmoq uchun lol.
Ey dunyo, pok iymon senga kerakmi?
Mana, Navoiyning “Xamsa” sidan ol!



For anything, I didn't told to worry
What do I do with an unburned heart.
Overload it into the body,
What do I do with an unflamed heart.
After all, I'm a poet. Everyone is
Unhappy, if they have not a heart.
The lamp does not always refered
If it doesn't burnt, if there is no light.

MChS

Sendan juda xafaman,
Eslamay qo'yding meni.
Simkarta alishtirib,
"Humans" olgandan beri.


Yodga olib turarding,
Chimyonda ko'chganda qor.
Yozaman desam doim,
Menda ham SMS bor.

Ammo javob yozmaysan,
Men yozganim biroz sez.
Senga atab yozdim she'r,
Sog'inganim, MChS.

Durdona Ahmadjonova
9- "B" sinf o'quvchisi



Durdona Inomjonova
11-sinf o'quvchisi



Bulbullar ham qutlaydi seni,
Quyosh boshin tortqilar asta.
Derazamdan boqsam shabboda,
Qo'llarimga tutdi guldasta.

Chiroyingdan lol, hayron bo'lib,
Bosh ko'tardi jajji boychechak.
Sen qalbimda chechaklar ochgan,
Hislarimni ortgan belanchak.

Kelgin, menga o'z o'rningni ber,
Bo'lib qolay bir lahza senday.
Murg'ak dilga baxsh etgan ilhom,
Bahor, chiroyingdan aylanay.



Hojiakbar Ahmadov
9- "A" sinf o'quvchisi

Axtaring

Hayot saboqlaridan,
To'g'rilikni o'rganing.
Yomonliklardan qochib,
Yaxshilikni axtaring.

Bo'ling haq yoki nohaq,
Haqiqatni axtaring.
"Manaman", – deganlardan,
Muhabbatni axtaring.

Qilmishlaringizdan siz,
Xatolarni axtaring.
Eng yaqin do'stingizdan
Sadoqatni axtaring.



Nurzoda Bahodirova
9- "A" sinf o'quvchisi

Farg'onamning baxtli qiziman

Lablarimda porlar tabassum,
Uvaysiyning o'chmas iziman.
Yuragimda faxr, iftixor,
Farg'onamning baxtli qiziman.

Mayda o'rilgan uzun sochim,
Do'ppisiz qolmaydi hech boshim.
Charaqlar kelajak quyoshim,
Farg'onamning baxtli qiziman!

Farg'oniylar o'tgan durdonam,
Dunyo ichra tengsiz, yagonam.
Mehribonim, ikkinchi onam,
Farg'onamning baxtli qiziman.

Egnimdag'i shohi atlas

Egnimda shohi atlas,
Boshimda milliy do'ppi.
Yirtiq shimplar kerakmas,
Kiygan qizlarni ko'rdim.

Atlasimiz ta'rifi,
Dunyo kezib yuribdi.
Lekin o'zimizda sal
Unutilib turibdi.

Dugonalar, kelinglar,
Kiyamiz shohi atlas.
Yurtimizga kelganlar
Ko'rib qilsinlar havas.

Tarjima

Jiyda gullaridan havo muattar,
Tabiat kuchiga o'qiyman tahsin.
Sochim, dimog'imga yashirgim kelar,
Shu jajji gullarning tenggi yo'q isin.

Shoxin sindirishdan tiyolmam o'zni,
Istamasam hamki qilmoqni uvol.
Ba'zan yaxshi narsa yaxshiligidan,
O'z umriga o'zi bo'larkan zavol.

Saida Zunnunova she'ri



Zuhraxon Ahmadjonova
9-“B” sinf o‘quvchisi

The air is a fragrant with oleaster flower,
I admire a power of temper.
I want to hide it in my heart, breathe,
Let these incomparable little flower.

I can't restrain myself without breaking offset,
I don't want to do that loss.
Sometimes a good thing out of goodness,
The decline of his own life will be.



Shoiraxon Omonova
9- "A" sinf o'quvchisi

Osmoñ yorisha boshlaydi sekin,
Bulutlar ortida ajib o'lka bor.
Meni anglamagan cheksizliklarga
Hali ham sepini yoymadi bahor.

Maysalar yuzida shabnam raqs tushar,
Daf'atan ko'nglimga sig'maydi ranglar.
Tongning go'zalligin chizmoqlik uchun
Musavvir, eng yaxshi bo'yoqni tanla.

Shoir, saralab qo'y so'zlarni durkun,
Tanda jon titrasin, qolmasin bedor.
Tongning yuragida, eng yaqin osmonlarimda
Bulutlar ortida ajib o'lka bor.



Kamolaxon Ma'rufova
9- "A" sinf o'quvchisi

Stullar ham dod deydi,
Bolalarning dastidan.
Murvatlar yotar chiqib,
Qilgan ishi kasridan.

Lek bizlarni o'ylaydi,
Kasal bo'lib yo'talib.
Der: "Shunday bolalarni
Turibman-da ko'tarib".



Muqaddas Muhammadaliyeva
10-sinf o‘quvchisi

Buyuk muhabbat sohibi

Turkiy tilni tanidi dunyo,
Turkiy tilda zarhal asarlar.
Navoiydan o‘rgandik hayot,
“Xamsa” sidan terdik gavharlar.

She’r dunyosi bag’rini ochsa,
Fido bo’lsak, yuraklar tayyor.
Chin sevgiga yo’l topmoq uchun
Zo’r mayoqdir “Sab’ayi sayyor”.

Zabonimiz negizi – “Xamsa”,
Biyron tilga loldir ahli she’r.
Olam aro yagona tilsim –
Muhabbatni kuylar Alisher!



Fazliddin G'ulomjonov
9-“A” sinf o‘quvchisi

Bolir Zokirovga bag‘ishlov

Ko‘ngildan jaranglar dilgir ohanglar,
Baxt uchun kuylasa, butun olam jim.
Mayin ovozi-yu quvnoq kuyiga,
“Maftun bo‘ldim”.

Sarlavha topolmay lolman she’rimga,
Sukunat chiqadi baribir g’olib.
Hozir she’r yozaman, “Ra’no”ni tinglab,
Aqldan ozib.

Vujudim – tabiat, yurak – musiqa,
Sevgidan tug‘yonman, sevgidan mayman.
Yurak bir ezilib, xun bo‘lganida
“Seni eslayman”.



Mirjalol Safarov
9-“B” sinf o‘quvchisi

Konstitutsiya

Hayot – kurash, sinovlar bisyor,
Olg‘a intil, ey sen, odamzod.
Dunyolarga sig‘masa qalbing,
Dardlaringni jarliklarga ot.

Shior, angla ozodlikni sen,
Yovuzlikni shunda bilmassan.
Sen hech kimdan qolishmaysan, do’st,
Sen hech kimdan kam ham emassan.

O’zingni tut, huquqingni bil,
Asragin sen or-nomusingni.
Yuragingning to’rida tursin,
Baland tutgin o’z Qomusingni.



Elbek Muhammadjonov
8-“A” sinf o‘quvchisi

Yomg’ir

Chak-chak etib tarnovlardan yog’di yomg’ir,
Senga tashna nihollaring qondi, yomg’ir.
Sen ko’klamning sababchisi obi hayot,
Dehqon bobo mehnatining duri – yomg’ir.

Ariqlarda to’lib-toshib yog’gin, yomg’ir,
Ko’p haddingdan oshmay, sekin yog’gin,
yomg’ir.
Tabiatning jondoshisan – mehriboni,
Seni kutgan dalalarga yog’gin, yomg’ir.



Bibihojar Abdug'aniyeva
8-“A” sinf o‘quvchisi

Anvar Obidjonga bag‘ishlav
(badiha)

Olmaniyam g‘ajiydi,
Holvaniyam g‘ajiydi,
Desam: “Nechta tishing bor?”
Deydi: “Nima ishing bor?”

Ertadan to kechgacha
Yeyishdan tinim bilmas.
Go‘yo mitti echkicha,
Foydali bir ish qilmas.

Kun tartibi doim shu:
Tinmasdan yeysi faqat.
Mening singlim yaqinda
Bo‘pqolar shirin ovqat.



“Papka” ning deganlari

Nega ba’zi bolalar,
Avaylamas hech meni.
Doim xafa qilishar,
Qiynab erta-kech meni.

Axir savlatli, go’zal,
Qulay bo’lsam har joyda.
O’z qadrimga yig’layman,
Qoldirishsa gar loyda.

Lekin sho’x bolajonlar,
Mening qadrim bilmaydi.
Kir joylarga qo’yishni,
Hech ham kanda qilmaydi.

Yana ko’p narsalarni,
Ayamasdan solishar.
Yoki meni bir bo’lsa,
“Ryukzak” deb bilishar.

Hoy, tartibli bolalar,
Iltimosim bor sizga.
Kaminani bus-butun,
Qoldiring ukangizga.

Dilobarxon Abdulfattohova
8.-“A” sinf o‘quvchisi



Gulsanam Madrahimova
9-“A” sinf o‘quvchisi

Ona

+@mail.ru +@mail.ru

Ko‘zlardagi nurlar quyoshdan yorqin,
Xayolim ketadi faqat siz tomon.
Mehrning olamin kezayotganda
Men sizni topoldim, onajon.

Qo‘llaringiz ushlab, bo‘laman sarmast,
Sizga ta’zim qilsin butun bir jahon.
Xayolimga naqsh chizibsiz qarang,
Naqqoshim, mehribon, jonim onajon.

Nurli yuzingizni ko‘rganda, ona,
Muhabbatni sezgum ko‘zlarda shu on.
Qo‘lingizga gullar tutaman yana,
Bayramingiz bilan, aziz onajon!!!



Dilshodabonus Matkarimova
9-“A” sinf o‘quvchisi

Ona



Qo'llaringiz qadoqlarga to'ldi, ona,
Bu dunyoning tashvishi-yu kamlaridan.
Yoningizga faqat pul deb keladigan
Farzandingiz injiqlig-u g'amlaridan.

Sochingizga oralabdi bedor tunlar,
Sizni buncha qiynamasa bebosh hayot.
Bobom eslab ko'zingizdan yog'ar yomg'ir,
Qiyinchilik quvonchingiz etdi barbod.

Birga quray orzulardan baxt qasrini,
Har burchakka ilib qo'yay yurakkinam.
Qo'llaridan tushirmasdan bir umrga,
Ka'balarga olib boray kerakkinam.

Farishtalar qo'llaridan tutib har dam,
"Alloh" deya qadam qo'ying jannatlarga.
Rasululloh do'sti bo'ling har qadamda,
Yo'llaringiz bog'lab qo'yay omadlarga!



*Erkin Vohidovning “Hamma shodlik
senga bo’lsin” g’azalining lojik tiliga
tarjimasi.*

Hojiakbar Zinatshoyev
11-sinf o‘quvchisi

Hamma şodi bar tu boşad

Hamma şodi bar tu boşad, har sitam, zori ba man.
Hamma dildori barojat, hamma xuştori ba man.

Tu girifti çoni manro, man giram dardi turo,
Tu salomat boşi har dam, hamma bemori ba man.

Bar tu boşad husni zebo, işqi ū bar man şavad,
Kori xunxori barojat, mehr pojdori ba man.

Rohati olam barojat, deh azobaşro ba man,
Hamma oromaş barojat, hamma bedori ba man.

Tu giri koşonahoro, man giram majxonaho,
Hamma şodmoni barojat, hamma xummori ba man.

Nurfişon ruzho barojat, on sijah şabho ba man,
Bar tu boşad hamma gulşan, daştı on xori ba man.

Bar tu baxşad, şeъr Erkin, pora kardan kori tu,
Kasbi inkori barojat, ajbi iqrori ba man.



Muslimaxon Kamoldinova
8- "A" sinf o'quvchisi



So'yloq tishli bo'riman,
O'rmonning eng zo'riman.
Mendan qo'rmoqlik bekor,
Siz bilan do'st bo'lgin bor.
Keling, do'stlar, o'ynaymiz,
"U-u-u-uv"lab qo'shiq kuylaymiz.



Nilufar Ergasheva
11-sinf o‘quvchisi

.....

Keng adir!

Lolazor!

Lolalar qo‘yniga yugurib boraman
Nenidir yo‘qotib qo‘ygan boladek.
Men kezib chiqaman adirni,
Bo‘g‘zimga tiqilar achchiqlik!

Va menga bo‘ysunmay qo‘yar ko‘zlarim,
Lolalarga qarab yig‘layman,
Go‘yoki padari o‘lgan odamdek
Dod solib yig‘layman chidolmay.
Dod solib yig‘layman holimga,
Dod solib yig‘layman kimnidir izlab,
Negadir lolalarga qarab yig‘layman,
“Behbudiyning qabri qayda?” deyolmay.
Hammasi ichimda qolib ketadi,
Hech kim surishtirmas, bilgisi kelmas.
Tuproqqa qo‘shilib, yerga aylangan
Behbudiyning ruhi tushimga kirib:
“Yurtda padarkushlar izg‘ib yuribdi,
Yurtni padarkushdan tozala”, – deydi.
Yurtda imonkushlar, vijdonkushlar achib yotibdi,
Besabab uzilgan lolalar singari...
Lolalar Cho‘lpon ko‘zidagi cho‘g‘ga o‘xshaydi,
“Yig‘indi gaplar” dek yig‘ilgan bir kuch!
Lolalar – Fitrat tomirida oqqan erk qoni,
Mening tomirimga sig‘may ketadi!
Balki, shu sabab ham yomon yig‘larman,
Lolalarni ko‘rgan mahalim!
Lolalar!
Besabab uzilgan lolalar...



Nodira



Nodira,
bu soylar kimning ko'zyoshi,
Qaysi momomizning yodlari ekan?
Nodira, bu soylar kimning sochlari,
Qaysi bir bevaning dodlari ekan?

Shunday bir rohatni, bir holat buzdi,
Sodda ko'ngil bilan ko'rmasga yo'ydik.
"Sevaman" deb aytar bir-birlariga
Bu izhor shunchaki xushomadgo'ylik.

Shovqin-suron solib oqayapti soy,
Ajdodlar nomidan aytib qasida.
Nimalar haqida kuylayapti, oh!
Balki dodlaridir... Ha! Erik haqida!

Tomirimga sig'may ketar qutlug' qon,
Shiddati soylarni bosib ketmasin.
"Sevgi" deb tarixni tanimaganlar,
Men Temur nasliman, – demasin!
Navoiy nasliman, – demasin!
Ulug'bek nasliman, – demasin!

Sochlari soy bo'lib to'lg'anayotgan
Qaysiki u beva – Vatan atalmish!
Yori jasoratli Rustammikin yo
Tug'in yelkasida tutgan Alpomish.



Arabboy Ahmadjonov
11-sinf o'quvchisi

Jilg'a

Tog'larning bag'rida tug'ildi va lek
Tuyg'usi tog'larday balandparvozmas.
Tabiat kuyiga quloq tutadi,
Lek o'zi o'zining kuyi bilan mast.

Boshda ulg'aytirdi tog'lar va yerga
O'z yo'lin topsin, deb qo'ydi umidvor.
Ortidan ona tog' ergashib qoldi,
U to'yib qaradi Vatanga bir bor.

Goho avom aro o'zin past olib,
Gohi portlab chiqdi samo soyiga.
Oxiri jon berdi, yerga qo'yib bosh,
Purviqor tog'larning jannat poyiga.



Zokirjonova Muxlisa
11-sinf o‘quvchisi

Farg’onam
(qasida)

Yuragimning qo‘ri deymi, ko‘zlarimning gavhari,
Salqin-salqin shabbodalar kezib yurar sarsari,
Osmonlarin bezab turar boboquyosh zarlari,
Oymomosi oynasidan kulib boqqan, Farg’onam!

Oltin vodiy, oltin zamin, tuproqlari guliston,
Hurmatdadur, e’zozdadur bog’bon-u bobodehqon
Shirin-shakar mevazorlar go’yo ochiq dasturxon,
Olmalari anhorlarda o’ynab oqqan, Farg’onam!

Bodomgulli ko‘ylak kiygan onajonim-o’zingsan,
Suyib-suyib erkalatgan mehribonim-o’zingsan,
Uvaysiysan, Nodirasan xushzabonim-o’zingsan,
Oy qizlarin chakkasiga rayhon taqqan, Farg’onam!

Mehrim jo’shib yozgan she’rim ko’nglimdan bir sadodir,
Yalpizlaring, maysalaring gulzorlarga ziyodir,
Senga borim, muhabbatim, senga jonim fidodir,
Yulduzlari osmonidan kulib boqqan, Farg’onam



So'nggi yapraq



Hulkaroy Po'latova
9-sinf o'quvchisi

Boshim uzra to'kildi xazon
Go'yo yomg'ir tomchilaridek.
Yaproq rangi sariq va alvon,
Yuragimni chulg'aydi hadik.

Shamol turdi, juda ham qattiq,
Yomg'ir go'yo unga qasdma-qasd.
Yuragimga sanchilar og'riq,
So'nggi yapraq to'kilmasa bas!

Shamolga ham dosh berdi yapraq,
Yomg'ir uni yupatdi bir dam.
Kuz ham tugab, kumush qish keldi,
Yaproq sira tushmas shoxidan.

Qishda ayoz unga kun bermas,
Yaproq shamol bilan kurashar.
To'fonlarni endi u sezmas
Yuragida mangulik yashar.

Bahor turdi nafis uyqudan
Qish yengildi, g'olib keldi barg,
Qalblar yonar ajib tuyg'udan,
Salom berib kirib keldi mart.

Daraxt shoxi quvondi birdan,
Kurtak yuzin ochgan shu zamon.
Panoh topdi yapraq-chi yerdan,
Qovjiragan yuzi zafaron.

Yerga tushdi eng so'nggi yapraq,
Kurtaklarga berdi joyini.
Umr o'tar, yasharar zamon,
Bu silsila, hayot doimiy...

Vatan haqida

Neni sevdim, kimni sevdim
Keng joy berib yuragimdan.
Ay, Jannatga o'xshaganim,
Saning isming tilagimda.

Maddohlaring qo'yсин bilib ,
Aytilmasdир buyuk sevgi.
O'zing tolib, o'zing g'olib,
Sensan manim nurli tonggim.

Elim demas, yot kimsalar
O'zlaricha xursand edi.
Yoqtirganing ne desalar
Vatan dedim, Vatan dedim!

Yashab ketdi xayollarim,
Yashnab ketdi bir o'ylasam.
Shuncha yilki, anglaganim-
Borlig'imda sen mujassam.

Yaxshiyamki Xudo bergen
Muhabbatim chuqur botdi.
Bilasan-ku Xudo - mergan
Chap ko'ksima sani otdi!
Chap ko'ksima sani otdi!

So'ng tuyg'uga sayqal berdim:
Eng buyuk ishq- o'zingdirsan.
Zabonlarim qolarmi jim,
Yuragimni ohib aytsam....

Mehri-daryo bo'lib oqqan
Tanho maskan-azim yurtim,
Ta'rifingni so'zlamoqqa
Tuproqlaring gullayotir,
Tuproqlaring gullayotir!



10-sinf o'quvchisi
Abduhamidova Umidaxon



Ona



Yuzlaridan oftob nuri yog'ilgan,
Qadamida ungan sabr-u matonat.
Erta sahar quyoshni ham uyg'otgan,
Tog'lardan zo'r ayoldagi jasorat.

Mehri bilan uyg'un qilgan har ishi,
Tafti issiq- o'zi yopgan nondayin.
Kulib turgan oy yuzini ko'rganda,
Qalb yorishar, so'zi misli boldayin.

Pok qalbiga yashirib g'amlarini,
Katta-yu kichikka birdek parvona.
Hayotning ma'nosi ketmasin uchun
Qadrini ko'taring, bu zotdir – ONA



MUHAMMAD RIZO OGAHİY NOMİDAGI İJOD MAK TABİ





Oh, Xorazm!
Suyukliging rostdir chindan,
Buyuklarga beshikliging rostdir chindan.
Jasorati dunyo kezgan Manguberdini
Mangulikka yuborganing rostdir chindan.



Oh, Xorazm!
Dod sol bugun, "Manguberdini topib ber", - deb.
O'g'lolnaring shijoatin ishga solsin.
"Jaloliddin doim olg'a boshlardi", - deb,
Yurt chorlasa, qo'llariga yalov olsin!

Ziyoda Saparbayeva
10-sinf o'quvchisi


Oh, Xorazm!
Yengilmagin quzg'unlarga,
Burgutlarining bor-ku mag'rur uchib yurar,
Bo'yin egmayadolatsiz tizginlarga,
Erk bayrog'in qanotida quchib yurar.

Oh, Xorazm!
Jaloliddin ne qilgaydir,
Yaqinlari diliqa tig'sanchib tursa,
Turkon ona shonin barbod qilmoq istab,
Oqshoh ini bir taxt uchun g'ajib tursa.

Oh, Xorazm!
Shoning ko'tar, shuhratingni ko'tar baland,
Kimlar kelar bu dunyoga, kimlar ketar.
Mardlaring dashmanga bosh egmas sira,
"Asl mard Vatanga tiz cho'kib o'tar".

Oh, Xorazm!!!
Dilginangdan ketsin g'ubor!
Farzandlaring na'rasiga solgin qulqoq:
"Tingla, Vatan, qonimizda Manguberding
So'nmas shijoat-u g'ayrati uyg'oq!"





Qishloq



Gangib qolgan o'ylarim uzun,
Xotirlayman bolaligimni.
Oyoqyalang yugurib beun,
Changitganim - ko'chalarimni...

...Meni qumsab qolibdi qishloq,
G'am, sukunat cho'kdi dilimga.
Ko'p hayallab qolibman uzoq,
Achindim ko'p o'tgan yilimga.

Ko'zlarida mehr balqigan
Insonlarin sog'indim juda,
Anvoysi gul hidi anqigan
Bog'im esa bugun uyquda...

O'zgaribdi ba'zi odamlar,
Pul topibdi axir sal ko'proq.
Asta-asta tashlab qadamlar,
O'zimni ham qilaman so'roq...

"Men boraman hamon tentirab",
Olis qishloq...Olis bolalik...
Mahtal dilim qoldi sensirab,
Salomlarga yo'qoldi alik.

Yurak aytar: "Bas qiling!!! Eski
Qishlog'imga uchib boraman.
Daraxt bargdan qanotlar yasab,
Bolalikka ko'chib boraman".

Parvozimga to'siq yo'q! Bo'lmas, -
Deya so'ngsiz qalbimda titroq.
Ne o'zgarsa, o'zgarsin, ammo
O'zgarmagin, qishloq, iltimos!!!



O'zimni topolmayapman



Baxt nima deb so'ramang mendan
Yoki baxtni talab qilmang ham.
Axir o'zim baxtlar axtarib,
Baxtni topdim baxtsizliklardan.

Quyoshga qaradim jilmayib,
Ko'zimga yosh keldi nogahon,
Bulutga qarasam xo'mrayib,
Yig'laydi bulut deb: "Ko'p armon".

Atrofga qarasam qayrilib,
Yaproqlar shamoldan arz qilar.
Daraxtga qarasam shoxlari,
Qish uchun barglardan qarz qilar.

Boqaman bu gullar begunoh,
Yo'q qayg'u, yo'q alam, yo'q ozor.
Bechora gullarim yig'laydi,
Bislarni kutar deb "gulmozor".

Baxtni topdim, chinakam baxtni,
Lek dunyoga boqolmayapman.
Har nafasda izlayman, hali
"Men o'zimni topolmayapman"...



Kechir, bahor...




Kechir bahor, ishqim tushgan mening kuzga,
Shu sap-sariq tuyg'ularga oshnoman men,
Alvon hisni dunyolarga uloqtirib,
Sukunatga, jim dillarga tashnaman men.

Kechir, bahor, mening ishqim kuzga tushgan,
Gullar emas, huv sap-sariq barglar menga.
Baxtlarim ham faqat kuzgi bog'ni quchgan,
Barglarimdan berayinmi, bahor, senga.

Axir, netay, ishqim faqat kuzgi bog'da,
Xazonlarga qorishiblar ketganman men.
Yuragimni ko'rmadingmi o'sha tog'da,
Yuragimsiz manzilimga yetganman men.

Kechir meni, iltimosim, kechir bahor,
Sof hislaring yarim qalbga sig'may qoldi.
Yuragimda uyg'onsa-da, baxt va ohor,
Dardlarimdan tig'lar qoldi, dog'lar qoldi.

Kechir, bahor...



Dil izhor...



O ustoz!

Siz sabab o'zligim o'zimga qaytdi,
O'zimni qidirib topdim oxiri.
Dunyoga yurgandim dardimni aytib,
Bugun baxtlilarning bo'lism mohiri.

O ustoz!

Samoviy hislardan ketdim,
Osmoniy hislarni to'kdirib cho'llarga,
Bugun lek ro'yoviy izlardan ketdim,
Baxtim qolmasin deb sovuq do'llarga...

O ustoz!

Ismingiz yozgim keladi,
Lekin...
Lekin yozolmayman axir o'zini,
Shaddod ruh bu siz deb qaratar sizga,
Qog'ozga yozilgan CHIN BAXT so'zini!!!



Gulmira Ravshanbekova
10-sinf o'quvchisi

Sohir so'zga muhabbat

Ko'nglimdan joy olmish sohir bir navo,
Boshqalar bir dunyo, men o'zga dunyo.
Bir ojiz qalamim qo'lida hamrohim,
So'zning ishqini meni qilmoqda ado.

Yaralgandan beri bu ko'hna ochun,
Qancha oshiq ash'or bitdi sen uchun.
Men ham so'z zargari bo'lmoq istayman,
So'zning ishqini meni qilmoqda zabun.

Yuzlanaman senga dilda armonim,
Sen mening borlig'im, jonim, jahonim.
Yashayman to abad sen bilan birga,
She'riyat atalmish nurli bo'stonim.

Bu gulshanning shoh-u sultonlari bor,
Men oshiqning dilda armonlari bor.
Kun kelib she'rxonlar degaylar toki:
"Gulmiraning go'zal zabonlari bor".





Vatanga



Har tongim yorug'dir Vatan bag'rida,
Hayot ishqisi bilan urar yuragim.
Qalbda orzulardan totli nashida,
Vatan rishtasiga payvand tilagim.

Qalbimda barq urgan ishqim Vatanga,
Ko'zimga to'tiyo go'zal diyormi.
Bayotim bulbuldek qo'nib chamanga,
Tarannum aylagay ko'ngilda borim.

Men so'z sohiblari avlodidirman,
Nodira, Uvaysiy, Zulfiya qizi.
Moziydan merosim she'r zavqi bilan,
Quvvat olib borar yangi ildizi.

Mening taqdirimdir, ey ona Vatan,
Sening iqbol sari qo'ygan qadaming.
Yorug' tonglaringda bitib har satrim,
Baxt quyoshi porlar baxsh etgan damning.



Ota



Ota...

Tenglashmoqda sizga bo'ylarim,
Kundan kun yuksalib, yurtlar kezyapman.
Ammo taftingizni unutganim yo'q,
Iliq mehringizni qalban sezyapman.

Ota...

Bo'y cho'zgandir biz ekkan daraxt,
Bahor, kuz tinmayin hosil bergandir.
Yoki ozor berib qo'ydimi bir kas?
Shamollar barglarin yerga to'kkandir.

Ota...

Dil mushtoqdir bir so'zingizga,
"Qizim" deyishingiz kutar u faqat.
Hayot bir maromda o'tmaydi hech ham,
Sinashta dunyoda sinaydi toqat.

Ota...

Tenglashmoqda sizga bo'ylarim...



Charosxon Tillayeva
10-sinf o'quvchisi



Jimjitlik qa'riga singgan xayollar
Hazin bu dilimga juda zo'r sherik,
Bosaman, bosaman asta qadamlar,
Qadamimga, vujud, endi sen ko'nik.

Dengizga qo'shilar achchiq ko'z yoshim,
To'lqinlar, olinglar, bag'ringizga, oh!
Biyron bu tillarim sukutdan toldi,
Manzilsiz makonga olib ketinglar.

Aldamchi dunyodan yurak yotsirar,
Samoga tikilar ko'zlarim bejo.
Uchirar sochimni tinmay shamollar,
Shamollar istagim qilsaydi bajo.

Shafaqqa singsaydim, o'sha shafaqqa,
Shabnamlar yuzimda chalsa kuyini.
Oqqushlar patida qayta uyg'onsam,
Makon etib olsam shodlik uyini!





Yomg'ir tarovati

+---+---+---+---+---+---+---+---+---+---+---+---+---+---+---+---+

Yomg'ir yog'ar samodan rizq-ro'z bo'lib,
Yog'ar yana bir bor ko'ngilni xushlab.
Sevinadi dillar, jo'shar yuraklar,
Qololmas hech kimsa qo'lidan ushlab.


Yashil maysalarda o'zga tarovat,
Mayin shabadalar yelar falakda.
Jo'sh urar qalblarda shirin harorat,
Topolmay unga so'z shoir halakda.

Oh! Ona zaminning yoqimli hidi,
Ko'ngilni quvnatar, dilni yayratar.
Nega bulbullarning nozikdir didi,
Yoqimli kuylarin buncha sayratar.

Balki, osmondag'i tomchilar asli
Bir mahzun yurakning faryodimasmi?!

Qalblarni larzaga keltirar sasi,
Shoh va shoir Bobur nidosimasmi?!

Qalbimning to'rida nafis bir joyni,
Sening iforingga to'ydirib qo'ydim.
Yomg'ir tomchilari to'ladirar soyni,
Toza suvlaringdan ichib men to'ydim.



Hayot maylari

.....

Hayot varaqlarin ko'zdan kechirib,
Qalbdagi g'uborlar barin o'chirib,
Sadoqat, oqibat malikasini,
Topdim o'zbegimning Zulfiyasini.

Nazm bog'idagi bulbulim Sizsiz,
Ezgulikka tashna qalbim quvonchi.
Mung'aymagan umr bog'bonidirsiz,
Izdoshlar ishongan tog'dek suyanchi.

Otashin qalblarga ko'chgan chaqinsiz,
Nafis gullardayin yurakka yaqin.
Gul-u rayhonlarning iforlariday
Bahorda yurakda chaqnagan chaqin.

Chinor o'z sabrini bergenmi sizga?
Matonat timsoli - tilda dostonsiz.
Eng yorqin va jo'shqin tuyg'ular bilan
Qalblar intilajak yuksak dovonsiz.


Yana bahor keldi sizni so'roqlab,
Biroz sukut ichra o'ylanib oldim.
Sizni so'roqlaydi intiq yuraklar,
Javoblar berolmay charchadim, toldim.

O'chmas timsolingiz hech tildan qo'ymay,
Nazm gulshaniga men kirib qoldim.
Endi ko'ngil uza olmay bu bog'dan,
She'riyat bo'stoni ichra yo'l soldim.



Mohichehra Qadamova
10-sinf o'quvchisi





Saodat Yoqubova
10-sinf o'quvchisi

Sozim



Gohida ko'ksimga sig'mas bu yurak,
Sening-la yangraydi qo'shiqlar, tilak.
Yuragim egasi sen bo'lsang kerak,
Sening-la barhayot bo'lgay ovozim.

Sozim, nolishingdan jonlanadi tosh,
Doimo yonimda sen menga bir sirdosh.
Sensiz tashvishlarga bermasman bardosh,
Sening-la barhayot bo'lgay ovozim.

Mahzun sadolardan eriydi ko'ngil,
Jonga jon singadi, huzurlanar dil.
Sendan ayro hecham yasholmasman, bil,
Sening-la barhayot bo'lgay ovozim.

Sen-la umriboqiy ijodim mangu,
Yonimda hamrohsan, menda yo'q qayg'u.
Qalbimga solasan bir ezgu tuyg'u,
Sening-la barhayot bo'lgay ovozim.



Orzularim



Orzularim osmondir mening,
Sig'dirmagan oy va quyoshni.
Orzularim ummondir mening,
Charchamagan silliqlab toshni.

Orzularim yulduzdir mening,
Shu'lalanib boqadi yerga.
Orzularim irmoqdir mening,
Nasib qilsa, solurman she'rga.

Orzularim quyoshdir mening –
Zulmatda ham socholur yog'du.
Orzularim - kapalak mening,
Orzularim - nimjon bir ohu.

Orzularim she'r ekan mening –
Haybatidan arslon qo'rquvchi.
Orzularim sel ekan mening –
Tog' bag'ridan sizib oquvchi.

Orzularim – laylakqor mening,
Yer ahliga baxt ulashuvchi.
Orzularim – oq tulpor mening,
Bulutlarga chin do'st bo'lguvchi.



Nargiza Matqurbanova
9-sinf o'quvchisi



Jonim Vatan



O'ttiz yoshli navqironim, yashna gulgun,
Bundan ulug', bundan aziz yoshta to'lgin,
Muqaddas kun: soz, tantana, bayram bugun,
Ravnaqingga ko'z tegmagay, xonim Vatan!

Ibn Sino qir-dalangdan ayrilmadi,
Beruniylar mol-dunyoga qayrilmadi,
Xorazmiylar, Farg'oniyalar tin bilmadi,
Ilm-u fanga qalbi oshno, shonim Vatan.

Qanot bo'lding, Jaloliddin qildi parvoz,
O'tmishingdan kelayotir o'tli ovoz –
"Amudaryo bo'lib qoldi endi sayoz",
Daryolaring har tomchisi – nonim, Vatan.

Baxtim manim bog'langandir shu bog'larga,
Qizg'aldog'i gilam bo'lgan hur tog'larga,
Temur bobom so'zin bitgan peshtoqlarga,
Sohibqiron tug' tikan oshyonim Vatan!

Ulug'beging yulduzlari ko'kda porlar,
Oqshom payti boqsam ajab, samo chorlar,
Samarqandda erigandir sovuq qorlar,
Mard-u donish farzandi sultonim Vatan!

Lutfiylarni maftun etding o'z kilkiga,
Navoiyni sulton etding so'z mulkiga,
Qalam tutding Nodiraning pok ilgiga,
Daholarga beshik bo'lgan jonim Vatan!

Buxoriyning hikmatlari tumor dilga,
Mashrablarling g'azallari naqshdir tilga,
Ovruponing shoirlari lol Bedilga,
Shoirlari qaynoq yurak qonim Vatan.





Shoh Boburga diydorginang bo'ldi armon,
Bitta tilim handalaging dardga darmon,
Sog'inchlardan yozgan she'ri xirmon-xirmon,
Bir kaftgina bo'z tuprog'ing – donim, Vatan!

Qodiriylar oqizdilar yerga yoshin,
Sening uchun kundalarga qo'yib boshin,
Chidading-ku, otsalar ham tuhmat toshin,
Sabring sening tog'dan ulug', konim Vatan.

Cho'lponginang ko'kdan senga boqayotir,
Tomirlarda toza qonlar oqayotir,
Haqiqat ham bizga endi tatiyotir,
Adolat-chun jigar-bag'ri qonim Vatan.

Olimjonga baxsh etgansan cheksiz shodlik,
Bahor gulin iforlari qanday totlik,
Ko'ngil qushin suyganidir xush ozodlik,
Xalqqa hamdam, dildagi tug'yonim Vatan.

Zulfiyaning anduhiga bo'lding dilkash,
Uning birla yuraklaring yondi – otash.
Keng qalblari cheksiz ummonlarga tutash,
Qanoati toshdan qattiq jonim Vatan.

Bulog'ingda suv bo'layin to'lib-toshib,
Qir-dalangni bir quchayin tog'lar oshib,
Doim senga talpinayin shoshib - shoshib,
Sen-la birga bo'lsam, baxtli onim, Vatan!

Osmonga qo'l cho'zsam agar, bo'lding narvon,
Buyuk maqsad sari borar buyuk karvon,
Sening shirin tiling bilan tilim ravon,
Menga qanot nurli bir bo'stonim Vatan!

Farzandlaring bel bog'laydi xizmating-chun,
Avlodlaring ko'rsatayotir ilm kuchin,
Sening uchun sir berayotir ko'hna ochun,
Kamarbasta bo'lay senga, jonim Vatan.





Xorazm...
Tuproqqa to'kilgan
qadamlar....
Sabolar esganda olisdan
Eslatar suronli yillarni....
To'xtanglar, tinglanglar odamlar...
Ey Gurganch...
Ey Gurganch,
Guvohsan sirlarga,
Sodiqlik, xiyonat ko'rgansan.
Bilaman, xohlamay janglarni
Qilichlar sopini ochgansan...
O'tmishdan yog'ilar nidolar:
"Ey sulton, qalbga g'am qistirma.
O'zingga ehtiyot bo'lgin-a,
Nisoda kutadi pistirma..."
O'ttiz uch bahorning guvohi,
Har bahor chechagin berdimi?
Mo'g'ullar umrini yedi-ku,
Jaloliddin Manguberdining...
Vujudi olovga aylangan,
Vatan-chun yuragi ming kesim...
Haqiqiy mardlarning gapidir,
"Boshingni yesa-da, mard yesin...”*
Samani ot emas, kuch-qudrat,
Yolini mo'jiza taraydi.
Qanoti - Boychibor egizi,
To'riqlar havas-la qaraydi.
O'n bir yil....
Qon yutib, jon berib
o'tilgan umr.
Cho'llarda, suvlarda
kechilgan hayot...

Eslatmish Vatanga muhabbatini
Shundaykan,
Bitilgay
nomiga bayot.
Ey o'g'lon,
o'zing dovon oshding
sobit qadam-la,
Endi noming oshgay asrlar!
Haqiqiy farzandin
unutmaydi xalq,
Unutilib ketmas asllar!

*Shahriyor Shavkat so'zi



(O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov xotirasiga)

Asrlarni titratadi oliy so'z,
Haqiqat deb yuguradi ikki ko'zim.
Insoniylik bo'sag'asin hatlab o'tay,
Axir...

inson o'zim,

inson o'zim!

Yuragimning tub-tubidan otiladi

Vulqon so'zlar,

Olov so'zlar,

Yalov so'zlar...

Ko'zlarimning savodida

o'ynashadi,

Gulxan kabi lov-lov so'zlar...

Yurtim, senga yarashmaydi

havoyi so'z,

Soxtalikning mevalari bo'lар taxir.

Oddiygina, sodda xalqim yuragini -

"O'zbegin"ni kuylamasam,

netay axir?!

Tog'lar aro yoyib chiqar

Qaqnus tashlab ketgan

o'sha sirli patni.

Qarog'imda avaylayman, asragayman,

Quyosh menga yozib ketgan cho'g' dastxatni...

Yigirma yil dilda so'z tutmoq,

Yigirma yil asramoq uni...

Qanday mushkul tilga chiqarmoq

Quyosh ufqqa tikilgan kuni.

Xudoyimdan berilgan in'om -

Shoir umri mo'jiza asli!

Ming yilga yetgulik oliy so'z qasrin

Bunyod etmish o'tli nafasi.



Kuzak



Kuzak yetdi keng ko'ngilning tor yeriga,
Hatto bosib o'tmoqda u so'nggi yo'lin.
Ko'chib yurmish mezonlarning ko'ngli to'qdir,
Xayollar-u, hatto ko'kda oylar to'lin.

Kuzak yetdi osmonlarning qat-qatiga,
Mana, quyosh boshin egib turmoqda jim.
Bilmam nechun, umidlardan voz kechilish,
Nega kerak xazon kabi dilga hujum?

Hatto yaproq umid bilan nish uradi,
Bilsa hamki, shamollarning tizginini.
Lekin qahr degan sho'rlik tushunmaydi,
"Ko'ngil" degan keng dunyoni buzganini.

Ba'zi vaqlar bulutga ham kelar rahmim,
Unga nima, uyilishib ko'z yosh to'kish?
Balki, uni tushunish ham kerakmikan,
Oson emas, axir mudom yolg'on to'qish.

Kuzak yetdi tor ko'ngilning keng yeriga,
Hatto shamol, yomg'ir bilan siylab o'tdi.
Yana qaytib kelishiga bormi imkon?
Balki yo'li ochiqdur-u, balki yo'qdir.

Gazallar

Tiyra bo'lg'an dilni bir dam hur nurafshon etdi so'z,
Gah nurafshon o'lsa ko'ngil, xor-u yakson etdi so'z.

Anda nodon etsa paydo, so'z gado, nodon ado,
Qilsa dono birni barpo, shah-u sulton etdi so'z.

Ul alif qomatli gul dol o'ldi so'zning vasfidan,
Chunki oning tar dilin xub qirmizi(y) qon etdi so'z.

Dahri dunyo bo'ldi barpo, bir kalomkim etdi hal,
Bunda maxluq erdi jam, hayvon-u inson etdi so'z.

Johil-u nodonlar ilkinda xam, xor o'ldi ul,
Shuarolar ilkidin dunyoni hayron etdi so'z.

Manki bo'ldim telba shoir, dahri dunyo manga yot,
Tiyra bo'lg'an dilni bir dam hur nurafshon etdi so'z!



Sunnatillo Jaloliy
9-sinf o'quvchisi


Dunyo uchun dunyo halak, iyomon maning xirqam erur,
Dahriylari ag'yor demak, oshiqlari mahram erur.

Ko'ngilda bo'lsin ko'p hayo g'oyatda ko'p hamd-u sano,
Joningni qil ming bor fido, oshiq uchun bul kam erur.

Diydor uchun firdavs - vatan, chun imtihon dunyo, kafan,
Bog'lar ularni ishq bilan, zohid dili mahkam erur.

Yetmak sanga armon ekan, bul qullaring sarson ekan,
Kom doimo rizvon ekan, Qur'on azim malham erur.

Komi Jaloliy madh emish, ishq bahrina tog' sath emish,
Dil fathi dushvor fath emish, ishqim dilimda jam erur.



Vahki, ishqing ketdi, bul dil yoradur, tim qoradur,
Emdi jonio birla ayro, pora bo'lmak choradur.

Anda topdim ming balo-yu yuz tuman ovvorilik,
Bul jahon ichinda mendek yona kim ovvoradur.

Hech Yusuf yanglig' siymbar inson demasman o'zni man,
Chunki yong'an bul dilimkim, o'zi bir bechoradur.

Ey Jaloliy, bo'ldi, g'am anduhni yayrab et fido,
Barcha g'am anduhlaring yo'q, emdikim bekoradur.

Do'stim, maning yonimdasan

Kelsa og'ir mushkulot, do'stim, maning yonimdasan,
Ikki dunyo, mavjli hayot, do'stim, maning yonimdasan.

Sotsalar dushmanlarim, yonsam alamlar o'tida,
Man uchun so'ngsiz najot, do'stim, maning yonimdasan.

Gohi bul tilning tig'i so'z birla ko'ngling o'rtasa,
Etmayin dillarni yot, do'stim, maning yonimdasan.

Vah, Samandar bo'ldi bir kul bevafolig' o'tidin,
Sanda bor so'ngsiz sabot, do'stim, maning yonimdasan.

Do'st agar yonimdasan, ko'ngil tiniq, suv misli tinch,
Dil o'sar xuddi nabol, do'stim, maning yonimdasan.

Ey Jaloliy, do'stlaringsiz sham kibi mahzun eding,
Bul dunyo bir eski rabot, do'stim, maning yonimdasan.





O'zbekning tilisan



Navoiy ilkida uning tilidan,
Mashrab faryodiga singgan tilimsan.
Qalblarga nur sochgan ko'hna ziyosi,
O'zbekning tilisan, o'zbek tilimsan.

Men uchun sendagi so'zlar tabarruk,
Senda so'zlashuvchi xalqlar tabarruk.
Jahon minbarida yangragan buyuk,
O'zbekning tilisan, o'zbek tilimsan.

Har dilda, har tilda topasan e'zoz,
Xonishlar, kuylarga ulangay xushsoz.
Buyuk ajdodlardan sen bizga meros,
O'zbekning tilisan, o'zbek tilimsan.

Senda bor chiroyga hayrona ochun,
Senga ta'zim etar, turkona ochun.
Bizlarga zaminda yagona tilsim,
O'zbekning tilisan, o'zbek tilimsan.



Singlim, seni men ko'p sog'indim juda,
Sen mening yuragim, mehrga chanqoq.
Men senga madh yozib, yozib behuda
O'zimcha sevinib yurishimga boq.

O'zing yaxshimisan, onam yaxshimi?
Mensiz hayotingiz, balki, yaxshiroq.
Sizni sog'indim deb, yoningizda bo'lmay,
Uzoqlarda sang'ib yurishimga boq.


Menda yo'q sadoqat, men xiyonatkor,
Goho shu haqida o'ylayman uzoq.
Gohida o'zimni kuchli, zo'r atab,
Sizlarni unutib qo'yishimga boq.

Otam ter to'kadi oilamga deb,
Mening-chi, yordamim tegmaydi ozroq.
Otam bilan onam topganin sarflab,
Bir chetda indamay turishimga boq.

Bir telba shoirman, befoyda she'rim,
Menden mo'r kuchlidir, go'zalroq yantoq.
Buni bila turib o'zimni buyuk
Komil inson kabi tutishimga boq.

Mayli, qo'y hayotning g'am-u tashvishin,
Qadamlar tashlaylik yana ildamroq.
G'am-tashvishga emas, qalbimga emas,
Buyuk o'zbeklarning rivojiga boq.





Yurak!




Yurak! Jim turmagil, gapir boringni,
Dunyoga sig'maydi, deya qo'rwmagil.
Sig'adi. Lek biroz bukar oringni,
Samo cheksiz axir, insonlar ahil.

Yurak! Chalgin asta mungli toringni,
Bilaman... bo'lgansan ko'p bora chil-chil.
Bilaman.. sen uchun hamma ham oqil,
Hech kim ma'qullamas sening koringni.

Yurak! Bo'ldi endi, boshqa ichma may,
Qiynalma, qiynama o'zingni bir on,
Hali bari yaxshi bo'ladi, ishon...

Yurak! Tushun axir, men ham ne qilay,
Axir biz emasmiz yakka-yu yakto,
O'zi shunday ekan bu dahri dunyo.



Bahor sog' inchi

Bahorim,
mushtoqman kutar bu ko'ngil,
Sog'indim iforing, beraqol darak.
Qahraton qalbimni yaraladi xo'p,
Muzlarin eritib kelishing kerak.

Bahorim,
sensiz qalb gullamadi hech,
Borlik, yo'qligingdan azobda yurak.
Kelgin dilga nuring, iforing sochib,
O'shanda ochadi yana u kurtak.

Bahorim,
sog'indim yomg'ir taftini,
Osmonimda qora bulutlar bordek.
Sen kelsang, ular ham yig'lashar yum-yum,
Qalbdagi anduhlar yuvilar qordek.

Bahorim,
faqat sen ovunchim mening,
O'sha oppoq qor ham bo'lolmas sirdosh.
Darding olaman deb, muzlarin sanchar,
Qalbim ozorlarga zo'rg'a berar dosh.

Bahorim,
ketmaydi dildan hech ifor,
Ko'nglim bezaguvchi mohir naqqoshsan.
Senga bo'lgan sevgim o'chmaydi sira,
She'riyatdek sen ham boqiy yo'ldoshsan!



Muxlisa Boynazarova
9-sinf o'quvchisi





O'rik gullaganda

(Zulfiyaxonim she'riga nazira)



"Sog'inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul".

Sen ketding-u, qalbimda xazon
Yal-yal yonar hislarim misol.
Bahorlar ham tark etdi, hatto
O'rik gulinsovurdi shamol.

Ishqing ila borman, hayotman,
Yo'q, men uchun o'lmaiding sen ham.
Sog'inch bag'rim qiynasa, alhol,
Borar manzil qabringdir har dam.

Mana, yana borliqda bahor,
O'shal o'rik gulladi qiyg'os.
Dil nedandir o'ksinar kemtik,
Chunki bunda sen yo'qsan xolos.

Qo'lingda gul, yuzda tabassum,
Dilda hassos ishq-la kelarding.
Ishq bog'iga chorlab beg'ubor,
Bu qalbimni nurga ko'marding.

Endi o'zim qo'lida gul bilan
Qabring tomon boryapman yana.
Nechun ketding qoldirib meni,
Alvon-alvon xazonlar, mana.



So'zlayman bor dardimni to'kib,
Afsus, jimsan, tinglaysan faqat.
O'ylama, bir dili g'amnok-chun
Yoding ila yashash - saodat.


So'lim bahor oqshomlarida
Go'zal bog'lar kezmadim uzoq.
Armon endi ul kunlar, xotir,
Bugun, baxtim, sen mendan yiroq.

Keldim takror qoshingga bugun,
Ko'zlarimdan to'kilar marjon.
Dilbandlarim yagona yodgor,
Ovunar dil ular-la har on.

Sadoqatim cheksiz, shoirim,
Yodimdan-u tildan qo'ymadim.
Ey Ollohim, jannat bog'ida
Uchrashishni sendan tiladim.

Hatto samo yig'lar qo'shilib,
Bulutlarga berkindi quyosh.
"Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar,
Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?"





Ogahiy bobom



Qadim shonli tarix chorlar bag'riga,
Daholar karvonin tutib jahonga.
Bu muqaddas tuproq ota makondir,
Ogahiy bobomdek qalbi jahonga.

Vatan ishqil dilda, mangu bayoti,
She'rga oshuftalik mudom hamrohi.
Qalbdagi shoirlik cho'g'ini unda
Alanga oldirdi Munis dargohi.

Hattoki shohlarga ustozlik qilib,
"Qasidai nasihat" bitgan in'omga.
"Oshiqlar tumori" hamisha yordir,
Ko'ngli muhabbat-la to'lgan insonga.

Riyozatlar chekib, qiyndi darddan,
Lek qalamin qo'ldan qo'ymadni bir on.
Ogahiy dillarda yashar barhayot,
Xotirasi porloq, abad nurafshon.

Madhiga dostonlar bitmog'im darkor
Ogahiy avlodi bo'lganim uchun.
Tavsiflashim uchun bu ulug' zotni
Umrim yetmasligin angladim bugun!



Buvijonim




Onamday suyukli, men uchun aziz,
Mehringiz oldida ojizdir quyosh.
Issiq taftingiz-la isitib bizni,
Erkaligimizga berasiz bardosh.

Qalbingizda bizga mehr limmo-lim,
Bizlarga boringiz bag'ishlab mudom.
Hayot so'qmog'ida qoqilmasin deb,
Qo'limizdan ushlab, qo'llagan har on.

Bizlar-chun qayg'urib, baxtimiz o'ylab,
Qaddingizni bukdi yillar to'zoni.
Sochingizga tushgan har bir oq tola,
Bu hayot zahmati, qalbning armoni.

Yuz bahor qarshilab, baxtimiz ko'ring,
Quvonchingiz ko'rib yuray har zamon.
Duoyingiz sabab, yetay kamolga,
Mo'tabarsiz doim, aziz Buvijon!



Qadring baland bo'lsin, ey ona tilim!



Sen mening sarhadsiz ilhom dunyoyim,
Kundan kunga ortar senga ixlosim.
Seni sharaflay deb tizaman so'zlar,
Buyuklardan menga buyuk merosim.

Navoiy tilida yanggrading o'zing,
Sen-la "Besh xazina" dongdor olamga.
Ta'rifingni yoyib, maqtovlar aytay,
Seni malham bilay yurak nolamga.

Hind elida Bobur qoldi firoqda,
Chekdi qancha azob, topmadi qo'nim.
Sen bilan kuyladi yurtin sog'inchin,
Ovunch bo'lding o'zing unga har doim.

Cho'lpon-u Qodiriy kurashdi tinmay
Sening erking uchun, o'zliging uchun.
Qurban bo'ldi shunday "xalq dushmanlari",
Axir, ayt, men seni kuylamay nechun?!

Tilimda, dilimda mudom o'zingsan,
Sen bilan mag'rurman, biyrondir tilim.
Senga baxsh etsam kam ming bir qasida,
Sen bilan ijodim bog'lari so'lim.

Hur o'zbek qiziman, seni kuylayin,
Jahonda yangrayver, afsona tilim.
Seni madh etmoqlik men uchun sharaf,
Qadring baland bo'lsin, ey ona tilim!!!





Hayot so'qmoqlari



Besh harfdan iborat, mushkul imtihon,
Aslida, bizlarga berilgan sinov.
Angolmadim hanuz, nima u, yo Rab?
Balkim u bir yo'ldir uzun, serqatnov.

Unda mujassamdir talay so'qmoqlar,
Mudom ravon bo'lmas, hushyor bo'l, inson.
Sinovdasan, to'g'ri qadamlar tashla,
Amaling sarhisob qilinar har on.

Balkim, u dengizdir, mayjlanar tinmay,
To'lqinlari kuchli, senga g'ov bo'lar.
Shu ulkan dengizda suzishni o'rgan,
Aks holda, to'lqinlar seni g'arq qilar.

Balkim u fasldir, qishlari ayoz,
Qahratonga chida, bo'lma hech taslim.
Yengilma hech qanday do'l, bo'ronlarga,
Chunki oldindadir bahorlar so'lim.

Foniy dunyoda xirs qo'yma boylikka,
Mol-davlat o'tkinchi, nafsga botmagin.
Hayotda yashagin yaxshilik qilib,
G'animga siringni aslo aytmagin.

Muhabbat ulashgin, quvonchlar ulash,
Ezgu amallar-la eslanar inson.
Bu mushkul sinovda yengilma hech ham,
Chin dunyo bu emas, bu dunyo yolg'on.



Jigarlarim



Har biri yuragim bir parchasidir,
Zarra ziyon yetsa, o'rtanar jonim.
Gohi sho'xlik qilib etsa ham xunob,
Lek ularsiz o'tmas hech ham bir onim.

Aslida uzoqda bilinar qadri,
Og'ir kunda esa yoningda bo'lar.
Hattoki, chin do'st ham sotsa bir kuni,
Lek jigaring mudom yaxshilik tilar.

Qayda bo'lma, senga yelkadosh bo'lar,
Yiroqda bo'lsang gar, diling o'rtanar.
Eslab birga o'tgan xush onlaringni
Ko'ngling sal yorishib, ko'zlar quvonar.

Ulardan yiroqda kunlarim o'tar,
Sog'inch bag'rim ezib, qiyinaydi alam.
Qalbimning og'riqli bu dardlariga
Faqatgina diydor bo'ladi malham.

Mayli, qayda bo'lsin, baxtiyor yursin,
Ota-onam baxtiga sog' bo'lsin, omon.
Hamisha yonimda bo'lishmasa ham,
Jigarlarim ko'nglimda yashar har bir on.



Onajon, Siz buyuk...

+DC

Onajon, siz buyuk rassom ekansiz,
Ko'zyoshga kulguning niqobin chizgan.
Siz chizgan bu kulgu niqobi tengsiz,
Unga dardli ko'zyosh ranglari sizgan.

Onajon, siz buyuk doston ekansiz,
Har yozgan she'rlarim sizga mahliyo.
Siz kabi dostonim bor ekan, shaksiz,
Hayoliy kuylarim bo'lmaydi ro'yo.

Onajon, siz buyuk shoir ekansiz,
She'ringiz madhiya! Mehrga to'lgan.
Siz yozgan madhiya tunganmas, cheksiz,
Mening eng yoqimli musiqam bo'lgan.

Onajon, siz moviy dengiz ekansiz,
Gar kelsam sokinlik istab, bosh urib,
Men uchun mavjlanmay tinib turasiz,
Ko'zyoshlarim ko'ksingizga singdirib.

Onajon, siz buyuk nosir ekansiz,
Eng go'zal yolg'ondan hikoya yozgan.
Agar siz yolg'onmas, rostin yozsangiz,
Hozir dunyo bo'lardi ko'zyoshga cho'mgan.

Onajon, siz o'zga dunyo ekansiz,
Dunyolardan tonsam, bag'rini ochgan.
Butun koinotda o'zingiz chin do'st,
Soxtalikdan qochgan, yolg'ondan qochgan.

Onajon, siz menga quyosh ekansiz,
Nuringiz ko'ngilga ilhom soladi.
Gar bu nur bo'lmasa mendayin "dardsiz",
Qaydan qo'llariga qalam olardi!



Hilola Jumanazarova

9-sinf o'quvchisi





Sensiz

(Zulfiyaxonim she'riga nazira)



“Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib”.


Tog'dek xalqim suyab turar ortimda,
“Yig'lama” deb artar o'tli ko'zyoshim.
Sening bir-la qurgan sevgi bog'imda,
Sensiz yashamoqqa yetgay bardoshim.

Yolg'iz tashlab ketmabsan meni,
Sendan qolgan shirin xotira to'kin.
Sog'inib qolsam gar ba'zida seni,
Atrofga boqaman: borliq ham sokin.

Qancha bahorlarni kuzatdim sensiz,
Eslasam, ko'ksimga botar tig'dayin.
Endi izlar yo'lim qabriston, esiz,
Sog'inch so'roqlaydi meni tinmayin.

Qalaming mujdasin olarman qo'lga,
Bir nafas yonimda bo'larsan paydo.
Xayol-la ko'z tiksam poyonsiz yo'lga,
Kulib kelajaksan men tomon go'yo...

Kuyladning sevgini, yoshlikni jondan,
Qalbingda lovlagan otashdandir bu.
Pokiza ko'ngling va go'zal imondan,
Muhabbat baxsh etding, menga yetmasmu?!



Ishqingni joyladim yurak tubiga,
Ismingni ko'nglimga zar bilan yozdim.
Sen alanga bergen sevgi o'tiga,
Tuganmas vafo-la o'zimni otdim.

Ba'zan yo'qliging ham ko'p qiladi alam,
Qumsayman o'shanda yo'qolgan baxtni.
Yurak-yuragimdan o'tib ketsa ham,
Irodamni bukmay tikladim qadni...

Saroblar aldadi, sog'inchlар yomon,
Bir kun diydoringga, visolga yetgum.
Sen bergen ishq bilan yashadim har on,
Va o'shal ishq bilan dunyodan o'tgum.

Mana bir umrni yashadim sensiz...



Dekabr...Kuz ketdi xayr demasdan,
Bironta izini qoldirmay hatto.
Axir men bunchalar bevafomasman,
Yoki ayt, mendan ham o'tdimi xato?

Kuz ketdi ortiga qayrilmay bir bor,
Sezmay ham qolibman asta ketganin.
Sen deya bag'rimni o'yibman ming bor,
Endi, ayt, manziling qayga yetganin.

Sen shunchalar ko'r kam, shunday fusunkor,
Yasanib olarding tilla barg bilan,
Tashlab ham ketmabsan birgina xazon,
Men bunda qolibman hijron, dard bilan..





Yetardi... Yetardi bitta xazon barg,
Qahratton tunlarda xotira uchun.
Ko'p ko'rding shuni ham, aylabsan-ku tark,
Qaylardan izlayin endi, ayt, bu kun.

O'zi bir kam dunyo sira to'lмаган,
Ko'nglim ham u kabi salgina yarim.
Sen yoqqan alanga hali so'nмаган,
Qish ham so'ndiroлmas otash hislarim.

Dekabr... Qish keldi salomin berib,
Hatto muzyurakning tilida kalom.
Sen-chi, bor xotira, xazonni terib,
Asta ketib qolding, bilmam, qay tomon?

Bir bor "Xayr" desang nima qilardi?
Nelardan bunchalar ko'ngling qoldi, Kuz?
Shusiz ham har yomon bag'rim tilardi,
Sen ham yomon ketding qoldirmasdan iz.

Uzildi umidning so'nggi barglari,
Yurak xohishingga qilmaydi toqat.
Mayli, ket, ketaver, tugasin bari,
Iloj – qahratonga chidamoq faqat...





O, fevral...

Sen qishning so'nggi bekati,
Endi bosh ko'tarar alvon lolalar.
Tugamoqda qahratonning ertagi,
Tugasin sen bilan zorli nolalar.

Qanolarin qoqib yog'ar laylakqor,
Men bunga oshiqman, ko'zlarim to'ymas.
Qanday oq...
Qanday sof...
Bari bunda bor,
Biroq bahorimning yomg'iridaymas.

Nekbin qorlaringni boshimdan sochib,
Balki, ko'zlarimni shaydo qilarsan.
Ammo ayt, ko'nglimning eshigin ochib,
Ostonasin hatlab qanday kirarsan?

Sen go'zal, beg'ubor, eng ajib fasl,
Butun xayolimga soflik solarsan.
Lek bahor ko'nglimda qurgan-ku qasr,
Qaysi kuching bilan uni olarsan?

Iqrorman, yurakdan sevganligim rost,
Qahratonlar guvoh qonli yoshimga.
Laylakqor, sen meni o'shal ishqqa os,
Balki, bahor yig'lab kelar qoshimga.

O, fevral...

Sen qishning so'nggi bekati...





Ogahiyga ehtirom



Moziy taraflarga ketdi xayolim,
Xiva yuragimga ilhom solajak.
Ajdodlar yodini tilagan onim
Qiyot tuproqlarin titratdi falak.

Xorazm, ta'rifing yozar bo'lsam gar,
Ogahiy qalami hamrohim bo'ldi.
"Zubdat ul-tavorix" tarixdan mash'al,
Ro'y-rost so'zlaguvchi hamrozim bo'ldi.

Ogahiy nazmda bir chinor asli,
Ildiz otgan yeri ko'hna Xorazm.
Miroblar avlodi Erniyoz nasli,
Merosi tarix-u tarjima, nazm.

"Taviz ul-oshiqin" sevgiga tumor,
Mashhur "Qobusnama" so'zlar turkiyda.
Shohga adolatning berib sabog'in,
"Qasidayi nasihat" jamlar o'zida.

Xasta bo'lsa hamki tandagi joni,
Yillar silsilasi qaddin bukmagan.
Ruhiyati sog'lom, pokdir iymoni,
Ezgulik yog'dusi dilga sachragan.

"Riyoz ud-davla" si saodat bog'i,
Mahzunlik qolmagay hech bir ko'ngilda.
Turkiyda so'zlatdi "Shoh va gado" ni,
Shoir xotirasi barhayot dilda.

Xorazm!
Mardlarni berding jahonga,
Kubro, Jaloliddin asli o'zingdan.
Shundan Ogahiydek misli ummonga,
Bir tomchi hadyani qabul et mendan.



Bag'ishlov

(Erkin Vohidov tavalludining 85 yilligiga)



O'zbekning zabardast bir shoiri bor,
Yurtin tarixini she'r bilan chizgan.
Vatan g'ururidir, Vatan dilda or,
Ishqi, muhabbatin qalamda tizgan.

Farg'ona! Ona yer, ey ona zamin,
Erkining millatga toshoyna bo'lgan.
Farg'ona! Farzanding chinordir azim,
Otgan ildizlari o'zingga singgan.

Kuylasa, kuylari ko'klarda kezdi,
Vodiy shabadasi qanoti bo'lib.
So'zi ko'ngillarga yaxshilik ekdi,
Yetuk ma'rifatning sabog'i bo'lib.

Vatan! Ishqing tug'yon urgan ko'ngling bu,
Tarozi o'lchamas cheksiz sevging bu.
Mehringga payvasta aytgan so'zlari,
Erkingni kuylagan Erkin o'g'ling bu.

Qancha yil o'tsa-da, hamon barhayot,
Mohir so'z zargari qoldirgan meros.
Har satri moziyga bo'ladi qanot,
Bugunga yetmoq-chun bari ro'yi-rost.

Yurakka abadiy muhr bo'ladi,
Qalamda terilgan marjonday so'zlar.
Mahzun ko'ngillarni yoritguvchi nur,
Toshib mavjulanadi qalbdagi hislar.

Har yurak, har bir qalb shoirga oshyon,
Hamon yangramoqda o'chmas sadosi.
Dillarda jo'sh urar o'zgacha tug'yon,
Bu shoir qoldirgan ko'ngil "Nido"si.



Yuragim



Yarim tun!
Bexosdan ketsam uyg'onib,
Yuragim uyg'oqdir, olam uyquda.
Qaranglar, bu yurak ko'ksimdan tonib,
Oydan joy topibdi ko'kda o'ziga.

"Ne bo'ldi, yuragim?" deya so'rasam,
Menden nolib, achchiq ko'zyoshlar to'kdi.
Biroz nazar solib unga qarasam,
Dardlarim ko'milgan qabr bo'libdi.

Otash yuragimning zolimi bo'lib,
Berganim dard bo'ldi, qayg'u, alamlar.
Gar yozmoq istasam buni she'r qilib,
Bardoshi yetmayin, sindi qalamlar.

Endi-chi?
Menden bir quvонch ko'rmagach,
Yuragim osmonda kutar quyoshin.
Bo'm-bo'sh bu ko'ksimga hech narsa sig'mas,
Ortiq yig'lamoqqqa yetmas bardoshim.

Mayli, kut, yuragim, bag'ringni ochib,
Men uchib borayin sening qoshingga.
Endi armonlarni yulduzdek sochib,
Sendan yo'l ochamiz baxt quyoshiga.



Mushtiparginam



Farzandlarim deya umringiz berib,
O'zingizni fido qilib qo'yibsiz.
Yuribman o'zimcha ko'ksimni kerib,
Men deya, onamjon, yurak o'yibsiz.

Oppoq sutingizni oqlay oldimmi,
Mehribonim, sizga loyiq bo'ldimmi?
Dard kelsa og'riniq yig'lasam agar,
Ming bora tirilib, ming bor o'ldingiz.


Dilingiz og'ritib qo'ysam har safar,
Indamasdan erkalikka yo'ydingiz.
Asradimmi sizday oliv tilsimni,
Onam, ayting, qadringizni bildimmi?

Farzandim, dedingiz, g'amim yedingiz,
Dard-u alam yuragingiz tilsa ham.
Onam, o'zingiz-chun nima qildingiz,
Sizga nima berdim qiz bo'lib men ham.

Pushaymonning botqog'iga botdimmi,
Kelib hatto ko'zyoshingiz artdimmi?
Onajon, dilimda izhorim bisyor,
Aytmasam-da, sizni yaxshi ko'raman.

Sizsiz menga hatto keng dunyolar tor,
Bir bor xafa qilsam, ming bor o'laman.
Ayting, onajonim, mehrim berdimmi,
Yoki kelib uzr so'ray bildimmi?

Yurakda jo'sh urib tursa-da mehrim,
"Yaxshi ko'raman" deb ayta olmayman.
Bugun dil so'zimni she'rimga berdim,
Men hatto uyquda sizni o'ylayman.



Tun-u kun tilaysiz mening baxtimni,
Bir bor quchib, shirin so'zim aytdimmi?
O'zni cheklayvermang, bo'lди, yetadi,
Onajon, ko'ngil deb yashang bir bora.

Armon ham ketadi, dardlar ketadi,
Dilingizni o'rtab qilmangiz pora.
Bir bor ko'nglingizga taskin berdimmi,
Sizchalik men sizga mehr berdimmi?

Dunyolarcha baxtni menga berdingiz,
Aqalli, shirin so'z berdimmi, onam.
Dunyo kerak emas, baxtim o'zingiz,
Agarda desangiz: "Roziman, bolam".

Dunyo qayda, bitta ro'mol berdimmi,
Bir she'rchalik, onam, sizni sevdimmi?
Hali yo'lingizga baxtlarni to'shab,
Onam, bor dardingiz o'zim olaman.

Niyatim, soliha qizlarga o'xshab,
Nasib qilsa, sizni hoji qilaman.
Yaxshiyam, siz menga bo'libsiz ona,
Yaratganga aytay ming bor shukrona!





Mushtariybonu Bahodirova
9-sinf o'quvchisi

Tong tasviri

Ko'k yuzini bezar jilvakor
Jamolini ochganda quyosh.
Shafaq ila yorishar olam,
Gullar unga bo'ladi sirdosh.

Yer yuzida yayrab nish urgan
Maysani, dedim: shudring jolasi.
Ko'ksimdag'i tug'yon, aslida,
Dedim: misoli quyosh nolasi.

Saharda esgan mayin sabolar,
Eltadi menga gullar iforin.
Barg yuzida shabnamni o'psam,
Eslatar har chog' yurtim bahorin.

Tonggi orombaxsh o'sha yellar,
Yulduz qanotining tovlanishidir.
Tog' ko'ksida barq urgan quyosh,
Bodom gullarining nozlanishidir.

Jaloliddin Manguberdi

Hamisha bedordir navqiron o'tmish,
Shahidlari tig'da titrar jonsarak.
Manguga berilgan, o, mangu kechmish,
Men ham bezovtaman, jonimdir halak.

Asrlar siriga guvoh tog'lardan
Yurakni tilguvchi nido keladi.
Yog'iylar ilgida qolmas Vatanim,
Sherlar na'ra tortib sado beradi.

Amu suvlariga oshufta yurak,
Shamshirning damida qalqisa jonlar.
Yurtini yovlardan asragay doim
Jaloliddin kabi mardi maydonlar.

Oh, muqaddas kechmish, tabarruk tarix,
Samoga chirmashgan qadim ildizlar.
Ajdodlar armoni topgay nihoya,
Yana to'lib-toshgay daryo, dengizlar.

Derlar yo'qotmoqlik osondir, ammo
Topmoqlik mushkuldir chin daholarni.
Shukurki, farovon kunlarga yetdik,
Ollohim yubordi rahnamolarni.



Buyuklar yurti



Ko'ksimda jo'sh urar so'ngsiz tug'yonlar,
Gulgun hayot yashnatar dil haroratin.
Kuz faslida esgan sabolar eltar,
Muazzam tong, ma'sud kunlar tarovatin.

Zulumot qa'ridan so'nmagan yolqin,
So'nmas, baxt kuyining adog'i yo'qdir.
Bu zamin uzra porlar tole quyoshi,
Dilda g'ubor, zarracha firog'i yo'qdir.

Gohi o'tmish quchog'iga chorlar meni,
Sarson xotiralarni quvlab ketaman.
Armonli bag'ringga boshimni qo'yib,
Boburga bir siqim tuproq eltaman.

Tarix ostonasida yarqirar charog',
Bu Navoiy qalami, turkiy bayotim.
Asrlar alqagan kechmish sarhadda,
"Xamsa" erur bor boyligim, bisotim.

Ne-ne ulug'larni tuhfa etgan yurt,
Bag'ringda nish urgan ilk g'uncha yaproq.
Nogahon dushman zoti qo'ndirsa gard,
Bu kechmishni o'ylab, yurakda titroq.

Xayollar girdobida asrlar shoni,
Ona yurtim, yurak seni deb uraveradi,
Buyuklarga beshik bo'lgan sajdahohda,
Do'stim, beshak daholar tug'ilaveradi.



Rayhona Ko'palova
9-sinf o'quvchisi

Bir shoir ertani ertadan kutar ...

Erkin Vohidov tavalludining 85 yilligiga

Farg'ona oynasin qoqqunicha tong,
Qog'ozlar qoralab tunlari o'tar.
Zulmatni, g'afflatni ortda qoldirib,
Bir shoir ertani ertadan kutar.

"Nido" sin borliqqa qilib bir doston,
Yulduzlar bag'ridan Erkin Vohidlar.
Ash'ori tillardan dillarga ko'chib,
Munosib bo'lmoqni qayta ta'kidlar.

Deraza oldida sukunat aro
Qog'ozga muhrlar "Ruhlar isyoni" n.
Gohida jimjitlik bermayin davo,
Qalbiga yo'latar dardlar karvonin.

Nihol ektiradi quruq qalblarga,
Sug'orar mehr-la ildizin asta.
"O'zbegin" o'qigan insonlar albat,
Kechadan chiqarar yorqin xulosa.

Tog'lar gar "Quyosh maskani" aro,
Nurlarni eltmasa azm dunyoga.
Erkinlar turadi xalqin oldida,
Yurtini to'ldirib ilm-u ziyoga.

Xalqining eng nurli iqbollarini,
Maqtadi eng inju so'zlari bilan.
Endi nihollarni birga o'stirish,
Bo'ladi shoirning o'zlari bilan.

Buyuk xizmatlari bo'lmadi zoye,
Meroslari qolib ketmas bir yerda.
Erkin Vohidovdek suyuk shoirlar,
Ardoqlar topadi o'zbekdek elda.





Ona tilim

“Ona tilim” deb yongandir daholari,
Jarangidan gumburlagan samolari,
Navoiyning olam kezdi navolari,
Yassaviy-u Kubrolari bo’lgan tilim,
Matonat-la o’lmay kelding, ona tilim.

Shukr, bizga yetib kelding sog’-salomat.
Yillar o’tib sayqal topding, Ona tilim!
Vatan sotib, senga qilsak gar xiyonat,
Rizodurmiz, mayli, yurak bo’lsin tilim!
Ona tilim – o’zing mening jon-u dilim!



Jahongir Baxtiyorov
8-sinf o‘quvchisi

Amudaryo

“Bolam, - deydi Amudaryo, - Sizni kutgum,
Sizni kutgan kunlari g’am yutgaydurman.
Sog’inaman, men ham sizga onadurman,
Kelmasangiz, ko’zlarim to’rt kutgaydurman”.

“Mana, keldim, dardlaringni to’k, ey daryo,
Bizni kutib, to’lib-toshib oqadursan.
Orol sening jigaringmi yo onangmi?
Shu tarafga doim shoshib boqadursan.

Bizlar uchun eng suyukli onadursan,
Farzandlaring uchun kuyib-yonadursan.
Minbarlarda eng birinchi so’zimizsan,
Ne qilsak biz mehrimizga qonadursan?

Sen oqaver qirg’oqlardan to’lib-toshib,
Ona daryom, g’amlaringni o’ldirayin,
Oroling-la uchrashadiray seni bir kun,
Ko’z yoshlarim bilan bag’ring to’ldirayin”.





Jasmina Baxtiyarova
8-sinf o'quvchisi

Ona tilim

Agar seni xafa qilsalar,
Bu ko'nglimga og'ir botadi.
Dilda senga cheksiz muhabbat,
Nodonlar o'z tilin sotadi.


Mayli, yolg'iz qolayin, ammo
Sen bo'lmasang, telba bo'laman.
Ona tilim yashnab, to'lishgin,
Gar sen so'lsang, men ham so'laman.

Eshitmaslar qalbim nolasin,
O'zing dilkash so'zlariningni ayt.
Ko'mib qo'ydi meni xazonlar,
Ona tilim, bag'rim uzra qayt.

Borliging-chun yashnaydi olam,
Sen bo'lmasang, qayda ezgulik.
Eshit, Rabbim, dildagi nolam:
Tilimga yor bo'lsin mangulik.

Kim uchundir sen oddiy tilsan,
Menga sening o'rning bo'lakcha,
Sen ochgansan menga ilk bora
Dunyo sari jajji yo'lakcha.

Sayqallanib doimo tilim,
Kelajakka qadam tashlaydi.
U dunyoni egallar bir kun,
Jajji qizing shuni istaydi!



Ona tilim



Millatim ko'zgusi sen - ona tilim,
Sensan Navoiylar jo'shib kuylagan.
Sen haqda so'zlasam, yayraydi dilim,
Farzanding emasdir seni sevmagan.

Ko'hna tariximiz senda mujassam,
Senda yashayotir bugun, kelajak.
Inson bu – lahzalik xotirot asli,
Faqat til qolajak, tarix qolajak.

Sen o'zing erursan mangu sarchashma,
Har bir tomchi zarrang obi hayotdir.
Barhayot yashaysan har bir yurakda,
Milliy til hamisha yurtga qanotdir.

Ona tilim, sensan qalbim gavhari,
Tarix sahnasidan sochasan jarang.
Mitti yuragimga, jajji qalbimga,
Onam allasi-la singigan ohang.

Bobur sog'inchida yig'lading yum-yum,
Belanchagi bo'lding minglab dahoning.
Bir parcha satringni ko'zimga surtgum,
Onasisan minglab turkiy zabonning.

Mangu yashagaysan har bir yurakda,
Tiriklik qanchalar aziz va suyuk,
Mayli, so'zlashayin nemischa, forscha,
Lekin hammasidan o'zingsan buyuk!




Muxlisa Amatova
8-sinf o'quvchisi




Har kim ekkanin o'rар

Bir mo'minning uch o'g'il
Va sigiri bor edi.
O'g'illar tarbiyasi
Unga xo'p dushvor edi.
Sigiri-yu o'g'illar
Kampirdan yodgor edi.
Cholning uch o'g'liga ham
Na so'z, na gap kor edi.
Tinim bilmay ishlar chol
Erta-yu kech dalada.
Ba'zan qaytib kelardi
Tong yorishgan pallada.
Tong quvdi tun izidan,
Oylar o'tdi shoshqaloq.
To'ng'ich o'g'li uylandi,
Ko'rди shirin chaqaloq.
Bu orada cholning ham
Quvvat ketdi belidan,
Qo'llari bo'lib qadoq
Ayrildi sigiridan.
Kenja o'g'li qimorda
Boy beribdi sigirni.
Bu ish bechora cholning
Og'ritibdi ko'nglini.
"Zora, o'rtancha o'g'lim,
Ishonchim oqlar" derdi.
Nachora, u o'g'il ham
Otasiga pand berdi.
"Har boshga bir o'lim" deb,
Ajal turar tizilib,
Bolalarin o'ylandi
Chol yuragi ezilib.
Kuni bitib cholning ham
Shomda joni uzildi.

Jasad ustiga anche
Odamlar ham tizildi.
Yillar o'tdi oradan,
Ota qadri sezildi.
To'ng'ich o'g'ilning o'g'lin
Bo'ylari ham cho'zildi.
Qaytar dunyo deydilar,
Qaytdi, mana, o'g'lidan.
Qurigan barg misoli
Mador qochdi belidan.
Kundan kunga darmoni
Qurib bitdi uning ham.
Kuyunchagi – otasi
Esiga tushdi shu dam.
Bemor ota holini
Badbaxt o'g'il so'rmadi.
Qochsa hamki madori,
Nahot sira ko'rmadi.
Bir kun ota farzandin
Imlab qoldi yoniga.
O'z taqdir hikoyasin
So'zlab berdi o'g'liga.
Tinglab ota so'zlarin,
Uning ko'zi yoshlandi.
Qaytmasin deb bolamdan,
O'g'il ko'ngli g'ashlandi.
Shu on unda otaga
Mehr uchquni yondi.
Bu voqeа barchaga
Ulug' bir meros qoldi.
Qissadan hissa shuki,
Har ish javobi bo'lar.
Shuni hech unutmangki,
Har kim ekkanin o'rар!



Ona



Alla aytadilar onaga go'yo
Qabrga bosh eggan mirzateraklar.
Ilk bor qad ko'tarar mana shu yerdan,
Mungli kuyin chalgan to'ng'ich chechaklar.

Daraxtlarning bargi bo'lса gar qog'oz,
O't-o'lan, giyohlar bo'lgay bir qalam.
Daryo suvi siyoh bo'lса hamki, oz,
Yozib tugatolmas ko'hna bu olam.

Dunyoni suv bosar, gar u yig'lasa,
Cho'ldan chechak unar, jilmaysa, kulta.
Bilasizmi, yetim orzusi nima?
"Qaniydi, bizning ham onamiz bo'lса!!!"

Biz esa qadriga yetmaymiz uning,
Yo'qotib, so'ng qo'msash qiladi alam.
U bedor o'tkazgan har bitta tunning
Uvoli tutmasmi, o'ylamaymiz ham.

Hayotdan ko'z yumib tashlab ketganda
Ro'molini hidlab, ho'ngrab yig'laymiz.
Ko'zi xiralashib, beli qotganda
Nega onamizning holin so'rmaymiz?!

Yaxshi ko'rishimiz aytmaymiz nega?
Ko'nglin ovlash uchun kuyib, yonmaymiz.
Bir dasta gul olib onamga deya
Ziyorat qilishga fursat topmaymiz.

Nega onamizni tavof qilmaymiz,
Uning borligiga qilib shukrona.
Biz axir ko'rmizmi, nega ko'rmaymiz?
Ko'rini turgan pok Ka'ba-ku ona!

Qordek oppoq sochi, titroq qo'llari?
Yillar zahmatidan berar nishona.
G'arib kulbam afzal yonimda bo'lса,
Onamsiz kerakmas hech bir koshona.



Ustoz




Dengizdir aslida bu sirli dunyo,
Har to'lqin, har mavji misoli orzu.
Qayiqqa o'xshashi emasdir ro'yo,
Ustoz asli bizga bo'ladi ko'zgu.

To'lqin mavji uzra suzmoqlik uchun,
Qayiq kerak bizga, zarurdir eshkak.
Azim daryo uzra cho'kamiz nechun?
Chunki, biz qayiqsiz suzamiz, beshak.

Qirg'oqqa eltguvchi qayiqdir ustoz,
Uning har bir so'zi aziz, tabarruk.
Uztozin orqali ul Navoiy ham
Ko'hna bu ochunda bo'loldi buyuk.

Ustoz – o'z kasbining chin fidoyisi,
Shogirdlari – uning suyangan tog'i.
Gar muallim bo'lsa jonkuyar bog'bon,
Qurimagay aslo ularning bog'i.





Umidvorlik



Mashhura Ibragimova
8-sinf o'quvchisi

Sokinlik boshlanar yomg'irdan so'ng ham,
Ko'z yoshlarin to'kib tinadi osmon.
Menda na yig'i bor, na qalbda quvonch,
Faqat qalam menga sirdosh begumon.

Tunlari yulduzlar menga dugona,
Oy-la tutashadi umid yo'llarim.
Osmon boshim uzra bo'lib parvona,
Quyoshga yetadi bir kun qo'llarim.


*"Yurtim, ado bo'lmas armonlaring
bor" sh'riga nazira...*

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,
Bulbullar kuylagan dostonlaring bor.
O'tmishingni o'ylab, yurakda faxr,
Dunyoni bezatgan insonlaring bor.

Seni har kun so'rab keladi bahor,
Samoga sig'magan yulduzlarining bor.
Oshiqlar bo'ynida vafosi tumor,
Yoriga vafodor gulyuzlaring bor.

Yurtim, sening mehring topmas nihoya,
O'tmishing biz uchun ajib hikoya.
Taraqqiyga mudom bo'laver doya,
Yiqilsang, tutguvchi o'g'lonlaring bor.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Bevatan insonning yegani zahar,
Istiqloling o'ylab, yuragim sezar,
Biz uchun atalgan imkonlaring bor.



Qurboning bo'lsaydim, ey onajonim,
Sen-la go'zal bo'ldi har nafas, onim
Axir Temurbekka tutashdir qonim,
Jangohlarda shahid o'g'lonlaring bor.

Muqaddas men uchun har qarich tuproq,
Ne-ne buyuklarni o'rtadi firoq.
Ellar ko'p, yurtlar ko'p dunyoda, biroq
Senga atalgan dil tug'yonlarim bor.

O'zing kifoya

Vatan! Qalbimdagi muqaddas tuyg'u,
Hamisha barhayot tabarruk tuproq.
Sen haqda o'ylasam, chekinar qayg'u,
Yurakda mavjlanar yoqimli titroq.

O'zga bir yurtlarga bo'lmasman shaydo,
Chunki minnatlarsiz bergansan hayot!
Yursam, yo'llarimga to'kilar yulduz,
Sendan har qayg'umga topgumdur najot.

Orzu-maqsadalarim topmas nihoya,
Yayrab o'smoqdaman, porloq istiqbol.
Dunyolar kerakmas, o'zing kifoya,
Bugun jamolingdan butun olam lol.

Yana yuksalmoqqa sezib ehtiyoj,
Olg'a intilamiz, yurakda g'urur.
Har ezgu niyatga topilur iloj,
Muhimi, bayrog'im hilpirar mag'rur.

Men shoir emasman va yoki notiq,
Qalbdagi tug'yonning chizgilari bu.
Asli sening madhing bundan-da ortiq,
Seni ardoqlayman, maqsadimdir shu!





Zarnigor Ro'zimatova
8-sinf o'quvchisi

Tuganmas ertak

(M.Yusufning "Ertak" she'ridan ta'sirlanib)


"Ertagim cho'zildi, mening ertagim..."
Deya shoir qalbdan joy oldi mangu.
Dunyo yig'ladi, lek undan ayrilib,
Ertaklari soldi qalblarga qayg'u.

Ko'nglidan to'kilgan kuylar – shalola,
Alvon qo'shiqlari qalblarga malham.
Yozgan kitoblari misoli oftob,
Eritgaydir hatto tosh qalblarni ham.

Jonlanar kullarga ko'milgan fursat,
She'rlarin o'qiyimiz, diydalarda nam.
Unga yo'liqishdan hayiqar g'iybat,
Zorlanib kutadi qizg'aldoqlar ham.

Nechun eslamaylik Muhammadni biz,
Axir, eslamasak, yiqilar osmon.
Chunki shoir qalbi tirikdir hanuz,
She'r bo'lib kezadi nafasi har on.

Shoirning ertagi tugamaydi hech,
Go'zal tonglar otar she'r dunyosida.
Hayot xafa qilmas Muhammadini
Muxlislari mudom zavq daryosida.



Uyqusiz tun

Har nega achinib yashamoq og'ir,
Har neni o'yalamoq undan-da azob.
Kechalari ko'zim bilmaydi uyqu,
Yurakda bir tug'yon, yurakda g'azab.

Ehtimol, chang-to'zon quvlaydi meni,
Ba'zida tushimda qochayotirman.
Nimadan ezilib yig'laysan, yurak,
Sening sirlaringni ochayotirman.

Umr o'tyapti deyishsa hamki,
Alam va uqubat oladi o'rav.
Birov aytmas menga, ey qadrdonim,
Achinmang, yoshsiz-ku... dardlarni o'ylab.

Yaxshiyamki, she'rim, o'zing hamsuhbat,
Ko'nglim taskin topar sen-la yashasam.
Tongning otar chog'imi, tunning yarmida
O'zing yonimdasan, dardni kuylasam.

Bo'ldi, azoblarni olmaymiz tilga,
Bildik, alam ichra yashamoq qiyin.
Kel, qo'nim topaylik quvonch yonida,
Charchagan yurakka beraylik bir tin.

Ba'zida tushimda, qochayotirman...



Ona tilim - joni tilim



So'zlamakdan yurak yonadur,
Yoqut kabi tovlanur so'zlar.
Jonbaxsh tilim, senga izhorim,
Senga sharaf, senga dil rozlar.

Ming yillarki o'z qadring bila
Yashayapsan hamisha masrur.
Quloq solsam agar qalbimga,
Baxsh etyapsan cheksiz bir g'urur.


Ko'zgudirsan o'zing millatga,
Tomirimda oqayotgan qon.
Turkiy tilim, necha yurakka
Solib qo'ygan eding hayajon.

Jozibadan o'zing dars bergil,
Marvaridlar shodasin teray.
Tillar aro shohidi bo'lgil,
Sen uchun men jonimni beray.

Sensiz yurak na yurak bo'lur,
Zanjirbandlik ila solur dod.
"Tili yo'qning dili yo'q" derlar,
Sen tiriksan, dilim ham obod.

Har bir ko'ngil jo'shib turadi,
Mahzun bo'lmas bezabonlikdan.
Qalb ozodlik shukuhin surar,
Baxtiyormiz tinch -omonlikdan.

Ona tilim - mehrli chashma,
O'zing sabab tilim burrodur.
Har birimiz sengamiz tashna,
Kelajaging porloq bo'ladur.



Shamollarga yozib sochlarim
Yana, yana kuyladim sen-la.
Bulbullarga oshno tutindim,
Ular suhbat qurdilar men-la.

Iftixordan mag'rurdir boshim,
Vatan ishqisi senda mujassam.
Boshim ko'kka yetgaydur, shaksiz,
Rivojingga hissamni qo'shsam!

Onajon




Tilagim: Onajon, bor bo'ling,
Nurga to'lgan yorug' dunyoda!
Quvoning, siz baxtiyor kuling,
Sizga bo'lgan mehrim ziyoda.

Onajonim – sarishtam, dedim,
Jonim ichra oshyon o'zingiz.
Onajonim – farishtam, dedim,
Quvnab tursin doim ko'zingiz.

Bu qalbingiz shunchalar go'zal,
Ayamaysiz boringiz bizdan.
Madh etsam, hech tugamas g'azal,
Quyosh nurin oladi sizdan.

Tilagim: Onajon, bor bo'ling,
Saodatli yorug' dunyoda!





Olkam

(O'tmishdagi buyuk ajdodlarimiz xotirasiga
bag'ishlayman)



Dadaxon Qo'ziboyev
8-sinf o'quvchisi


Boshingdan o'tmadi ne qaro kunlar,
Sanchildi fashistning og'ir o'qlari.
Qalbingda o't yoqib, kuydirib seni
Isinib yashashdi ular o'zları.

Qirg'inbarot qildi hissiz manqurtlar,
Qulatdilar ne-ne chinorlaringni.
Oydan quyoshgacha iymanib yurgan,
O'ldirdilar sening Cho'lponlaringni.

O'tkan kunlariga tavallo aytib,
Kelajak tomonga termulgan hissiz.
Eski tuzum davri - "qotil mashina",
Qodiriy bobomlar yo'qolgan izsiz.

Qarasam, ortimda hayqirar tarix,
Netay, olgim kelar og'riqlaringni.
Sibirda yurib ham sen bilan bo'lgan
Quchgim kelar dildan Usmonlaringni.

Umrbod yashagin, ey boqiy o'lkam,
Endi yorug' zamon, qorong'ulik yo'q.
Chekkan zahmatlaring kuylamasam gar,
Shoir yuragimni tinch qo'ymasdi "o'q"!



Fevral



Fevral, tortib olma qishingni mendan,
Ayirma, iltimos, kumush qorlardan.
O'zing-chi, mart tomon yo'l olib ildam,
Holin so'radingmi bir bor yanvardan?

Balki, sen ham har yil martni kutarsan,
U uchun o'zingni qilarsan qurbon?
Lekin senga sodiq yanvar chin oshiq,
Mart esa aprelga bo'ladir sarbon.

Qisqa umr ko'rasan martning hajrida
O'zingni yo'qlikka qilib giriftor.
Iltimos meni ham qishdan ayirib
Sevgi bog'imizga sevalama, qor.

Fevral, tortib olma qishingni mendan...



Yozsam, yozmasam




Yozmasam, dil yonar, yozsam, qog'ozlar,
Yozsam, yurak charxlar qalam tig'ini.
Yozmasam, qalbdagi qaro firoqlar,
Dil tomon burarlar o'z lashkarini.

Yozsam, nega chiqmas tilimdan hech sas,
Ayting, kim biladi ko'ngil shevasin?
Axir pora yurak demoqdadir, "Bas..."
Qani, yiroqdam "baxtlar kemasi?"

Yozmasam, firoqlar do'nar armonga,
Bo'g'zimga tiqilar nogoh bir og'riq.
Tomchilar to'kilar cheksiz ummonga,
Ustidan qahqaha otadi borliq.

Bu dardning bordir na chora-davosi,
Nahot yashayapman baxt deya mahtal.
Bilsam, she'rlar ekan ko'ngil sadosi,
Bilsam, she'rlar ekan umrimga badal.



Shirin so'z

Bilasizmi, bolalar,
Qanday bo'lar shirin so'z.
Ko'ngillarga xush yoqar,
Qandday bo'lar shirin so'z.

Dildan jaranglab chiqqan,
Navoga o'xshaydi u.
Hammani xushnud etgan
Safoga o'xshaydi u.

Ozor yetmas ko'ngilga,
Yoshlanmaydi hech bir ko'z.
Mehr tug'ilari dilda,
Shunday bo'lar shirin so'z.



Sarvara Karimova
7-sinf o'quvchisi


Opajonim

Suluvlarning go'zali,
Opajonim o'zlari.
Shirinso'z, rostgo'yligin
Aytib turar ko'zlari.

Mehnatkashdir, qo'li gul,
Har ishda chevar butkul.
Opajonimga atab
Qo'shiq kuylaydi bulbul.

Mehribonim, opajon,
Kulib yuring har qachon.
Guldek nozik ko'nglingiz
G'am ko'rmasin hech qachon.





Xorazm gujumlari




Xorazm – ajib go'sha,
Qilar o'ziga maftun.
Kelgan har bir sayyohning
Ko'ngliga berar fusun.

Gujumlarning vatani -
Xorazmga kelinglar.
Jaziramadan xoli
Soyasiga kelinglar.

Faqat soyasi emas,
Bor uning ajib sehri.
Ildizining ustida
Qaynar insonga mehri.

Xorazm gujumini
Alishmasman hech nega.
Hatto boylik, xazina
Taklif qilsalar menga.



Bahor sog' inchi



Qancha kundan beri kutardim seni,
Kelding, tonglaringni kutib olayin.
Go'zal quchog'ingda sayr etib,
Maftunkor gullaring hidlab qolayin.

O'zingsan ma'shuqlar dardiga davo,
Oshiqlar dilini yupatguvchi sen.
Bog' barq urar nafis gullaring.
Xushbo'y chechaklaring oshig'imam men.

Aslida, bu gullar gul emas aslo,
Bahor, bular – bizga ulashgan mehring.
Tabiatga, Vatanga beraver husn,
Ayama mo'jizang, ayama sehring.

Sendan boshlanadi yangi umidlar,
Navro'zi olaming – dillarga quvonch.
Keksalar, bemorlar ziyoratidan
Baxt-u ezgulikka ulashib ishonch.

Beg'ubor yoshligim boshlangan sendan,
Bahorim, sen suluv qizga o'xshaysan.
Tug'ilgan kunimda har yil poyimga
Gullardan to'qilgan gilam to'shaysan!



Askarlar



Yurakda shijoat, qo'lida qurol,
Qalbida Vatanga mehri jo'sh urar.
Yurtining tinchligi, totuvlik uchun
Chegarada sergak posbonlar turar.

Qo'rquvdir dushmani, sadoqat do'sti,
Sabr, vijdon ila qo'riqlar bizni.
Ularni ulug'lab ash'orlar bitmoq
Faxrga to'ldirar har o'g'il-qizni.

Tashakkur aytaman, tinch va xotirjam,
Har o'tgan kunimning sababchisi siz.
Ayyomingiz bilan tabriklab qolar,
Sizlarni kuylovchi bitta jajji qiz.

Goho shodlik, goho g'am



Hayot o'zi shunaqa,
Goho shodlik, goho g'am.
Boy insonmi, faqirmi,
Ayamaydi sira ham.

"Oyning o'n beshi yorug',
O'n beshi qorong'u"dir
Deganday, har insonning
Quvonchi, g'ami bordir.

Umring oxirigacha
O'qi, o'rgan, qilgin shahd.
Bir tomondan yiqilsang,
Bir tomondan kelar baxt.

Hayot tashvishlaridan
G'am bosmasin yuzingiz.
Bir kuni omad kelar,
Shuni yodda tuting Siz!



O'zbekistonim

Yana qo'llarimga olyapman qalam,
Ayt, seni qandayin madh etay, Vatan?!
Fido qilsam arzir senga jon-u tan,
Yurakdan yaralgan she'r-u dostonim,
Ey ona diyorum, O'zbekistonim!

Mevalar yetilgan bog'laring go'zal,
Lolalar ochilgan tog'laring go'zal.
Maftunkor tabiat faqat senda bor.
Kundan-kun yuksalgan obod bo'stonim,
Ey ona diyorum, O'zbekistonim!

Avlodlar bo'lg'usi Navoiylardir,
Tiliga, eliga fidoyilardir.
Qalblarida Vatan ishqı gavhardir,
Ajodalardan meros aziz oshyonim,
Ey ona diyorum, O'zbekistonim!



Nilufar Jumaboyeva
7-sinf o'quvchisi





Sumalak sehri

Keldi fasli navbahor,
Chechak yerdan bo'y cho'zar.
"Omonlik-somonlik", - deb,
Buvilar ko'zga surar.

Yangilanish, yasharish,
Beg'ubor yoshlik asli.
Xalqimizning tilida -
"Dehqonning bedor fasli".

Doshqozon atrofida,
Yig'iladi yosh, keksa.
Sumalakni yeganda
Ketar ekan g'am-g'ussa.

Arazlashgan yarashar,
Tosh solib orzu etar.
Yosh-u keksa birdayin
Shodlikka to'lib ketar.

Sumalakning shirin hidi
Dimog'larni chog'laydi.
Sumalak ko'ngillarni
Bir-biriga bog'laydi!

Hazil she'r

Kelib qolibdi Yangi yil,
Sovg'adan quruq qolmang.
Gar Qorbobo kelmasa,
Bittayam sovg'a olmang.

Keladimi Qorbobo,
Buni kim bilar o'zi.
Axir va'da bergandi,
Qorbobolik chin so'zi.

Yangi yilni biz tomon,
Yuborgan ham Qorbobo
Sovg'asi bo'la turib,
Bermagan ham Qorbobo.

Nega bunday o'ylaysan,
Axir bobom - Qorbobo.
Serquyosh tomon kelsa,
Erir, bo'lsa ham daho.

Umidingni uzma hech,
Zamon rivojlanmoqda.
Google akaga yozsang,
"Podarka" ham bermoqda.

Qorbobo kelar, albat,
Istagan sovg'ang berar.
Eski yil "ketaman" deb,
Bekorga xafa bo'lar.

Yangi yilda yangicha,
Orzularga yetaylik.
Yarim tungacha bedor,
Qorboboni kutaylik.

Bir yosh ila ulg'aydik,
Qorboboga so'z aytmang.
Unga ishonmasangiz,
Undan hech sovg'a kutmang.



Shoir bo'lsang, xabar ber

(Mahtumquli ijodidan ta'sirlanib)



Nilufar:

U nimadir, boshingga dard keltirar?
U kim edi, mehri qalbing to'ldirar?
U nimadir, ichingdan yeb bitirar?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Sarvara:

U yolg'ondir, boshingga dard keltirar,
U onadir, mehri dilni to'ldirar.
U – dard-u g'am, ichingdan yeb bitirar,
Bizdan salom bo'lsin, javobimiz - shu!

Nilufar:

U nimadir, ketar, lekin qaytmaydi?
U kim edi, dardin oshkor etmaydi?
U nimadir, yomonlikdan toymaydi?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!


Sarvara:

U – vaqt, ketar, lekin qaytmaydi.
U otadir, dardin oshkor etmaydi.
U shaytondir, yomonlikdan qaytmaydi.
Bizdan salom bo'lsin, javobimiz - shu!

Nilufar:

U nimadir, yaqinlashib kelmoqda?
U nimadir, insonlar g'arq bo'lmoqda?
U nimadir, qalbni yara qilmoqda?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!





Sarvara:

U – oxirat, yaqinlashib kelmoqda!
U – internet, insonlar g’arq bo’lmoqda!
Yomon so’zlar qalbni yara qilmoqda.
Bizzdan salom bo’lsin, javobimiz - shu!

Nilufar:

U nimadir, keladi-yu ketadi?
U nimadir, ko’kda parvoz etadi?
U nimadir, yuksaklarga eltadi?
Shoir bo’lsang, shundan bizga xabar ber!

Sarvara:

U ilhomdir, keladi-yu ketadi.
U- qush zoti, ko’kda parvoz etadi.
U kitobdir, yuksaklarga eltadi.
Bizzdan salom bo’lsin, javobimiz - shu!

Nilufar:

U nimadir, yangi yilni boshlaydi?
U kim, uni dunyo ham olqishlaydi?
U kim, tongdan to kechgacha ishlaydi?
Shoir bo’lsang, shundan bizga xabar ber!

Sarvara:

U Navro’zdir, yangi yilni boshlaydi.
U - muallim, dunyo ham olqishlaydi.
Bobo dehqon tinim bilmay ishlaydi!
Bizzdan salom bo’lsin, javobimiz - shu!

Sarvara Karimova
7-sinf o‘quvchisi





Dilrabo Yo'ldoshova
7-sinf o'quvchisi

Qutloq

Vatanimning jasur, metin qalqonlari,
Ishonch tog'i, kuch bardoshli qo'rg'onlari.
Sizlar bizga g'urur, faxr ham iftixor,
Ona xalqning mard va jasur o'g'lolnari.

Kecha-kunduz qo'riqlaysiz siz vatanni,
Baxsh aylabon tanda jonne, tomchi qonni.
Shu boisdan musaffodir nurli osmon,
Olloh nazar etgan go'zal bu chamanni.

Yodingizda bo'lsin doim ichgan qasam,
Shu boisdan siz hushyorsiz, har on, har
dam.

Jaloliddin, Sohibqiron izdoshisiz,
Kuch-quvvatda pahlavonlar siz chinakam.

Dilraboning qalbida hurmat-ehtirom,
Sizning madhingizni bitmoq istar mudom.
Sizlar borsiz, tinchlik bordir, yuksalish bor.
Zafarlarni quchaverar O'zbekiston!





Ogahiy bobom



Ezgulikdan bermoqda darak,
Talpinmoqda har bir yosh yurak.
Bizlar uchun bu ishonch demak,
Bu – Ogahiy ijod maktabi.


Izlanamiz tinmasdan har on,
Qadam tashlab kelajak tomon.
Biz bo'lamiz dono, bilimdon,
Ogahiy bobomning ijod maktabi.

Ko'zimizda mehr mujassam,
So'zimizda yaxshilik har dam.
Biz bo'lamiz inson chinakam,
Ogahiy bobomning ijod maktabi.

Ustozlar bor: beradi ta'lif,
O'z kasbiga mohir muallim.
Ilm olmoq biz uchun muhim,
Ogahiy bobomning ijod maktabi.

Yurtboshimiz bizga mehribon,
Mehri go'yo oftobi jahon.
Ishonchini oqlaymiz har on,
Ogahiy bobomning ijod maktabi.

Bilim olmoq men uchun faxr,
Ogahiyga izdoshman axir.
Baxtning jonli timsoli erur,
Ogahiy bobomning ijod maktabi.



Kuz nashidasi



Zamin uzra kuz nashidasi,
Sarg'aymoqda yashil yaproqlar.
Kuz fasliga yurak oshufta,
Oshufta qalb meni so'roqlar.

Oltin libos kiygan sanamdek,
Barg raqsiga hamroh shabboda.
Ayting, do'stlar, bunday go'zallik,
Yana bormi butun dunyoda?

To'rt fasning erkasidir u,
Oltin fasl, ilhombaxsh fasl.
Dehqonlarning xirmonlari but,
Dalalarda yotar mo'l hosil.

Qo'limdadir qog'oz va qalam,
Ojizdirman ta'rifga, inon.
Sening go'zal tarovatingdan,
Baxtli yashar har bitta inson.



Sarvinoz Boltayeva
7-sinf o'quvchisi

YPX xodimlariga



Har bir ishda hushyorlar,
Ham ziyrak, ham zukkolar,
Himoyaga shaydirlar,
Sizday mard-u maydonlar.

Yurtim, xalqim tinchin deb,
Shodlik, quvonch, baxtin deb,
Osudalik bo'lsin deb,
O'z jonini tikkanlar!

Tun-kun uyqu bilmasdan,
Charchoqni his qilmasdan,
Yozmi, qishmi demasdan,
Yelib yurgan insonlar!

Bo'ling elning tayanchi,
Ham suyanchi, yupanchi,
Butun xalqning o'tinchi:
Bor bo'lingiz, posbonlar!





Kapalakjon




Kapalakjon, kapalak,
Qo'nsan guldan gulga.
Kela qolgin, kapalak,
Qochasan mendar nega?

Bog'imga kirgan chiroy,
Taralar xushbo'y ifor.
Kutdim seni intiqib,
Kelaqolgin, ey dildor.

Ko'rsa seni ko'zlarim,
Porlab ketar sevinchdan.
Ketmagin, hoy kapalak,
So'lib qolmay sog'inchdan.

Sayr etayin sen bilan,
Yayraylik birga yurib.
Gul terayin sen bilan
Yelkama - yelka turib.



O'razmetova Gulsevar
8-sinf o'quvchisi


O'zbegimning o'g'loni

Vatanim tinch, but qo'rg'oni,
Musaffodir sof osmoni.
Hamisha pokdir vijdoni,
O'zbegimning mard o'g'loni,
Vatanimning mard posboni.

Ko'ziga yosh berma, falak,
Bo'lmasin hech zor-u halak.
Ular doim yurtga kerak,
O'zbegimning mard o'g'loni,
Vatanimning mard posboni.

Chamanzordir go'zal diyor,
Ular uchun yurt iftixor.
Harakati bo'lmas bekor,
O'zbegimning mard o'g'loni,
Vatanimning mard posboni!





Navro'z muborak!


+@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru +@mail.ru

Tong sahardan boshlab onalar halak,
Bu, balki, bayramdan beradi darak,
Doshqozonlar toshib, qaynar sumalak,
Qilinadi somsa, mantı, ko'kbarak,
Aziz yurtdoshlarim, Navro'z muborak!

Sho'x-shodon bolalar uchirar varrak,
Bahoriy o'yinlar- o'ynashar chillak.
Doshqozon yonida bo'lib biz sergak,
Unga tosh tashlaymiz, aytamiz tilak,
Aziz yurtdoshlarim, Navro'z muborak!

Ayol-qizlar raqsga tushar maydonda,
Qo'shiqlar kuylashar omon-omonda.
Hamma shod va xurram tinchlik zamonda,
Quvonchdan baxtlarga sig'maydi yurak.
Aziz yurtdoshlarim, Navro'z muborak!

Bu kunda qalblarda qolmasin g'ubor,
Faqat baxt va omad bo'lsin bizga yor.
Kel, do'stim, kuylaylik, aytaylik alyor,
Berar yangi yildan, ayyomdan darak.
Aziz yurtdoshlarim, Navro'z muborak!



Men o'tgan umrimga

(Zulfiyaxonim she'riga nazira)



Hayot yo'llaringiz bexos varaqlab,
Matonat timsolin men sizda ko'rdim.
Qayg'ular o'rniga kuldim charaqlab,
Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim.

Sababki, o'tgan vaqt hech tin bilmadim,
Shunda ham ortimga hech qayrilmadim.
Qalbim xiralashsa, hech yorilmadim,
Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim.

Har bir ishlarimni qildim sarhisob,
O'ylasam, hayotim aslida jumboq.
Qarasam- o'tkinchi yaqin va yiroq,
Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim.

Shodliklarga yetdim, bir kun g'am tomon,
Alvon kunlar o'tar, baxtlarim alvon.
Bu o'tkinchi dunyo barisi yolg'on,
Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim.



Shomurotova Asaloy

8-sinf o'quvchisi


Yana bahor haqida

Tabiat o'zgarib ketibdi, qarang,
Gullar ham chiroyin ochibdi yalang.
Bahor kelganidan xabarlar berib,
Qushlarning ovozi sochmoqda jarang.

Yerdan maysalar ham ko'tarmoqda bosh,
Osmonda qaldirg'och, go'yo qalamqosh,
Qozonda sumalak, qaynar tilaklar,
Tilak mo'lligidan bag'ri to'la tosh.

Bunchalar, bunchalar go'zal bu bahor,
Yoshligim eslatar har ajib nahor.
Dala-dashtlarida o'ynab yurganim,
Yalang oyoqlar-la chopganim sahar.

Baridan go'zalsan, tabiat nasli,
Fasllar ichida tunganmas vasfi.
Bulutlar ham to'kar, sen deb pok ashkin,
Sensan yuragimning gullagan fasli.





Sog'inch



Seni juda sog'indik,
Mehribon maskan.
Bilimlarga kondirsan
Sen – mitti Vatan.

Qo'ng'irog'ing chorlasin
Tezroq, maktabim.
Boraylik tez bag'ringga,
Shudir – matlabim.

Har daqiqa eslayman
Saboq onlarni.
Ta'limga fidoyi,
Halak jonlarni.

Gohida ustozdan
Eshitdik dakki.
Shu dakkilar sabab
Bo'lmadik chakki.

She'rlar yozaman-u,
Ko'ngil to'lmaydi.
Axir yozmay desam,
Qalam qo'ymaydi...

Chunki seni qo'msaydi qaysar bu yurak!..



Ustoz, kechiring



Tilim aylanmaydi bir so'z deyishga,
Olam ham zulmatdek ko'rinar ko'zga.
Yozg'on so'ng ne deyin, axir men sizga,
Botin yig'layverar, ustoz, kechiring.

Siz emasmi axir o'ksinma degan?
Farosat, aqlning yo'rig'in bergen.
So'zlarning gavhari zebday terilgan,
Aziz mehribonim, ustoz, kechiring.

Qalbingiz eshigi bastami* endi?
Mustamand* ko'zimga boqing, ey ustoz.
Umid shamchirog'i yonarmi qaytib?
G'ayur shogirdingiz kechiring, ustoz.

Basta*- mahkamlamoq, bog'lamoq
Mustamand* - xasta, muhtoj



Dunyo



Bu ertakdek dunyoda
Men bir qahramon go'yo.
Mehmon bo'lib zaminga
Keldim, mana, ey Dunyo.

Eriyotgan shamingman,
Tunlarni yoritguvchi.
Goh quvonch, goh g'ammingman,
Dardin senga aytguvchi.

Bolangman, ol bag'ringga,
Bo'lma endi toshbag'ir.
Xazonsiz kuz bo'lmaydi,
Qish bo'lmas qorsiz axir.

So'zlaganda "ket" dema,
Dodlamagin dastimdan.
Axir kimga ham aytay,
Ranjimagine arzimdan.

Qachon endi men bilan
Do'stdek suhbat qurasan?
Hech bo'lmasa yolg'ondan
Kulasan, kuldirasan?

Bu ertakdek dunyoda,
Men bir qahramon go'yo.



Sabo

Sen so'zsiz soxir so'zlaysan,
Sirimni saharda sekin so'raysan.
Sendayin sirdosh siz so'zsiz so'zlayin ,
Sirimni sendan so'ng suvga sochayin.

Sarkash sog'inchim seni sog'inar,
Sochlari silashing sabr-la so'rар.
Soylar suvlarin sochimga sepib,
Saboni sog'inib so'roqlar samo.



Ravshanbekova Nilufar

9- sinf o'quvchisi

"Uyqudagi shoir"

(Muhammad Yusuf xotirasiga)

Qalblar uni o'ylaydi bosgan toshida,
Tinmasdan yig'layman tunning qoshida,
Ko'zlarin yumdi u gullagan yoshida,
Mo'lтирab turaman qabri boshida.


Xuddi qalbi kabi qabrtoshi oq,
Shoir edi dunyoda so'zlari qaynoq.
O'zbek shoiriga endi bir bor boq,
Qabrida huv o'sha lolaqizg'aldoq.

Turgin, ey shoirim, yasha kuzgacha,
Izdoshlar ko'paydi, zamon o'zgacha,
Sen uchun aytilar tahsinlar qancha,
Ishq to'la she'rlaring qalbingda ancha.

Dillar uni o'ylar bosgan toshida,
Tinmasdan yig'layman tunning qoshida,
Afsus, kirgan edi qirq yetti yoshga
Mo'lтирab turaman qabri boshida...

Turgin..., uyg'on..., ey shoirim!





Yur, yoshligim, toqqa chiqamiz,
Men sen uchun teraman lola,
Vaqtni esa ortga buramiz,
Bo'lib qolay qaytadan bola.

She'r dardini birga tuyamiz,
Sen-la ayro bo'lib netamiz,
Dala-dashtda rosa kezamiz,
Kel, yoshligim, zavqqa to'lamiz.

Sensiz qalblar bo'shab qoladi,
"Ketma" deya ko'zyoshlarim sel,
Sensiz shoir she'rsiz so'ladi,
Bir lahzangga umrim beray, kel.

Shekspirga xat

(Shekspir asarlarini o'qib)



Aslida, sen bilan birodar ajal,
Yo'qlagaysan uni satringda har gal,
Romeo yurakka urganda xanjar,
Sendan juda xafa bo'ldim, Shekspir.


Balki, senga juda yoqar bu ko'zyosh,
Osonmi, kavlaysan doim sen qabr?!

Hamlet asta yerga qo'yganida bosh,
Sendan juda xafa bo'ldim, Shekspir.

Ishonmam, yuraging nahot shuncha tosh,
Yo, senda bormikan qayg'udan qasr?
Julettaga kuydim, ketganida yosh,
Sendan juda xafa bo'ldim, Shekspir.

Yuraklar o'ladi goho bir so'zdan,
Aybsiz Dezdemona tortdi-ku jabr.
Otello g'azabi toshganda ko'zdan,
Sendan juda xafa bo'ldim, Shekspir!





Men o'zi she'r yozmasdim, biroq
Qalbimdagi dardlar unamaydi hech.
Shoirdan o'zligim anchayin yiroq,
She'riyat qasriga kirib keldim kech.

She'riyat qasrida asl shoirlar
To'plangan, kezmoqda ajib bir surur.
She'rlar yozgan edim qanchalar,
Ketay desam, yo'l qo'ymas g'urur.

Shuncha buyuk shoirlar aro,
O'zim uchun bo'sh joy izlar ko'z.
Bunda, mayli, bo'lsa ham g'arib
Menday g'o'r shoirga yetgaymikan so'z?

Yo'q, juda qiyin bo'ldi bu joyda turish,
Shoirlarning bari o'rnnin topibdi.
So'nggi chora endi eshikdan chiqish,
Chiqolmam. Oyog'im toshday qotibdi.





Men boshqacha...

(Muhammad Yusufning "Surat" she'riga nazira)




"Mening kimligimni
Bilmaydi hech kim,
Men bir g'alatiman,
Men alohida".
Dunyoning dardini
Keladi quchgim,
Kapalakday bo'lgim
Kelar gohida.

"Mening kimligimni
Bilmaydi hech kim",
Balki shoirdirman,
Balki devona.
Keladi dardimni
Qalamga sochgim,
Olamni uyg'otgim
Keladi yana.

"Mening kimligimni
Bilmaydi hech kim",
Men bir sayyohdirman
Xalq tomon yo'lim.
Balki tabiatning bolasidirman,
Lolalar ni mudom
Quchadi qo'lim.

Yuragim ezilgan, u bir aftoda,
G'am-u anduhlardan teshilib bo'lgan.
Quvonch-u shodlikka topilmagay joy,
Dardli kuylarg a u limmo-lim to'lgan.

Do'stlar-u yoronlar, dilga yaqinlar,
Quvontirmoq istab pora qalbimni.
Sevinch ulashmoqqa qilar harakat,
Lek yengil qilolmas yurak dardimni.



Go'yo g'amlar jomi mening yuragim,
Quyaver dard suvin, quyaver, soqiy.
Azobga qolsa-da bu murg'ak jonim,
Elning dardi ila yashagum boqiy.

Unutmaymiz




Mo'g'ulning qo'lida qoldi Xorazm,
La'natlarga qoldi ul Temuchin xon,
Sulton Jaloliydan ko'p qarzimiz bor,
Erk uchun to'kildi ko'p muqaddas qon.

Yurtga yov kelganda solib tahlika,
Mardona kurashgan jasur inson u.
Chingizning ko'ziga mardona qarab,
"El meniki" degan Rustam doston u.

Dushmanga asirlik, qullikdan ko'ra
Daryoga cho'kmoqni afzal bildi mard,
Bunday jasoratni ko'rmagan Chingiz,
Yuragin alamdan tig'siz tildi dard.

"Unutmaymiz" deya qilganmiz biz ahd,
Avlodlarga uning shavkati meros.
Har o'zbek farzandi Jaloliddinga
Munosib bo'lay, deb, qilmoqda ixlos.





Ona



Ozodbekova Marjona
9-sinf o'quvchisi


Qalbini g'am-alam chulg'ab olmasin,
Yo'lingga termulib, ko'zi tolmasin.
Keksayganda ko'ngli g'amda qolmasin,
Onasi hayotlar, quvonib yashang.

Tunlar uxlamasdan yo'ling poylaydi,
Doimo ezgulik tomon chorlaydi.
Oxirgi onda ham seni o'ylaydi,
Onasi hayotlar, quvonib yashang.

Xastaligin hech ham bildirmay, deydi,
Farzandin g'amini har doim yeydi.
Qaniydi, yuz yoshni qarshilasaydi,
Onasi hayotlar, quvonib yashang.

Yoningda onang bor – shod bo'lasan sen,
Har dam, har qayerda shoh bo'lasan sen.
Onangni ardoqla, sog' bo'lasan sen,
Onasi hayotlar, quvonib yashang.

Yutuqlaring ko'rsa, ketar quvonib,
Sevinchdan ko'ziga deydi, yosh olib:
"Hech ham kam bo'limagin, doim bo'l g'olib",
Onasi hayotlar, quvonib yashang.



Xonqam



Eshitgannan go'ryan yaxshi,
Ustozlarim, do'stlarim.
Galing bir Xonqamiza,
Qadrdon yurtdoshlarim.

Ayar galsangiz bir siz,
"Qaytib getmiman" disiz.
Durvadik yog'li noni
Mazasin unutmisiz.


Nomlari ela doston,
Ulug' ustoz Hojixon.
Xonqamni xofizlari,
Xalq artisti Olmaxon.

Aytin dasam nomi ko'p,
Qolg'on shuhrat-shoni ko'p.
Shoiru, xofizini... ,
Sanab barsam soni ko'p.

Issiqxona ko'p soni,
Go'zal bog', xiyoboni.
Bir bog'a nomin bardik,
Navoiydin siymoni.

So'z mulkini sultoni,
Dillarda o'chmas nomi.
Navxos qishlog'im ko'rki,
Hazrat Navoiy bog'i.

Galing bog'ni go'rali,
Muzeyina girali.
Yuraka she'r zavqin solib,
G'azalxonlik atali.



Onamga

Dilorom opaning yorqin xotirasiga



Onam mening, mushtipar onam,
Qalbimda ovozi, o'zi qayerda?
Olam shu'lasiga solsam gar nazar,
Tirikdek u mudom, qo'llar har yerda.

Onam mening, farishta onam,
Ko'zimning gavhari, qalbim sultoni.
Har dam sog'inaman, unutmam sizni,
Axir, siz ruhim-u qalbim qo'rg'oni!

Onam mening – mehribon onam,
Erkalashlaringiz hanuz yodimda.
O'shanda mehringiz bilmaganman hech,
Endi-chi, onajon, sog'insam-da kech.

Afsus! Hayotimning go'zal chog'ida,
Qadringiz bilmadim, kechiring, Ona!

Jaloliddin Manguberdi



Yurtim, aslo zavol ko'rma, mustahkamdir devoring,
Dilimizdan aslo ketmas sening ulug' shioring.
Ko'hna diyor Xorazm – bu, sen avaylab-asragan,
O'sha jasur Jaloliddin – tirik buyuk timsoling.

Quzg' tutib ko'ksing, elingni chin asrading,
Yovga bo'yin egmading sen, daryolarga sakrading.
Dushmanlarning ko'zlariga olov bo'lib sachrading,
O'sha mag'rur Jaloliddin – tirik buyuk timsoling.

Ko'zlarni quvontirib qad rostladi haykali,
Ishontirib aytaman kelganda so'zning gali:
Minglab Jaloliddinlar yetishgay yurtda hali,
O'sha botir Jaloliddin – tirik buyuk timsoling.



Onamga xat

(Muhammad Yusuf she'riga nazira)



“Men sizni o’ylayman, shom-u saharda,
Ona, sog’insam-da, bora olmayman”.
Olisda sho’x-shodon, tinch yashasam-da,
Tun-u kun sog’inib, sizni o’ylayman.


Men siz aytgandayin qiz bo’lolmadim,
O’zimga ishonchim yo’qoldi butkul,
Do’st-u yorimdan ham ayrildim, kuydim,
Qalbimda so’nadi “vafo” degan gul.

“Boshimdan o’tgani ko’kka ham ayon”,
Qalbim sahrosida qoldim qovjirab.
Kimlardir suv tutar, kimlardir olov,
Pandingizni tutmay qoldim dovdirab.

Qorong’u yo’llarda boryapman yolg’iz,
Yuragimda og’riq, qilmayman bayon.
Yig’lasam, hech kimsa eshitmas ohim,
O’zimdan o’tgani o’zimga ayon.

Ko’zimni yumsam-da, o’ylayman sizni,
Ona, mehringizga to’ymoq istayman.
Vafosiz dunyodan sadoqat izlab,
Bir do’st topmoq uchun har nega shayman.

Vujudim iztirob alangasida,
Kutmoqdaman diydor onlarin yana.
Tilayman Allohdan umringiz, ona,
Sog’ingan qizingiz - bu men, Marjona.



Vatanim posbonlari



Vatanim ertasi bo'lmas hech xazon,
Askari xatarga ko'ksidir qalqon.
Chegarangda turar mard, jasur posbon,
Qo'riqlar ko'rsatib mag'rur qaddini.


Yurtim, sen gullaysan, yashnaysan doim,
Negaki yovquvar harbiylaring bor.
Yov hatlab o'tolmas chegaralarni,
Vatanparvar, jasur o'g'lolnaring bor.

Xalqim, ko'nglingda hech bo'lmasin armon,
Kecha - kunduz bedor qo'riqlar posbon.
Yovqur, qo'rmas, jasur askar navqiron,
Xizmatlari erur tillarda doston.

O'zbegim, osuda kunlaring bisyor,
Suygan el o'g'loni askar safida.
O'z jonin ayamas sajdaghohidan,
Xalqim arslonlari ular aslida.



ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI IJOD MAKTABI





Zaynab og'usi

O'tib ketdi, tarixlarda qoldi u yog'du,
O'tib ketdi Marg'ilonning bir durdonasi.
Zaynab endi har kechada ichadi og'u,
Zaynabni ham qon yig'latgan Kumush nolasi.

Mana, yana xotirladim Otabekni ham,
Kumush – ketgan ishqil birla ko'zlarida yosh.
Yig'lasa ham yoshin to'kib Otabekka kam,
Endi yo'qdir ko'nglin bergen o'sha qalamqosh.

Nega ketdi, demang axir nega deb so'rmang,
Demang Zaynab aybdor, Zaynabda gunoh.
Unga qorong'u edi-ku taqdiri butun,
Taqdirlarni bitguvchisan, ey qodir Alloh.



Komila Abdug'aniyeva
8-sinf o'quvchisi

Bulutlar ko'z yoshi

Uyga men zo'rg'a keldim,
Usti boshim shalabbo.
Ammo biroz dardimni
Aritdi ezgu samo.

Bugun mening o'rnimda
Yig'lar osmon-u falak.
Qayrilgan qanotimga
Malham surtgin, ey malak.

Chakkamdan ham yuzimga
Yomg'ir tushsa tomchilab,
Hatto quyosh bulutni
Irg'itolmas qamchilab.

Falakda misli pari
Ko'z yosh to'kadi tinmay.
U yoshin to'kkan sari
Olam yashnatar bilmay.





Seni sog'indim bahor



Ko'zim ochirmasa dunyo tashvishi,
Qalbimni og'ritsa g'iybatchi kishi.
Endi qiziqtirmas uning har ishi,
Men seni juda ham sog'indim, bahor.

Yuzlarimni silab essa bir shamol,
Meni o'rab olar shirin o'y-xayol.
Boshimda hilpirar bir shoyi ro'mol,
Men seni juda ham sog'indim, bahor.

Kelishing eshitgach yorishdi bu dil,
Zavq-u shavqqa to'lib yayraydi ko'ngil.
Ey dard-u alamlar, shu onda so'ngil,
Men seni juda ham sog'indim, bahor.

Daraxtlar burkanar gul-u chechakka,
Bahorim, o'xshaysan sen kelinchakka.
Goh mehrim ulug'dir shu boychechakka,
Men seni juda ham sog'indim, bahor.

Ko'nglim ochib kuylay qaldirg'och misol,
Ey bahor, yaqindir bizning shu visol.
Aytgil, qalbimdasan beg'ubor inson,
Men seni juda ham sog'indim, bahor.



Madina Azizova
8-sinf o'quvchisi

Zulfiyaxonimning "Yana bugun bahorga zorman" sh'eriga nazira

"Yana bugun bahorga zorman,
O'z bahorim kabi shoshqaloq.
Yana bugun bahorga zorman,
Kutaverib dil bo'ldi qadoq".

Kel va bu oppoq muz tuproqni,
Aylantir yashil maysazorga.
Haydab yubor yovuz saboqni,
Joy qoldirma qalbda ozorga!

Sen yaqinsan, yaqin juda ham,
Buni sezib turibdi ko'nglim.
Orzularim ko'rgayman baham,
Tezroq kelgin, yayrasin dilim.

Hali ham kutaman yo'l dasan,
Sen bor ekansan, men ham borman.
Men o'ng tomon, sen-chi, so'l dasan,
Yana bugun men senga zorman!





Qanot



Qushim bor bir qanoti
Yiqilganda qayrilgan.
Lek yetmay qanoati
U hushidan ayrilgan.
Qanotini tiklash-chun
Qilgandi harakat ko'p.
Lek qancha urinmasin,
Baribir natija yo'q.
Qanot sindirmaslikka
Harakat qiling har on!
Gar uni yo'qotsangiz,
Qaytarib olmoq gumon.

Butun olam tortishish qonuni



Osmonga olma otsang,
Yerga tushar bir zumda.
Butun olam tortishish
Qonuni bo'lar shunda.

Bu haqida so'zlasak
Nyuton yodga tushadi.
Koinotga chiqqanlar
Hech to'xtamay uchadi!



Jamshid Xudoyberdiyev
10-sinf o‘quvchisi

Muhammad Yusuf Ning
“Lolaqizg’aldoq” shे’riga nazira

“Mendan nima qolar
Ikki misra she’r,
Ikki sandiq kitob,
Bir uyum tuproq,
Odamlar ortimdan
Nima desa der,
Men seni o’ylayman
O’zimdan ko’proq
Lola, lolajonim,
Lolaqizg’aldoq”.

Mana men qarshingda
Turibman yana,
Qalbimda muhabbat
To’la hayajon,
Seni qancha sevsam
Qilmading ta’na,
Sog’inib keldim men
Sog’indim, ishon.
Men qalbi jumbushga
Kelgan bir firoq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg’aldoq.

Olis xotiralar silsilasidan,
Huzuringga keldim,
Ko’rmoqlik istab,
Sen ham mendek
Tunlar shirin tush ko’rib,
Savollar berdingmi
Yulduzga qarab,
Men qalbi sog’inchga
To’kilgan titroq,
Lola, lolajonim,



Lolaqizg'aldoq.

Kun o'tib kunlarning
Salmog'i ortdi,
Xayollar ne sabab
Qildilar isyon,
Shu kabi dilimda,
Qalbimda bir on
Tinch qo'ymas negadir
Turfa xil so'roq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq.

Tuyg'u qanot qoqar
Baxtning qasriga.
Izlaydi nimadir
Yurakka yaqin,
Ko'nmasdan yurakning
Bergan amriga,
Tutqich bermay umid
Ketadi sekin,
Sendan olislarga
Ketmoqlik qiynoq,
Lola, lolajonim
Lolaqizg'aldoq.

Qalbingga ozorlar
Bermagan bo'lsam,
Yaproq'ingga kapalak
Misoli qo'nsam,
Seni o'zimdan ham
Ortiqroq suysam,
Yoningga har bahor
So'roqlab borsam,
Men kabi yo'limga
Boq, jonio, mushtoq,
Lola, lolajonim,

Yoningga har bahor
So'roqlab borsam,
Men kabi yo'limga
Boq, jonio, mushtoq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq.

Yozganlarim asli
Yurak xohishi,
Muhabbatning fasli,
Ishqning otashi,
Qalban birga bo'lib,
Xayollaringda
Olis bo'lsam hamki
Seni topishi.
Men-ku so'zlari ko'p,
Aldovga yo'qroq,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg'aldoq.





Mensiz kuning qanday o'tmoqda?



Ozordami sening ham joning,
Mening jonioz azob yutmoqda.
Jonimga qasd ekan armoning,
Mensiz kuning qanday o'tmoqda?

Kechir meni, biroz ojizman,
Oshiq dili g'amli nolaman.
Sog'inganda o'ylab qolaman,
Mensiz kuning qanday o'tmoqda?

O'chmas ekan dilda yongan ishq,
Sho'rlik yurak kuyib bitmoqda,
Dard zo'rida g'ichirlaydi tish,
Mensiz kuning qanday o'tmoqda?

Ko'nglimizga boqmadi taqdir,
Endi ayro yo'llar kutmoqda.
Mendan ortiq sevarding axir,
Mensiz kuning qanday o'tmoqda?

Sen qo'ngiroq qilarding, erkam,
Har kun oqshom har tun shu chog'da,
Sog'inyapman ko'zlarimda nam,
Mensiz kuning qanday o'tmoqda?

Ozordami sening ham joning,
Mening qalbim azob yutmoqda.
Jonimga qasd ekan armoning,
Mensiz kuning qanday o'tmoqda?



Ketsam uzoqlarga, ranjimang faqat,
Bir kun yo'l olaman olislar tomon.
Bilmam, qachongacha qilurman toqat,
Mensiz baxtli bo'ling, bo'ling sog'-omon.

Ketsam uzoqlarga, ranjimang faqat,
Lek aslo kelmayman orqaga qaytib.
Bilmadim kelsa gar bir kuni fursat,
Ketaman... She'rlarim baralla aytib.

Ketsam uzoqlarga, ranjimang faqat,
Shundoq ham meni deb ozor chekdingiz.
Men deb boshingizga kelmasdan kulfat,
Ketaman... Mensiz gar baxtga yetsangiz!

Ketsam uzoqlarga, yig'lamang faqat,
Hatto arzimayman yig'lashingizga.
Mayli, men roziman qilsangiz nafrat,
Chiday olmayman lek ko'z yoshingizga.

Ketsam uzoqlarga ranjimang mendan,
Baxtimni izlayman dunyoni kezib.
So'zlarim aytaman hammasin chindan,
Ketaman bir kuni, turibman sezib.

Ketsam uzoqlarga, yig'lamang faqat...





Derazani chertadi yomg'ir,
Tashqarida raqs tushar bulut,
Bolishimni quchgancha mahkam,
Xabarlarni yozaman unut.

Yomg'irlarga havasim kelar,
Barcha dardin to'kar tuproqqa.
Kelgunimcha kutmay ketding-a,
Yor bo'lgancha qo'shni qishloqqa.

Tabiatning ne'matini ko'r!
Shunday go'zal ilhomdir hadya.
Menday baxti qarolar ko'pdırı,
Muhabbatı bo'lgan nasiya...

Derazani chertadi yomg'ir,
Yupantirar to tonggacha u,
Yolg'onlaring yozmay unutgin,
Begonasan men uchun mangu...

Olov edi yurak...
Olov edi so'z,
Olovdek har yoqqa boqardi nigoh,
Ehtimol, barchasi topgandek zavol,
Iztirob qarshimda istaydi panoh.

Tun yoqib boradi kechmish azobin,
Xotira o'rtaga chiziq tortadi,
Pushaymon...
Ezilish... Harorat oshib,
O'lim talvasasi juda ortadi.

Sokinlik qayraydi onlar qilichin,
Tupurib yuborar maqtovga vijdon,
Men ko'z yumib ketmayman aslo
Olti yil aytishga shunchalar oson...

Olov edi yurak...
Olov edi so'z...
Barchasi moziyida qolgandek biroq
Yashash go'yo unut, yo'l yo'q yurmoqqa,
Sensiz uzoqlarga bugundek ketmoq.

Olov edi yurak olov edi so'z...



Teskari she'r

Kirib keldi kuzga hayotim,
Duv to'kildi barglardan daraxt.
Yuraklandi chalajon titroq,
Olib ketdi shamollarni baxt.

Jismlandı bechora olov,
Yonib ketdi muzlayotgan kul.
Kul o'rnini qopladi xazon,
U aylandi yurakka butkul.

Dard ichiga to'lib ketdi qalb,
Chidolmayin ruhlandi siniq.
"Ishq" so'zini bosib qoldi chang,
Yarqiradi xayolot tiniq.

Erta tongda botmoqda quyosh...



Gulsanam Abdulakimova
10-sinf o'quvchisi

Miyamga chaqmoqdek uriladi o'y
Istagimni topdim, shunday emasmi?!

Halı bor deydi bu yurak hasadgo'y
Bu axir yolg'on-ku, yo to'g'ri sasmi?
Qachon?

Qachon ro'yobini ko'rsatar tushlar,
Ro'yolar tushlarga aylanar qachon?
Tinimsiz otilgan so'zlar dilkushlar
Xotiram kemirar bir yirtqichsimon.

Ha, seni izladim, illo bir seni
Topmadim, toptadim, yugurdim, chopdim
Dod dedim, tor kelib dunyoning eni
O'zimni topdim men, o'zimni topdim.



To'g'oni buzmoqchi bo'ladi to'lqin,
Qafasdan qutulmoq istaydi bir qush,
Ipak qurt yormoqchi bo'lar qobig'in,
Kapsulang haqida sen ko'rasan tush.

Akvarium sinishin kutadi baliq,
Gulga aylanay deb to/lg'onar g'uncha.
Go'yo sabr joming to'lganiday liq
Ko'p tipirchilaysan shisha singuncha.

To'g'on parchalandi
Dengiz bo'lindi
Vaqt o'tdi, quridi
O'ldi...
Qafas parchalandi
Qush parvoz qildi
Sayyodga sayd bo'ldi
O'ldi...
Ipak ham yorildi
Kapalak bo'ldi
Bir kun umr ko'rди
O'ldi...
Akvarium quladi
Suvi to'kildi
Baliq suvsiradi
O'ldi...
G'uncha ochildi
Bir bola hidladi
Uzildi, so'ldi
O'ldi...

Tirikmisan?
Kapsulada qol...





Rayhona Murodova
10-sinf o'quvchisi

Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?...

Ko'rganmiding ko'zimda bir yosh
Sen bor bahor oqshomlarida.
Ko'nglimda hech botmasdi quyosh
Umrimning ul oq shomlarida...

Sen bor-baxt ham ortiqcha edi,
Qo'llarimda sen tutgan gullar.
Shodlik dema, quvonch so'rama,
Bugun meni unutgan ular.

Unday emas! Unutgan menman,
Hatto sog'inchlarim isyonkor!
Kunlar o'tar qabring boshida
Hislarimga senmas, armon yor...

Yodingdami sen bergen gullar,
Endi senga men eltaman gul.
Seni menga eslatar she'rlar
Endi mening oldimda bir yo'l...

Sen hamnafas bo'lgan uzun yo'l...





Eshiklar ochilar, kírar shamollar
Men kutgan shamollar kelmaydi kirib.
Garchi ular sochar atirgullarni
Garchi bu gullarni olaman suyib.

Eshiklar ochilar. Kírar shamollar
Kirib kelmas nechun men kutganlarim?
Do'stim deb bilganim unutsa meni
Tinimsiz xotirlar unutganlarim.

Shamollar kirmoqda. Yana ohista
Eshikning ovozi quvdi xayolim.
Bilmadim, bilmadim, balki bu safar
Meni unutmagan kutgan insonim?!



Azizim, bir yo'l bor oldinda
Soch tolasi kabi ingichka
Tushdek uzun, ro'yodek qisqa
Azizim, bir yo'l bor oldinda.

Azizim, bir yuk bor yelkamda
Yukim bor. Yo'limda adashdim.
Sha'nim-u nomusim yelkangda
Savashdik. Savashding. Savashdim.

Azizim, bir yuk bor yelkamda
U menim! Sen uni olmagin.
Haqiqat baribir haq ekanda.
Mensiz qol. Haq yo'ldan qolmagin.

Yukim ag'darilar o'shanda...

**savash-kurash*



Kuz



Kuz!

Sochil umrimning burchaklariga,
Dardimga malham qil xazonlaringni.
Kezingin yuragim yo'laklarida,
Faqat...
Tutma, yangi armonlaringni.

Kuz!

Kuzgi dunyomni ko'rib turibsan,
Oltin yaproqlaring umrimga bezak.
Termuldim.
Titradim.
To'lib turbman.
Kuz, bahor men uchun oddiy bir ertak.

Atrofga xazonlar sochgin, yetmasa,
Dilimga xazonlar sochavergin kuz.
Inon, kuzgi dunyom to'lib ketsa-da,
Seni sevganim-chun chekmayman afsus!



Bo'lsa edi umrim siyohdon,
Bo'lsa edi daraxtlar qalam.
Shunda balki bo'larding oshkor,
Yuragimni yondirgan alam.

Buzilsaydi dunyo maromi,
To'lqinlar ham olsaydi orom,
Tunlar menga sirdosh bo'lganda,
Qayta-qayta botsaydi oqshom...

Koshki seni ko'ma olsaydim,
Yuragimning tubsiz qa'riga,
Yashasaydim boshqalar kabi
Qo'lim siltab bari-bariga.

Ammo unday bo'lmas, bilaman,
Yuragimda qolasan mangu.
Bas, sen bilan kuchli bo'laman,
Ko'zlarimda chaqnamas afsus.

Shunday kuchsan, ta'rifga so'z yo'q,
Senga dushman qog'oz-u qalam,
Menga ozor bergen-u, lekin
Qalbim qoraytirmagan, alam!





Azizbek Toshqorayev
10-sinf o'quvchisi



Tanish yo'llar, notanish jimlik,
Taraqlamay ketmoqda ulov.
Yo'q o'sha yo'l, hoov ana qumlik,
Quvlashmachoq o'ynaydi birov,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?

O'zgaribdi, sekinroq bari,
Yo'lda o'yiq, chuqurchalar yo'q.
Hamon qaynoq, lek uning bag'ri,
Qishloqchamning mehri hamon to'q,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?

Shoxariqdan sharillaydi suv,
Daraxtlarni o'ynatar shamol.
Mevalarin to'kibdi duv-duv,
Qayda ekan bundayin jamol?
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?

Gullar isi, dalaning tafti,
Charchog'ini olar odamning.
Dag'algina bog'bonning kafti,
Silamoqda gulin bodomning,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?

Tor ko'chalar, fayzli ko'chalar,
Tor bo'lsa ham sig'gan bolalik.
Bu ko'chadan necha-nechalar,
Yuragidan bichgan tolalik,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?

Do'nglik pasti, terak shovqini,
Shu tepadan qorlar uchganim.
Haligacha kelar biqinib,
Ot minmoq-chun uni quchganim,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?





Qizg'aldoqzor oralab chopib,
Chuchmomalar terganim qani?!

Olmaning qip-qizilin topib,
Onajonga bergenim qani,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?

Marvarid tut dastini tutib,
Idishchamga orzu yig'ganim.
Dehqonbobo ketishin kutib,
Handalaklar terib chiqqanim,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?

Yuragimga sig'adi olam,
Lek sig'maydi qishloqcham zavqi.
Sog'indim-ku der seni, bolam,
Ammo tutar shaharning tavqi,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga?



“Deydilarki seni ko’rganda”

(Zulfiyaxonimning she’riga nazira)

“Deydilarki seni ko’rganda,
Ko’zlarimda yonar jonli o’t’.
Shu o’tlarning ichida sening,
Tuyg’ularing bo’ladi unut.

Har sahar yig’laydi o’ngimda,
Bermaydi hech kimga izningni.
Qalb so’rab qo’ymaydi visoling,
Aytadi til faqat ismingni...

Shu qora ko’zlarning o’tida,
Yurakni qo’ydim-ku oldirib.
Men bugun ketaman iznsiz
Hechkimsiz qalbimni qoldirib.

Bu hijron, xayollar turibdi
Tuyg’ular chashmida elanib.
Kuymoqda sevgidan bemor qalb,
Kuyyapman ishqingga belanib.

Ishqparast ko’nglim-a, qaydasan?!

Kelyapti shodliklar izma-iz.
Baxtingga sherikman, kechirgin,
Yolvorib so’rayman cho’kib tiz.

Ismingni yurakka joyladim,
Vaslingni etmoqda qalb talab.
Ketaylik sevgidan biz kechib
O’taylik hijrondan bir hatlab.



Zahroxon Sa’dullayeva
9-sinf o‘quvchisi

Boramiz biz boshqa dunyoga,
She’rlar ham to’qiyimiz yonma-yon.
Yashirin dildagi so’zlarni,
Ohista qilamiz namoyon.
Sukutlar jim qolgan sohilda,
Sevgingdan olaman bir nafas.
Ko’zimda jismingni ko’raman,
Va sen ham ko’rasan unda aks.

Yozmoqqa undadi sog’inching,
Shamollar o’chirdi izingni.
Sen o’sha tuproqqa aylangan
Tunlarda aytaman ismingni...

Har oqshom aytaman ismingni...





Oq gilam



Gupullab yog'adi injudek durlar,
Oppoq bo'z olamni qurshab oladi.
Mashinalar uchar "vizi-vizillab",
Yaxmalak ustida oyoq toladi.

"Chalp-chalp", "taqir-tuqur" qadam ovozi,
Olisdan sezilar, g'irchillaydi tish.
Muzlatar,sovutar ayozning nozi,
Xush kelding, xushvaqt bo'l, kumushrang, ey qish.

Tomlarga salom ber, daraxtni oqla,
Archalar boshini pastga eg sekin.
Bamisli yo'llarga oq zaring sepib,
Qorlaring uchqunin uchirgin erkin.

Mashina to'xtadi.
Suv sepdi birdan,
Qizning ko'ylagini shalabbo qildi.
Mo'ralar eshikdan begona kimsa,
Paltosini yechib eshikka ildi.

Soatlar, sekundlar o'tar bir zumda,
Oq gilam yurtimga, yo'llarga zevar.
Qish keldi deyishdi uzoqdan shunda,
Qish bizni, bolalar qorlarni sevar.



Qog'ozsiz...Qalamsiz...



Davosiz dardlarga aylanib qoldim,
Shunchaki yashashga o'rgandim chog'i.
Satrlar, she'rlarga ketdim qorishib,
Go'yoki qog'ozning bo'lib yamog'i.

Soflik bog'lariga qadadim nihol,
Umrinmi she'rlarga bergenim chinmi?
Dod solib yig'lagim kelyapti bugun,
Bugun shu bog'lar ham men uchun jimmi?

Qo'msaydi yurakning dardli xonishin,
Bu ko'ngil muhabbat bog'iga tashna.
Ko'rghanmi yurakni o'tda yonishin?
Ko'rghanmi taqdirni ketishin tashlab?

Umidni uzmoqqa yetmas bardoshim,
Jang qilib ko'rsammi, tunda olishib.
Qaytarib ber, hoy tun, xotiralarni!
Men bugun dardlarga ketdim qorishib.

Bo'g'zimga sukulalar tiqilib qoldi,
Ichimda to'lg'onar yangi madhiya.
Qo'llarim yozmoqdan bo'lgandi mahrum,
Qog'ozsiz...Qalamsiz...Yashasin deya!

Eh taqdir! Siyohni yuragimga ber,
Hislarini yozsin, dardlarini ol.
Yozsin o'tinchini...O'kinchlarini,
Siyohlar behuda ketmasin uvol...

Ko'zyoshlar behuda ketmasin uvol...

*Rashid Xo'jamovning "Vido" she'riga javob tarzida yozilgan she'r



Esimda



Qarshimda qotadi qahrlar,
Men hamon boryapman o'ksinib.
Ayrodir necha ming taqdirlar,
To'kilib ketyapman, to'kilib...

Seni deb yonmoqlik chorasisz,
Seni-da solishga yo'q qafas.
Sen bilan bormoqqa imkon yo'q,
O'lyapman...
Hamnafas...
Har nafas...

Itlar ham g'ajiydi ishqimni,
Ko'rolmas sevgimni "ko'rsichqon".
Bironing paymonin buzguncha,
O'l "sichqon"...
O'l "sichqon"...
O'l "sichqon"...

Tumanli osmonda oy ham yo'q,
Ichikib sog'inchga bo'lma shay.
Yurakka yashirma izhoring,
Kelaqol, ko'zingdan bir o'pay...
Kelaqol, ko'zingdan bir o'pay...

Huv o'sha oqqushlar eslaydi,
Yonma-yon she'rilar ham to'qirdik.
Men senga tutqazgan maktublar,
Muhabbatnomalar o'qirdik.

Esimda qip-qizil lolagun,
Sehrli, sehrli qarashlar.
Bexosdan aytilgan so'zlar-chun
Urishib, so'ng yana yarashlar...



Esimda

II qism



Endichi biz boshqa-boshqamiz,
Men sening vaslingga mahkumman.
Har tongda shivirlar so'zingdan,
Ko'zmunchoq ko'zingdan mahrumman.

Taqdirga ko'nmayin iloj yo'q,
Dunyoda yashash-chun na qilay?
Yaxshiyam bu o'tli nigohlar,
Men bilan emasdир harqalay.

Qop-qora zulmatda qon dilim,
Yuragim gupillar o'choqdir.
Ayriliq azobi va seni,
Qucholmay qolgan shu quchoqdir.

Men senga baxtlarni tilayman,
Lek yurak ko'nmaydi.
Dil hamon.
Sog'inchga sukutni bog'la der,
Men o'lib boryapman sen tomon...



Men yig'lasam...



Men yig'lasam, indamasmisiz?!

Ko'rib yuzda bir tomchi yoshni.

Sizga borsam, ket demasmisiz,

Men borganda qalbingiz bo'shmi?

Men yig'lasam, yig'lamaysizmi?!

Sevgi uchun qilmasmisiz jang?

Yongan ishqni tig'lamaysizmi?

Bu dunyodan bezgancha arang.

Men yig'lasam, o'ylamaysizmi?!

Demasmisiz zaif tobora?

Sizni kutgan ko'zlarim haqqi,

Qalbim siniq...

Yurak sadpora...

Men yig'lasam, o'ksinmaysizmi?!

Boshimga ko'p yog'ganda tuhmat.

Ko'zimga tik qarab turishga,

Sizda qaydan bunchalar jur'at?



Men yig'lasam, sog'inmaysizmi?!
Boshqa go'zal topdingizmi yo?
Axir ular razil shunchalar,
Meni sizdan qilmoqda judo.

Men yig'lasam, kuyib ketaymi?!
Bo'lib elga sevgi so'rog'i.
Dastro'molga tugib ketaymi?
Ikki qalbning otash firog'in.

Dunyolarga bo'lib ketsammi?!
Tugamagan ishqiy bir doston.
Sizdan kechish oson emasdi,
Bizdan kechish bo'ldimi oson?

Men yig'lasam, indamasmisiz?!
Ko'rib yuzda bir tomchi yoshni.
Sizga borsam, ket demasmisiz,
Men borganda qalbingiz bo'shami?..



Aytishuv

Zahroxon Sa'dullayeva:

Opajon! Biz birga yig'laylik,
Erisin qalblarning muzlari.
Otashda, hijronda kul bo'lib,
O'chmoqda kimningdir izlari.

Rayhona Murodova:

Singiljon! Biz birga yig'laylik,
Yarador, aldangan qalb uchun.
Kel, yana yurakni tig'laylik,
Mahv etib ko'ngilning so'ng kuchin.

Zahroxon Sa'dullayeva:

Opajon! Biz qasam ichaylik,
Iznsiz qalblardan o'chmoqqa.
Bormaylik o'zgani kechirib,
Birovning ko'ngliga ko'chmoqqa.

Rayhona Murodova:

Singiljon! Ketaylik yur birga
Darz ketgan g'ururni dast tutib.
Ko'z yumib sotilgan qadrga
Ketaylik o'tmishni unutib.

Zahroxon Sa'dullayeva:

Opajon! Hayqirib otaylik,
Yurakni sug'urib osmonga.
Ketaylik bosh olib ketaylik,
Hech kimsiz, qorong'u tomonga.

Rayhona Murodova:

Singiljon! Ketishga ketamiz
Hech kimsa bo'lмаган yoqlarga.
Yurakni, otmaymiz, tutamiz
Ko'ngli yo'q, yuragi yo'qlarga.



Zahroxon Sa'dullayeva
9-sinf o'quvchisi



Rayhana Murodova
10-sinf o‘quvchisi

Zahroxon Sa’dullayeva:
Opajon! Barini unutib,
Kezmoqda ko’nglimiz tun ora.
Muhrlab salqitdi o’ylarni
Xotira simmoqda tobora...

Rayhona Murodova:
Sinmasin, bas yetar sinmasin,
Shungacha singani yetarli.
Tugasin ko’z yoshlar, tugasin
Bir narsa qolsin-da eslarli...

Zahroxon Sa’dullayeva:
Azaldan bu parcha ko’ngillar,
O’zgadan, o’zidan tonadi.
Dunyoda haqiqiy shoirlar
She’rlarning o’tida yonadi...

Rayhona Murodova:
Yonmoq kerak bo’lsa, yonamiz,
Qalb hechdir she’riyat oldida.
Tayindir bizlarning qabrimiz!
She’rlarning bag’rida, bag’rida...





Ko'zlarimga qara



Qara, ko'zlarimga yaxshilab qara!
Aksingni ko'rdingmi yoki qora ko'z.
Qalbimga muhabbat o'tingni qala.
Toki yonib ketsin "ayro" degan so'z.

Sana soatlarni, daqiqalarni,
Tasalli bermasdan bir bor qarab kul.
Chetga sur keraksiz aqidalarni,
O'chirdim qalbimdan azobni butkul.

Ketma olislarga, men yo'q joylarga,
Yiqilganda tutay etaklaringni.
O'qib berasanmi menga atalgan
Nihoyasiz "mensiz" ertaklaringni?!

Tutma yuragingni qo'llarimga sen,
Aslida bajarmoq emas mushkul ish.
Va'dangmi o'zganing qo'lidan olib,
Meni azoblardan oson qutqarish.

Yozma men haqimda qator kitoblar!
Olib ketma pinhon baland qasringga.
Axir seni sevib, otashday kuyib,
Yana men qolaymi sening kasringga.

Qara, ko'zlarimga yaxshilab qara!
Aksingni ko'rdingmi yoki qora ko'z.
Qalbimga muhabbat o'tingni qala,
Toki yonib ketsin "ayro" degan so'z.



Yor ketma



Yor ketma...Yo'lingga tushmasin ko'zim,
Oqqushlar...Oh tushlar seni eslaydi.
Ko'ksingga qadalgan ishq degan o'qlar,
Seni sanchib so'ngra menga kelsaydi.

Yor ketma...Ishqparast o'ylaring bilan,
Boringda borimni senga bersaydim.
Qaynoq bu qo'llarning taftini ushlab,
Tushlaringga sen-la birga kirsaydim.

Yor ketma...Eng shirin so'zlaring bilan,
Ketmagine menga bu baxtlarni tilab.
Balki yuragimiz qo'shilar yana,
Bitta-bitta tikib qo'yaymi ulab.

Yor ketma...alamdan, mening hajrimdan,
Dunyoda hech narsa ketmagay izsiz.
O'zingdan sevgingini qoldirib faqat,
Qanday xayr deysan jur'atsiz, hissiz.

Yor ketma...gadosiz, mensiz joylarga,
Ketmagine hijrondan bo'lib sarxusht, mast.
Men uchun sensiz hech o'tmaydi tunim,
Bu qarash, bu ko'zlar jonimga payvast.

Yor kechma va'dangdan, tuyg'ularingdan,
Uyg'otgin, irg'itgin shu ketar chog'ing.
Bilmabman, sezmabman men ham sig'magan,
Shunchalik tormidi sening quchog'ing.

Sening ta'rifingni yozmayman deyman,
Ammo yozmaslikka bormaydi qo'lim.
Sen ham "Sevmaganman" deysan-u, ammo
Biz uchun sevmaslik aslida o'lim...

Biz uchun sevmaslik aslida o'lim...



Bu o'sha gul...Menga siz bergen,
Yolg'onmidi yoki chinmidi?
Kecha bog'da siz bilan yurgan,
Notanish ul go'zal kim edi?

Bu o'sha gul...Tanish barmoqlar,
Ushlamoqda o'zga qo'llarni.
Bizlar uchun bu tor so'qmoqlar,
Yuvayapti o'tmish yo'llarni.

Bu o'sha gul...O'zgarmagan hech,
Men o'shaman, siz-chi o'shami?
Dilda hamon gumon va sog'inch,
Yo qaytadan dardni qo'shaymi?

Bu o'sha gul...O'tmishga guvoh,
Menden kechib o'zgaga borgan.
Yo bilmasdan qildimmi gunoh,
Bu sinovmi Tangri yuborgan?

Bu o'sha gul... Sevgi deb so'lgan,
Xotiralar singan kun bugun.
Sen ham, ishq ham men uchun o'lgan,
Xayollardan chiqarish uchun.

Bu o'sha gul...Tanish chehralar,
Yo'llamoqda o'tmishga maktub.
"Men baxtliman" deya ketmoqda,
Boshqa yorning qo'lidan tutib.

Bu o'sha gul...Bu o'sha bog'lar,
Qolib ketdi kundaliklarda.
Xotiraning shu siniqlari,
Tushib qoldi keng yo'laklarda.

Bu o'sha gul... Menga siz bergen,
Yolg'onmidi yoki chinmidi?
Kecha bog'da siz bilan yurgan,
Notanish ul go'zal kim edi?





Yor-yor...



Yor-yor...Yor-yor...Qizginaga armon bo'ldi,
Yor-yorlarning o'rniga u motam tutar.
Sevgan guli gullamasdan xazon bo'ldi,
Endi alam o'rniga u zahar yutar.

Yor-yor...Yor-yor...Qulqlardan ketmaydi hech,
Qo'shni qizning uyidagi to'y ovozi.
Yig'lamoqda ho'ngrab bugun shu sahnada,
Endi kimga kerak uning aql-u nozi.

Yor-yor...Yor-yor...Doiraga jo'r bo'lmoqda,
Uning esa qalbi shodon, ko'zлari nam.
To'yga taklif qilishmoqda atay qilib,
Qo'shni qizga gul tutmoqda sevgani ham.

Yor-yor...Yor-yor...Qizginaga azob bo'ldi,
Dugonasi kelin bo'ldi sevganiga.
Ikki uzuk barmoqlarda yonma-yondir,
U ichida ahd-u paymol qilgandi-ya...

Yor-yor...Yor-yor...Qizginaga armon bo'ldi,
Yor-yorlarning o'rniga u motam tutar.
Sevgan guli gullamasdan xazon bo'ldi,
Endi alam o'rniga u zahar yutar...



Ruhimni og'riqlar hamon qiynaydi,
Dod solib baqirar tiyron bu ko'zlar.
Bu ajib kulgular hayratdan emas,
Uxlagan, mudragan hijrondan so'zlar.

Ruhimni og'riqlar hamon qiynaydi,
Tinmaydi xayollar, o'ylar ham tinmas.
Sokin qalb qaltirar qichqiriqlardan,
Sinadi qalblar lek g'ururlar sinmas.

Ruhimni og'riqlar hamon qiynaydi,
Hayot ham, taqdir ham ustidan kular.
Gunohmi sog'inish, azobda yonish?
Gunohmi qalblarni eshitib kuylash?

Ruhimni og'riqlar hamon qiynaydi,
Aksirib qo'rqtar shamollar bu tun.
Oh...yolg'iz qolmoqda bulutlar afsus,
Hasratin yerlarga to'kmoqlik uchun.

Ruhimni og'riqlar hamon qiynaydi,
Tog'larga sochmoqda bor dard-u o'chin.
Muzlagan qoyalar qaynoq dillarni,
Sovutib ketmoqda ko'rsatib kuchin.

Ruhimni og'riqlar hamon qiynaydi...





Qo'rqtyapman sendan va Xudodan, ishon,
Qo'rqtyapman tillarda qarg'ish olishdan.
Sening ko'zlaringga xiyonat qilib,
Qo'rqtyapman o'zgani sevib qolishdan.

Oqshomlar o'shami biz birga bo'lgan,
Dardlarni biiir eslab yig'laganimiz.
Men sekin yelkangga boshimni qo'yib,
Yodimda dunyoga sig'maganimiz.

Bizni kim ayirdi, balki bu yillar
Bilmasdan sho'xliklar qilganimizmi?
Hamma shu tuproqqa sig'sa-yu faqat,
Kelib shu dunyoga sig'magan bizmi?

Nahot men adashib qoldimmi afsus,
Yuragimga yana tushibman asir.
Bo'lmasmi kishandan oson qutulib?
Xayollar hijron deb bo'g'moqda axir...

Vujudimga ruhim sig'may ketyapti,
Arazlab ishqimiz yopmoqda oraz.
Bitmadi sog'inchdan qolgan bu yara,
Ketmadi sendagi. mendagi araz.

Yor uchun kechmoqlik mumkindir,
Nozlanish go'zalga oromush.
Qaniydi visoling ko'rmasdan,
Ketsaydim qo'l siltab faromush.

Qo'rqtyapman sendan va Xudodan, ishon,
Qo'rqtyapman tillarda qarg'ish olishdan.
Sening ko'zlaringga xiyonat qilib,
Qo'rqtyapman o'zgani sevib qolishdan.





Qotil qismat



Onajon! Qalbingda qovjiragan tosh,
Sen yurgan yo'llarni ketyapti bosib.
Erta tong saharda bolangni o'ylab,
Ketarding yelkangga xaltangri osib.

Mashaqqat yo'lida sendan dars olgan,
Dunyoning bo'ynini egiblar qo'yding.
O'zingni ovutib, o'z o'ylaringda,
Ba'zida g'amni ham quvonchga yo'yding.

Qachon baxt tutadi etaklaringni?
Qachon bu azoblar bo'ladi tamom?
O'qilmayin qolgan ertaklaringda,
Bir kuni bo'lasan baxtli qahramon.

Ha ular...
Kechdilar....
Qaytdilar...
Sen esa qaytmading niyatdan.
Men o'sha badbaxt bir farzanding,
Ko'zingga qarolmam uyatdan...


Sen bugun to'ymaysan kulgudan,
Men esa yig'idan to'ymayman.
Menga ber eng so'nggi jolangni,
Seni hech yig'lashga qo'ymayman.

Bilmaysan men sovuq xonada,
Dardimni qog'ozga solyapman.
Qaniydi aytolsam tik qarab
"Onajon! Kechirgin o'lyapman".

Xonada hech kim yo'q, bir o'zim,
Azroil kelyapti, yo Alloh...
Jon chiqib bo'g'zimga tiqildi,
Omiyn...La ilaha Illalloh.

Onajon! Huuv o'sha yo'llarda,
O'chirma men yurgan izingni.
Ko'nikkin... taqdirga...qismatga...
Oldirib qo'yding sho'r qizingni.

Jon chiqib bo'gzimga tiqildi...



MUNDARIJA

IBRAYIM YUSUPOV NOMIDAGI IJOD MAK TABI

Wataním.....	11
Umtílív.....	12
Qáne endi, tolsa aralím!	13
Ana tilim — ardagímsan, arímsan!	14
Ana tilim.....	15
Bayram múbárek.....	16
Suwíq kúnler.....	16
Balalíq.....	17
Sezimler.....	17
Beslik.....	18
Eki nárse.....	18
Ana tilim.....	19
Ilhom pariysi.....	20
Kuz.....	20
Àdeplilik.....	21
Ustazlarga.....	21

MUHAMMAD YUSUF NOMIDAGI IJOD MAK TABI


Shukronalik so'zim	30
Navoiyga maktub	31
Ijodimga xitob.....	32
Bolalik	32
Dada	33
Hayitlik	34
Xalqim.....	35
"Seni kuylayman hayot"	39
Manzara.....	40
Shahnoza ustoz	41
Assalomu alaykum	41
Xayolparast shoir	42
O'gri mushuk.....	42
Shokolad	43
Qadring baland bo'lsin, ey ona tilim!.....	44
Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur izdoshiman	45
Atirgul.....	46
Vatan	47
Soatim	48
Mitti yurakdagı ulkan qarz.....	49
Kutubxona.....	52
Bu - tarix.....	55
Ey ona tilim	56

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA NOMIDAGI IJOD MAKTABI

Ustozimga	58
So'z qudrati	59
Izlab	60
Tun hayqirig'i	63
Moziy nidosi	64
Siz faxrimsiz, yurtboshim	66
Qalbmunchoq	67
O'z qudrati	68
Tilak	69
Vaqt qadri	70
Vaqt qadri	71
Men kutgan bahor	74
Zulfiya nolasi	75
Erkin Vohidovning "Do'st bilan obod uying..." she'riga nazira	75
Kalitsiz eshik	76
Menden nima qolar	76
Uni sevib tilga olur	77
Ogahiy bobom	78
"Monolog" she'riga nazira	79
Mening ustozim	80
Eng yaxshi xarajat	81
Bolalik	82
Dengiz	82
Har yurakning bir bahori bor	83
Gul	85
Gugurt	85
Maktabim	86
Bahor kelganda	87
"O'g'irlayman qalaming bir kun!"	88
Umrim bahori	89
Bahor	90
Bog'ni sayr aylab	91

ABDULLA ORIPOV NOMIDAGI IJOD MAKTABI

Abdulla Oripov tavalludining 81 yilligiga bag'ishlov	93
Hayot go'zal – hayotga qo'shil	96
Shukrona	97
Ona	99
Sog'inch	99
Baxt	100
O'zbekiston	101
Zahiriddin Muhammad Bobur	102
ruboiysiga nazira	102
Davo istab yoxud she'riyatga qaytish	103



Jaholatga qarshi ma'rifat	104
Buyuk zot	105
Qadring baland bo'lsin, ona tilim!.....	105
Bobur g'azaliga muxammas.....	106
Tuyg'ular tug'yoni	107
Yomg'irdagi sayohat.....	107
Bobur g'azaliga muxammas	108


HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI IJOD MAK TABI

Yaproqlar	109
Men bilan	112
"Jangchi so'z"larga maktub.....	113
Behishtni istab	116
Vatandir	118
Anglam	119
...ga	120
Kechmish	124
Kulgichli yog'du	125
Kel.....	126
Dunyo	128
Gunoh	134
Omon Matjon bolaligidan.....	135
Xonish	137
Sarob	140
Da'vat	140

ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI IJOD MAK TABI

Qishloqqa maktub.....	142
Yurakka ko'milar asl shoirlar	143
Alisher Navoiy g'azaliga tazmin	146
G'uncha.....	147
Bahor yaqin	148
Yomg'ir	149
Gunafsha	150
Yoshlikning har lahzasi go'zal	151
Yaqinimga	153
Muhammad Yusufga bag'ishlov	154
Majnuntol	155
"Dil" radifli g'azal	156
Men bahorni sog'inganim rost	156
Bahor kelgin bag'rimga	157
Jadid	157
Navoiy	158
MChS	159
Axtaring	161
Farg'onamning baxtli qiziman	162






Egnimdag shohi atlas	162
Tarjima	163
Buyuk muhabbat sohibi	166
Botir Zokirovga bag'ishlov	167
Konstitutsiya	168
Yomg'ir	169
Anvar Obidjonga bag'ishlov	170
"Papka"ning deganlari	171
Ona	172
Ona	173
Erkin Vohidovning "Hamma shodlik senga bo'lsin" g'azalining tojik tiliga tarjimasi.....	174
Nodira	177
Jilg'a	178
Farg'onam	179
So'nggi yaproq	180
Vatan haqida	181
Ona	182

MUHAMMAD RIZO OGahiY NOMIDAGI IJOD MAK TABI

Qishloq	185
O'zimni topolmayapman	186
Kechir, bahor	187
Dil izhor	188
Sohir so'zga muhabbat	189
Vatanga	190
Ota	191
Yomg'ir tarovati	193
Hayot mavjlari	194
Sozim	195
Orzularim	196
Jonim Vatan	197
Kuzak	201
G'azallar	202
Do'stim, maning yonimdasan	203
O'zbekning tilisan	204
Yurak!	206
Bahor sog'inchi	207
O'rik gullaganda	208
Ogahiy bobom	210
Buvijonim	211
Qadring baland bo'lsin, ey ona tilim!	212
Hayot so'qmoqlari	213
Jigarlarim	214
Onajon, Siz buyuk	215
Sensiz	216
Ogahiyga ehtirom	220




Bag'ishlov	221
Yuragim	222
Mushtiparginam	223
Tong tasviri	225
Jaloliddin Manguberdi	226
Buyuklar yurti	227
Bir shoir ertani ertadan kutar	228
Ona tilim	229
Amudaryo	229
Ona tilim	230
Ona tilim	231
Har kim ekkanin o'rар	232
Ona	233
Ustoz	234
Umidvorlik	235
"Yurtim ada bo'lmas armonlaring bor" she'riga nazira	235
O'zing kifoya	236
Tuganmas ertak	237
Uyqusiz tun	238
Ona tilim - joni tilim	239
Onajon	240
Olkam	241
Fevral	242
Yozsam, yozmasam	243
Shirin so'z	244
Opajonim	244
Xorazm gujumlari	245
Bahor sog'inchi	246
Askarlar	247
Goho shodlik, goho g'am	247
O'zbekistonim	248
Sumalak sehri	249
Hazil sh'er	249
Shoir bo'lsang, xabar ber	250
Qutlov	252
Ogahiy bobom	253
Kuz nashidasi	254
YPX xodimlariga	255
Kapalakjon	256
O'zbegimning o'g'loni	257
Navro'z muborak!	258
Men o'tgan umrimga	259
Yana bahor haqida	260
Sog'inch	261
Ustoz. kechiring	262
Dunyo	263



Sabo	264
"Uyqudagi shoir"	264
Shekspirga xat.....	265
Men boshqacha.....	267
Unutmaymiz.....	268
Ona	269
Xonqam.....	270
Onamga	271
Jaloliddin Manguberdi	271
Onamga xat.....	272
Vatanim posbonlari.....	273

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI IJOD MAK TABI

Zaynab og'usi	275
Bulutlar ko'z yoshi	275
Seni sog'indim bahor	276
Zulfiyaxonimning "Yana bugun bahorga zorman" she'riga nazira	277
Qanot.....	278
Butun olam tortishish qonuni	278
Muhammad Yusufning "Lolaqizg'aldoq" she'riga nazira.....	279
Mensiz kuning qanday o'tmoqda?	281
Teskari she'r	284
Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh?.....	286
Kuz	288
"Deydilarki seni ko'rganda"	292
Oq gilam	293
Qog'ozsiz...Qalamisiz.....	294
Esimda	295
Esimda	296
Men yig'lasam...	297
Aytishuv	299
Ko'zlarimga qara.....	301
Yor ketma	302
Yor-yor.....	304
Qotil qismat.....	307





PREZIDENT TA'LIM
MUASSASALARI
AGENTLIGI

+998 (71) 207-20-17

info@piima.uz

Toshkent shahri, Yashnobod tumani,
Mahtumquli ko'chasi, 1a

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI